Akustikaning amaliy sohalari orasida muhandislik akustikasi (yoki vibroakustika, texnik akustika) alohida o‘rin egallaydi. U ish joylarida va atrof-muhitda ortiqcha shovqin hamda tebranishlarga qarshi kurashish bilan shug‘ullanadi. Muhandislik akustikasining vujudga kelishi va taraqqiyoti ko‘plab olimlarning izlanishlari natijasida yuz bergan. Ular qatoriga L. Beranek, V.I. Zaborov, I.I. Klyukin, S.D. Kovrigin, A.Ye. Kolesnikov, L. Kremer, M. Kroker, G. Kurtse, J. Laythill, L.M. Lyamshev, V.T. Lyapunov, Z. Maekava, E.L. Mishinskiy, L.L. Myasnikov, A.S. Nikiforov, G.L. Osipov, M.S. Sedov, Ye. Skuchik, B.D. Tartakovskiy, M. Hekl, Ye.Ya. Yudin va boshqa ko‘plab olimlar kiradi[2].

NATIJALAR. XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib, shovqin masalasi insoniyatni jiddiy tashvishga sola boshladi. 1850-yilda Bostonda shovqinga qarshi

ISSN 3030-3907

kurashga bag‘ishlangan birinchi munitsipal qonun qabul qilindi. 1898-yilda Nyurnbergda birinchi jamoat tashkiloti - Transport shovqiniga qarshi kurash ligasi tashkil etildi, 1908-yilda dunyoda birinchilardan bo‘lib shovqinga qarshi kurash bo‘yicha nemis jamiyatiga asos solindi, 1909-yilda esa Londonda ushbu muammoga bag‘ishlangan birinchi konferensiya o‘tkazildi. Konferensiyada sakkiz mamlakat vakillari ishtirok etdi. Bu bosqichda shovqinga qarshi kurash shifokorlar yoki huquqshunoslarning tarqoq noroziliklari, alohida nashrlar, kampaniyalardan iborat edi. Ammo shu bilan birga, shovqin va tebranishlarni o‘rganish va ularga qarshi kurashish bilan shug‘ullanadigan yangi bilim sohasi - muhandislik akustikasi uchun ilmiy asos tayyorlanayotgan edi.

To‘lqin akustikasi asoslari J.U. Releу tomonidan umumlashtirilgan, keyinchalik uni F. Morz, Ye. Skuchik va boshqalar rivojlantirgan. Geometrik akustikaning asoschisi G. Eyring bo‘lgan, statistik akustikaning asoschisi esa U. Sebin edi.

XX asrda shovqinga qarshi kurash tarixi 1920-yillarda boshlangan va uchta shartli bosqichga bo‘linishi mumkin:

1) urushdan oldingi (1920-1930-yillar);
2) urushdan keyingi (1950-1970-yillar);
3) zamonaviy (1980-yillar boshidan hozirgi kungacha).

Urushdan oldingi davrda (1920-1930-yillar) birinchi shovqin o‘lchagichlar yaratildi, ba’zi shovqin manbalarini (xususan, samolyotlarni) miqdoriy o‘rganish boshlandi, tovush izolyatsiyasi, tovush yutilishi, tovush tarqalishi sohasida birinchi puxta tadqiqotlar amalga oshirildi.

Urushdan keyingi davrda (1950-1970-yillar) muhandislik akustikasining shakllanishi sodir bo‘ldi. Bu yillarda amalga oshirilgan barcha ilmiy ishlar va hal qilingan muammolarni sanab o‘tish qiyin. Ulardan faqat ba’zilarini keltirsak bo‘ladi: yangi tadqiqot usullarini ishlab chiqish; yuqori aniqlikdagi akustik apparaturalarni konstruksiyalash; yangi akustik materiallarni yaratish; manbada tovush hosil bo‘lishi bilan bog‘liq chuqur tadqiqotlar; shovqindan himoyalovchi konstruksiyalarni ishlab chiqish va ularning xususiyatlarini o‘rganish; turli xil o‘lchash usullarini ishlab chiqish.

1-jadvalda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu yutuqlarning ba’zilari ko‘rsatilgan. Jadvalda keltirilgan ro‘yxatni yana davom ettirish mumkin edi, biroq hatto shu ma’lumotlardan ham ko‘rinib turibdiki, o‘tgan 45-50 yil ichida ko‘plab mashinalar, qurilmalar, transport vositalari va agregatlar uchun shovqin darajasi 15-30 dBA ga pasaytirildi. Bu juda samarali natija hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

1-jadval

XX asrning ikkinchi yarmida shovqin pasayishi.

Obyekt	Tovush balandligi, dBA		Tovush pasayishiga erishildi, dBA
	1950-yillar - 1960-yillarning boshlari	2000-yil boshi	
Konditsionerlar	80-85	45-50	35
Sovutgichlar	55-70	30-35	25-35
Liftlar (ichkari)	60-70	40-50	20 dan ortiq
Yengil avtomobillar (salonda)	90-95	72-75	15-20
Qurilish mashinalari	95-105	80-85	15-20
Traktorlar (kabinada)	95-100	75-80	20 dan ortiq
Reaktiv samolyotlar (salonda)	95-100	80-85	15
Reaktiv samolyotlar (tashqarida)	120-125	80-90	30-35
Ko‘chma kompressor stansiyalari	95-100	65-75	25-30
Dizelli teploxodlarning mashina bo‘limlari	95-115	80-85	15-30
	105-115	80-85	25-30
Temir yo‘lni ta’mirlash uchun og‘ir mashinalar	95-100	85-90	10-15
Yog‘ochga ishlov berish stanoklari			

MUHOKAMA. *Tovush* - elastik muhitdagi zarrachalarning biror manba ta’sirida yuzaga keladigan tebranma harakati bo‘lgan elastik to‘lqinlardir.

Tovush maydoni - tovush to‘lqinlari tarqaladigan muhitr. Tovush maydonida siyraklanish va siqilish deformatsiyalari hosil bo‘ladi, bu esa muhitning har qanday nuqtasida bosimning atmosfera bosimiga nisbatan o‘zgarishiga olib keladi. Mazkur bosimlar orasidagi farq tovush bosimi (p) deb yuritiladi.

Elastik to‘lqinlar tarqaladigan muhitga qarab, tovush *havo* va *strukturaviy* bo‘linadi.

Havo tovushi-tovushni manbadan kuzatuv nuqtasiga havo orqali yoki o‘rab turgan inshootlar orqali uzatish natijasida hosil bo‘lgan tovush maydoni.

Strukturaviy tovush- to‘siq konstruksiyalarning tebranishi natijasida yuzaga keladigan shovqin tufayli hosil bo‘lgan tovush maydonining tarkibiy qismidir

Ovoz tovush to‘lqinlarining tarqalish *tezligi* va *harakatlanish yo ‘nalishi*, ular tomonidan muhitda hosil bo‘lgan *tovush bosimi, tovush energiyasini uzatish intensivligi* bilan tavsiflanadi.

ISSN 3030-3907

Tovush tezligi u tarqaladigan muhitning xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, muhitning zichligi va elastikligiga, gaz muhit uchun esa haroratga bog‘liq funksiya hisoblanadi.

Tovushning havodagi tezligi quyidagicha ifodalanadi:

$$c = 332 + 0{,}6 \cdot t_c \qquad (1.1)$$

bu yerda t - atrof-muhit haroratidir.

Harorat 20°S bo‘lganda, tovushning tezligi havoda 340 m/s, suvda 1490 m/s va po‘latda 5039-5177 m/s ga teng bo‘ladi.

f chastotali garmonik (sinusoidal) tebranishlar manbai tezlikka ega bo‘lgan tovush to‘lqinini hosil qiladi.

$$c = \lambda \cdot f \qquad (1.2)$$

bu yerda - λ tovush to‘lqini uzunligi.

Shovqinga qarshi kurash amaliyotida bu ifoda ko‘pincha chastota bilan to‘lqin uzunligi orasidagi bog‘liqlikni belgilaydigan shaklda qo‘llaniladi:

$$\lambda = \frac{c}{f} \qquad (1.3)$$

ya’ni, tovush chastotasi qancha katta bo‘lsa, tovush to‘lqin uzunligi shuncha kichik bo‘ladi va aksincha.

Masalan, agar chastota 1000 Gs ga teng bo‘lsa, u holda xona haroratida havodagi to‘lqin uzunligi 0,34 m, 250 Gs da - 1,3 m ga yaqin, 4000 Gs da - 0,09 m bo‘ladi. Harakatlanayotgan tovush to‘lqinida siyraklanish va siqilishlar navbatma-navbat paydo bo‘ladi. Tovushning tarqalishi muhit zarralarining to‘lqindagi harakati va tovush to‘lqinining muhitda ko‘chishi kabi mutlaqo turli hodisalar bilan ham xarakterlanadi. Odatda muhit zarralarining tebranma harakat tezliklari tovush tezligidan bir necha ming marta kichik bo‘ladi. Tovush to‘lqinlarining tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlari tovush nuri va to‘lqin fronti hisoblanadi. Tovush nuri deb tovush to‘lqinlarining tarqalish chizig‘iga, tovush to‘lqinining fronti deb esa tebranish fazasi bir xil bo‘lgan nuqtalarni birlashtiruvchi sirtga aytiladi (masalan, siyraklanish fazasi).

Frontning shakliga ko‘ra tovush to‘lqinlarining uchta turi farqlanadi: *yassi* (to‘lqin tarqalish yo‘nalishiga normal bo‘lgan tekislik ko‘rinishidagi front), *sferik* (sferik front) va *silindrik* (silindrning yon sirti ko‘rinishidagi front).

Tovush to‘lqinining turi uning fazoda so‘nishiga ta’sir qilar ekan, amalda hech bo‘lmaganda taxminan to‘lqin turini aniqlash muhimdir. Agar yassi tovush manbai katta o‘lchamlarga ega bo‘lsa, uning yaqinida yassi to‘lqinlar paydo bo‘ladi va bu sohada tovush bosimi doimiy bo‘ladi. Manbadan uzoqlashgan sari yassi tovush to‘lqini barcha yo‘nalishlarda tarqaladigan sferik to‘lqinga aylanadi. To‘lqin fronti nafaqat tovush manbaining o‘lchamlari bilan, balki chastota (tovush to‘lqin uzunligi) bilan ham aniqlanishi mumkin. Past chastotalarda (katta to‘lqin

ISSN 3030-3907

uzunligida) front, odatda, sferik, yuqori chastotalarda va kichik to‘lqin uzunligida yassi bo‘ladi.

Tovush to‘lqinlarining tarqalish xususiyati atrofdagi muhitning ba’zi o‘ziga xosliklariga ham bog‘liq. Ochiq maydonda to‘siqlar bo‘lmaganda yuguruvchi to‘lqin tarqaladi, to‘siq mavjud bo‘lganda esa qaytgan tovush to‘lqinlari hosil bo‘ladi. Yuguruvchi to‘lqinda muhitdagi tovush bosimi (p) muhit zarrachalarining tebranish tezligi (v) ga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi. Proporsionallik koeffitsiyenti muhitning solishtirma akustik qarshiligi (pc) deb yuritiladi:

$$\frac{p}{v} = p \cdot c \qquad (1.4)$$

bu yerda ρ - muhitning zichligi.

Sferik tovush to‘lqini maydonida to‘lqin fronti (S) maydonining kengayishi natijasida tovush bosimi masofa (r) ga teskari proporsional ravishda o‘zgaradi:

$$S = \Omega \cdot \rho^2 \qquad (1.5)$$

bu yerda Ω - fazoviy nurlanish burchagi ($\Omega = 4 \cdot \pi$, agar tovush butun fazoga tarqalsa; yarim fazoga tarqalsada esa $\Omega = 2 \cdot \pi$ va h. k.).

Tovushning tarqalishi energiya uzatilishi bilan bog‘liq. To‘lqinning tarqalish yo‘nalishiga perpendikulyar bo‘lgan sirt birligi orqali vaqt birligi ichida o‘tadigan tovush energiyasining o‘rtacha oqimi tovush intensivligi deb ataladi. Yassi to‘lqin uchun intensivlik quyidagicha bo‘ladi:

$$I = \frac{p^2}{\rho \cdot c} \qquad (1.6)$$

Tovush intensivligi vektor bo‘lgani sababli, ba’zi amaliy holatlarda skalyar miqdor - tovush energiyasi zichligi qo‘llaniladi:

$$E = \frac{I}{c} \qquad (1.7)$$

Manbadan vaqt birligi ichida chiqadigan tovush energiyasining umumiy miqdori tovush quvvati deb ataladi:

$$W = I \cdot S \qquad (1.8)$$

Agar tovush bir nechta (n) manbadan fazalarning ixtiyoriy taqsimoti bilan chiqarilsa, u holda umumiy tovush quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$W_\Sigma = \sum_{i=1}^{n} W_i \qquad (1.9)$$

bu yerda W. - i-manbaning quvvati.

XULOSA. Maqolada shovqinning qadimgi davrlardan boshlab inson hayoti va faoliyatiga ta’siri keng qamrovda ko‘rib chiqildi. Tarixiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shovqin muammosi qadimiy sivilizatsiyalar uchun ham dolzarb bo‘lgan va jamiyatning turmush tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ilmiy adabiyotlar hamda akustika sohasidagi yutuqlarni o‘rganish natijasida shovqinning salomatlik, mehnat unumdorligi va psixologik holatga zararli ta’siri ilmiy asoslangan holda isbotlandi. XX asrda muhandislik akustikasining shakllanishi

ISSN 3030-3907

shovqinni o‘lchash, baholash va kamaytirish usullarini rivojlantirish imkonini berdi. Jadval va statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sanoat va transport sohalarida shovqinni 15–30 dBA gacha pasaytirishga erishilgan.

Tovush to‘lqinlarining tarqalishi, intensivlik, energiya zichligi va quvvat kabi fizik kattaliklar nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning amaliy yechimlar ishlab chiqishda ahamiyati yoritildi. Bu nazariy asoslar akustik ekranlar, tovush yutuvchi materiallar va konstruktiv yechimlarni ishlab chiqishda ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, maqola shovqin masalasini tarixiy, nazariy va amaliy jihatdan yaxlit ko‘rib chiqib, inson salomatligi va mehnat muhofazasini ta’minlashda samarali choralarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Olingan natijalar sanoat korxonalari, transport infratuzilmalari hamda shahar muhitida shovqinga qarshi kurash bo‘yicha amaliy qarorlar qabul qilishda qo‘llanishi mumkin

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Miedema H. M. On the definition of noise // Journal of Sound and Vibration. – 2007. – Vol. 304. – № 3–5. – P. 876–879.
2. Иванов Н.И. Инженерная акустика: теория и практика борьбы с шумом. – Москва: Издательство „Физматлит“, 2004. – 384 с.
3. GOST 12.1.003-2014. SSBT. Noise. General safety requirements.
4. Сулаиманов С.С., Мусаев Ш.Г. Sanitary and hygienic evaluation of working conditions and noise characteristics of equipment in the metalworking shop of the Tashkent passenger railcar construction and repair plant // Journal of Transport. – 2025. – Т. 2, № 2. – С. 189–194. – DOI: 10.56143/jot-journal.v2i2.288.
5. Сулаиманов С.С., Мусаев Ш.Г. Analysis of occupational diseases associated with noise pressure levels in workplaces of railway enterprise employees // Journal of Transport. – 2025. – Т. 2, № 2. – С. 186–188. – DOI: 10.56143/jot-journal.v2i2.287.
6. СанПиН РУз N 0325-16. – Утв. Главным государственным санитарным врачом Республики Узбекистан С. С. Сайдалиевым 01.02.2016 г. – Ташкент, 2016. – 28 с.

ISSN 3030-3907

SHOVQINNING ZARARLI TA’SIRI VA UNING TURLI MINTAQALARDA MUAMMOLI KO‘RSATKICHLARI

Sh.G. Musayev

Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqola shovqinning zararli ta’siri va uning turli mintaqalardagi muammoli ko‘rsatkichlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — ishlab chiqarish hamda atrof-muhit shovqini natijasida yuzaga keladigan eshitish va yurak-qon tomir tizimiga oid o‘zgarishlarni ilmiy dalillar asosida ko‘rsatish hamda ularning mintaqaviy farqlarini yoritishdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sanoat taraqqiyoti va urbanizatsiya natijasida shovqin inson salomatligiga sezilarli xavf tug‘diruvchi global muammoga aylangan. Taxminlarga ko‘ra, dunyo aholisining 10 foizi eshitish qobiliyatining yo‘qolishidan aziyat chekmoqda va bu holatlarning yarmidan ko‘pi xavfli darajadagi shovqin ta’siri bilan bog‘liq. WHO o‘tkazgan tadqiqotlar 25 ta xavf omillari qatorida kasbiy shovqinning ham inson salomatligiga ta’sirini baholagan.

Yevropada yiliga 12 ming erta o‘lim, 48 ming yangi yurak ishemik kasalligi, millionlab aholida surunkali bezovtalik va uyqu buzilishlari shovqin bilan bevosita bog‘liq ekani aniqlangan. AQShda har yili 30 million ishchi, Janubi-Sharqiy Osiyoda esa 75–140 million ishchi xavfli shovqin darajalarida faoliyat yuritadi. Germaniyada 4–5 million ishchi mehnat bozorining 12–15 foizini tashkil etadi va ular WHO belgilagan xavfli darajalarga duch kelmoqda. Avstraliyada esa 10 yil davomida 80 mingdan ortiq erkak va 31 mingdan ortiq ayolda NIHL rivojlangan.

Shovqinning salbiy ta’siri faqat eshitish qobiliyati bilan cheklanmay, yurak-qon tomir, endokrin va asab tizimlarida ham kuzatilmoqda. Kuchli shovqin arterial gipertenziya, yurak urishining tezlashishi, puls va qon bosimining beqarorligi, sinus bradikardiya, bradiaritmiya va periferik qon aylanishi buzilishlariga olib keladi. Natijada shovqin kompleks kasbiy xavf omili sifatida ishchilarning mehnat unumdorligiga, salomatligiga va hayot sifatiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: shovqin, yurak-qon tomir kasalliklari, sanoat shovqini, eshitish qobiliyatining yo‘qolishi (NIHL), WHO tasnifi, kasbiy shovqin.

Annotation: this article is devoted to the analysis of the harmful effects of noise and its problematic indicators in different regions. The main objective of the study is to show the changes in the auditory and cardiovascular system caused by production and environmental noise on the basis of scientific evidence and to highlight their regional differences.

Literature analysis shows that noise as a result of industrial development and urbanization has become a global problem that poses a significant threat to human

ISSN 3030-3907

health. It is estimated that 10% of the world's population suffers from hearing loss, and more than half of these cases are associated with a dangerous level of noise exposure. Research conducted by WHO has assessed the impact of occupational noise on human health, among 25 risk factors.

In Europe, it has been found that 12,000 early deaths per year, 48,000 new heart ischemic disease, chronic restlessness in millions of populations, and sleep disorders are directly related to noise. 30 million workers operate annually in the United States, and 75-140 million workers operate in Southeast Asia at hazardous noise levels. In Germany, 4-5 million workers make up 12-15 percent of the labor market and are facing the dangerous levels that who has set.n Europe, it has been found that 12,000 early deaths per year, 48,000 new heart ischemic disease, chronic restlessness in millions of populations, and sleep disorders are directly related to noise. 30 million workers operate annually in the United States, and 75-140 million workers operate in Southeast Asia at hazardous noise levels. In Germany, 4-5 million workers make up 12-15 percent of the labor market and are facing the dangerous levels that who has set. In Australia, more than 80,000 men and more than 31,000 women developed NIHL over a 10-year period.

The negative effects of noise are not limited to hearing alone, but are also observed in the cardiovascular, endocrine and nervous systems. Strong noise leads to arterial hypertension, increased heart rate, instability of pulse and blood pressure, sinus bradycardia, bradyarrhythmia and peripheral circulatory disorders. As a result, noise as a factor of complex professional risk has a direct negative impact on labor productivity, health and quality of life of workers.

Keywords: noise, cardiovascular diseases, industrial noise, noise-induced hearing loss (NIHL), WHO classification, occupational noise.

Аннотация: эта статья посвящена анализу вредного воздействия шума и его проблемных показателей в различных регионах. Основная цель исследования-показать изменения в слуховой и сердечно-сосудистой системе, вызванные производственным и экологическим шумом, на основе научных данных, а также пролить свет на их региональные различия.

Анализ литературы показывает, что в результате промышленного развития и урбанизации шум стал глобальной проблемой, представляющей значительный риск для здоровья человека. По оценкам, 10 процентов населения мира страдает потерей слуха, и более половины этих случаев связаны с воздействием опасного уровня шума. Исследования, проведенные ВОЗ, оценивали влияние профессионального шума на здоровье человека среди 25 факторов риска.

ISSN 3030-3907

В Европе было обнаружено, что 12 тысяч преждевременных смертей в год, 48 тысяч новых случаев ишемической болезни сердца, хроническое беспокойство и нарушения сна у миллионов жителей напрямую связаны с шумом. В США ежегодно работает 30 миллионов рабочих, а в Юго-Восточной Азии-от 75 до 140 миллионов. В Германии 4-5 миллионов рабочих составляют 12-15% рынка труда, и они сталкиваются с опасными уровнями, установленными ВОЗ.опе было обнаружено, что 12 тысяч преждевременных смертей в год, 48 тысяч новых случаев ишемической болезни сердца, хроническое беспокойство и нарушения сна у миллионов жителей напрямую связаны с шумом. В США ежегодно работает 30 миллионов рабочих, а в Юго-Восточной Азии-от 75 до 140 миллионов. В Германии 4-5 миллионов рабочих составляют 12-15% рынка труда, и они сталкиваются с опасными уровнями, установленными ВОЗ. А в Австралии за 10 лет НХЛ развилась у более чем 80 000 мужчин и более 31 000 женщин. Негативное влияние шума проявляется не только на слух, но и на сердечно-сосудистую, эндокринную и нервную системы.

Сильный шум приводит к артериальной гипертензии, учащенному сердцебиению, нестабильности пульса и артериального давления, синусовой брадикардии, брадиаритмии и нарушениям периферического кровообращения. В результате шум как фактор сложного профессионального риска оказывает прямое негативное влияние на производительность труда, здоровье и качество жизни работников.

Ключевые слова: шум, сердечно-сосудистые заболевания, промышленный шум, потеря слуха (NIHL), классификация ВОЗ, профессиональный шум.

Kirish

Shovqin – bu tartibsiz, turli chastotalar va amplitudalar aralashmasidan iborat tovushlar majmui bo‘lib, u muhim ekologik va sog‘liq uchun xavfli omillardan biri hisoblanadi. 1910-yildayoq Nobel mukofoti laureati Robert Koch shovqin jamiyat uchun katta muammoga aylanishini bashorat qilib, “Bir kuni insoniyat shovqin balosiga vabo va xolera kabi qat’iy kurash olib borishiga to‘g‘ri keladi”, deb ta’kidlagan[5]. Shovqinning ishlab chiqarish korxonalarida ishchilarning sog‘lig‘iga ta’siri bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar dunyoning turli mintaqalarida keng olib borilgan. Bu sohada o‘tkazilgan tadqiqotlar shovqinning nafaqat eshitish organlariga, balki yurak-qon tomir, asab, ovqat hazm qilish tizimlari va boshqa hayotiy muhim organlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Darhaqiqat, sanoat taraqqiyoti va urbanizatsiya natijasida shovqin intensivligi va spektri sezilarli

ISSN 3030-3907

darajada oshib, inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan global muammoga aylangan. Tadqiqotlar shovqinning inson organizmiga, ayniqsa eshitish tizimiga zararli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Taxminan dunyo aholisining **10%** qismi eshitish qobiliyatining yo‘qolishidan aziyat chekadi, bu holatlarning **50%** esa xavfli darajadagi shovqin natijasida yuzaga kelganligi aniqlangan[8].

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ish sharoitidagi shovqinning global kasalliklarga ta’sirini baholash bo‘yicha keng qamrovli tadqiqot o‘tkazgan. Ushbu tadqiqot 25 ta turli xavf omillarining inson salomatligiga ta’sirini standartlashtirilgan usulda tahlil qilish tashabbusining bir qismi sifatida amalga oshirilgan[9]. Dastlab, ishlab chiqarish muhitida, masalan, to‘quv fabrikalarida shovqin ishchilarning eshitish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Ushbu muhitda uzoq vaqt davomida yuqori darajadagi shovqin eshitish qobiliyatining pasayishi va hatto butunlay yo‘qolishiga olib kelishi mumkinligi isbotlangan[7].

Shovqin butun Evropa bo‘ylab tobora ortib borayotgan muammo bo‘lib, atrof-muhit shovqinining uzoq muddatli ta’siri Yevropa hududida yiliga 12 000 erta o‘limga olib kelishi va 48 000 yangi yurak ishemik kasalligiga sabab bo‘lmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 22 million kishi surunkali yuqori asabiylashishdan aziyat chekadi va 6,5 million kishi surunkali yuqori uyqu buzilishidan aziyat chekadi. Shovqin (ya’ni, avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, samolyotlar va sanoat korxonalari shovqini) inson salomatligiga eng katta xavf tug‘diruvchi ekologik omillar qatoriga kiradi. Har yili shovqin tufayli yuzaga keladigan salbiy ta’sirlar, jumladan, bezovtalik, uyqu buzilishi va yurak ishemik kasalligi oqibatida 1 yilda taxminan 1 million insonlarni o‘limiga olib kelmoqda [12].

Ishlab chiqarish xavfsizligi va sog‘liqni saqlash boshqarmasi (OSHA) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili AQShda **taxminan 30 million ishchi** xavfli darajadagi shovqin ta’siriga uchraydi, Janubi-Sharqiy Osiyoda esa ushbu ko‘rsatkich **75-140 million ishchini tashkil etadi.** Ayniqsa, **Indoneziyada karlikning tarqalish darajasi 4,6% ni** tashkil etib, bu mintaqadagi yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi [11].

Germaniyada esa **4−5 million ishchi (mehnat bozorining 12−15%)** Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan xavfli deb belgilangan shovqin darajalari ta’sir qiladi. Avstraliyadagi hozirgi ishlab chiqarish shovqini ta’sir darajalariga asoslanib, **10 yil davomida 80 000 dan ortiq erkak va 31 000 dan ortiq ayol ishchi ONIHL (kasbiy shovqin tufayli eshitish qobiliyatining yo‘qolishi) rivojlanishiga olib kelgan**[13].

ISSN 3030-3907


Prasetyowati va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot NIHL ning har yili ortib borayotganini ko‘rsatdi. 2014-yilda NIHL tarqalish darajasi **19,1%** ni tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilda bu ko‘rsatkich **23,5%** gacha oshgan, 2016-yilda esa deyarli ikki baravarga ko‘tarilib, **57,4%** ga yetgan[10].

Aslida, shovqinning salbiy ta’siri inson salomatligiga kengroq zarar yetkazishi mumkin. Agar eshitish qobiliyatining yo‘qolishiga 76 dBA dan yuqori darajadagi shovqin sabab bo‘lsa, yurak-qon tomir, endokrin va asab tizimlarining faoliyatida buzilishlar allaqachon 40 dB(A) va undan yuqori darajadagi shovqin ta’sirida paydo bo‘la boshlaydi. Shovqin bosimi darajasi 85 dB dan oshganda, har bir qo‘shimcha desibel shovqin ta’sirida nevrotomir (nevrovascular) kasalliklar oldingi pastroq darajalar bilan solishtirganda olti oy avvalroq yuzaga keladi.

Shovqinning dastlabki ta’siri bosqichida yurak-qon tomir tizimidagi o‘zgarishlar funksional xarakterga ega bo‘ladi. Bunda yurak sohasida yoqimsiz hislar, sanchish hissi, asabiy-emotsional zo‘riqish natijasida paydo bo‘ladigan yurak urishining tezlashishi, puls va qon bosimining sezilarli darajada beqarorligi kuzatiladi. Elektrokardiogrammada sinus bradikardiyasi, bradiaritmiya, yurak ichki o‘tkazuvchanligining sekinlashishiga moyillik qayd etilishi mumkin. Shuningdek, qo‘l-oyoqlarning kapillyar spazmlari, ko‘z tubi tomirlarining torayishi va periferik qarshilikning oshishiga moyillik kuzatiladi. Kuchli shovqin ta’sirida qon aylanish tizimida yuzaga keladigan funksional o‘zgarishlar vaqt o‘tishi bilan tomirlarning tonusi doimiy o‘zgarishiga olib kelishi mumkin, bu esa arterial gipertenziyaning rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Birinchi navbatda, sanoat shovqini hamda harakatlanayotgan transport vositalarining shovqini gipertenziv ta’sir ko‘rsatadi. Shovqinning bunday ta’siri uning intensivligi, chastotasi va davomiyligi bilan bevosita bog‘liqdir[15].

NATIJALAR. Shuni ta’kidlash joizki, shovqin ta’sirida bajariladigan ishlar ko‘pincha majburiy tana holatini saqlash, yuqori diqqatni jamlash yoki kuchli asabiy-emotsional zo‘riqishni talab qiladi. Bundan tashqari, bunday ishlar boshqa noqulay omillar – chang, tebranish, zaharli moddalar, noqulay mikroiqlim ta’siri bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin (1-rasm). Ushbu omillarning barchasi shovqin ta’sirida yuzaga keladigan o‘zgarishlarning rivojlanish muddatini sezilarli darajada tezlashtiruvchi omillar sifatida qaraladi[15].

ISSN 3030-3907



1-rasm. Turli zararli omillar bo‘yicha sanoat jarohatlarining foiz nisbati (1 – bug‘lar va gazlar, 2 – chang aerozollari, 3 – shovqin, 4 – tebranish, 5 – yoritish) qizil grafik – 2018-yil, ko‘k grafik – 2019-yil.

So‘nggi tadqiqotlar shovqin yurak-qon tomir tizimiga oldin o‘ylanganidan ham katta zarar yetkazishini ko‘rsatmoqda. Masalan, W. Q. Gan va boshqalar tomonidan 20-69 yosh oralig‘idagi 5223 ishchining sog‘lig‘i holati o‘rganilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, kasbiy ikki tomonlama eshitish qobiliyatining yo‘qolishi bilan yurak ishemik kasalligining rivojlanishi o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan. Ushbu bog‘liqlik ayniqsa 50 yoshgacha bo‘lgan ishchilar, shovqinli muhitda ishlovchilar, kam ma’lumotli ishchilar va chekuvchilar orasida kuchli ekani kuzatilgan.

Shuningdek, Kersten N. va Backe E. sanoat shovqini sharoitida, tovush bosimi darajasi 95-124 dB(A) bo‘lgan muhitda ishlaydigan erkaklarda miokard infarkti rivojlanishi bilan shovqin ta’siri o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini aniqlashgan[14].

MUHOKAMA. Haddan tashqari shovqin ko‘plab salbiy oqibatlarga ega bo‘lgan keng tarqalgan ishlab chiqarish xavfi hisoblanadi. U qon bosimining oshishi, ish unumdorligining pasayishi, uyqu buzilishi, asabiylashish, stress, quloqda shovqin (tinnitus), shovqinga bog‘liq eshitish qobiliyatining yo‘qolishi (NIHL) va eshitish chegarasining vaqtinchalik pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu omillar ichida eng jiddiy salomatlik muammosi **NIHL bo‘lib, u ichki quloqning nozik eshitish mexanizmlarining qaytarilmas zararlanishi**

ISSN 3030-3907

natijasida yuzaga keladi. NIHL odatda inson nutqining chastota diapazonini qamrab oladi va natijada og‘zaki muloqotga jiddiy to‘sqinlik qiladi[16].

Nelson kasbiy shovqinga bog‘liq eshitish qobiliyatining yo‘qolishi (NIHL) bilan bog‘liq **global epidemiologik ta’sir darajasini** aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblar olib bordi. Ularning tahlillariga ko‘ra, **kasbiy shovqin ta’siridan kelib chiqqan kattalarda eshitish qobiliyatining yo‘qolishiga sabab bo‘luvchi ulushi (nisbiy hissa)** dunyoning turli mintaqalarida farqlangan. Osiyo mintaqasi bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich **7% dan 21% gacha** bo‘lishi aniqlangan (1-jadvalga qarang). Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) tasnifiga ko‘ra Osiyo submintaqalarida yosh va jins bo‘yicha kasbiy shovqinga bog‘liq eshitish qobiliyatining yo‘qolishiga (NIHL) ta’sir etuvchi ulushi (nisbiy hissa, %)[17].

1-jadval

Ish sharoitida shovqin tufayli eshitish qobiliyatini yo‘qotishning mintaqalar bo‘yicha foiz ko‘rsatkichlari

Mintaqa	15 -29 yosh	30 -44 yosh	45 -59 yosh	60 -69 yosh	J ami
EUR-A (Isroil va boshqa Osiyo bo‘lmagan davlatlar)	Erkaklar: 20% Ayollar: 9%	Erkaklar: 20% Ayollar: 9%	Erkaklar: 19% Ayollar: 8%	Erkaklar: 3% Ayollar: 3%	Erkaklar: 13% Ayollar: 9%
EUR-B (Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston, **O‘zbekiston** va boshqa davlatlar)	Erkaklar: 36% Ayollar: 21%	Erkaklar: 33% Ayollar: 20%	Erkaklar: 23% Ayollar: 6%	Erkaklar: 15% Ayollar: 8%	Erkaklar: 24% Ayollar: 19%
EUR-C (Qozog‘iston, Rossiya va boshqa Osiyo bo‘lmagan davlatlar)	Erkaklar: 38% Ayollar: 24%	Erkaklar: 35% Ayollar: 22%	Erkaklar: 25% Ayollar: 15%	Erkaklar: 16% Ayollar: 8%	Erkaklar: 24% Ayollar: 18%
EMR-B (Bahrayn, Kipr, Eron, Iordaniya, Quvayt, Livan, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni,	Erkaklar: 29%	Erkaklar: 27%	Erkaklar: 19%	Erkaklar: 12%	Erkaklar: 20%

ISSN 3030-3907

Suriya, BAA va boshqa davlatlar)	A yollar: 13%	A yollar: 12%	A yollar: 8%	A yollar: 5%	A yollar: 15%
EMR-D (Afg‘oniston, Iroq, Pokiston, Yaman va boshqa davlatlar)	Er kaklar: 25% A yollar: 15%	Er kaklar: 25% A yollar: 17%	Er kaklar: 18% Ayollar: 12%	Er kaklar: 12% A yollar: 7%	E rkaklar: 20% Ayollar: 13%
SEAR-B (Indoneziya, Shri-Lanka, Tailand)	Er kaklar: 32% A yollar: 23%	Er kaklar: 32% Ayollar: 23%	Er kaklar: 16% A yollar: 9%	Er kaklar: 23% Ayollar: 16%	E rkaklar: 26% A yollar: 19%
SEAR-D (Bangladesh, Butan, KXDR, Hindiston, Maldiv orollari, Myanma, Nepal, Sharqiy Timor)	Er kaklar: 28% A yollar: 15%	Er kaklar: 30% Ayollar: 12%	Er kaklar: 22% A yollar: 10%	Er kaklar: 24% A yollar: 9%	E rkaklar: 26% A yollar: 14%
WPR-A (Bruney, Yaponiya, Singapur va boshqa davlatlar)	Er kaklar: 20% A yollar: 12%	Er kaklar: 20% A yollar: 12%	Er kaklar: 14% A yollar: 8%	Er kaklar: 8% A yollar: 4%	E rkaklar: 16% A yollar: 7%
WPR-B (Kambodja, Xitoy, Laos, Malayziya, Mo‘g‘uliston, Filippin, Janubiy Koreya, Vetnam va boshqa davlatlar)	Er kaklar: 34% A yollar: 21%	Er kaklar: 32% A yollar: 23%	Er kaklar: 23% A yollar: 14%	Er kaklar: 18% A yollar: 8%	E rkaklar: 26% A yollar: 19%
Jahon bo‘yicha	Er kaklar: 26% Ayollar: 16%	Er kaklar: 29%	Er kaklar: 21%	Er kaklar: 13%	E rkaklar: 22%

ISSN 3030-3907

		A yollar: 19%	A yollar: 11%	A yollar: 6%	A yollar: 16%

Ushbu jadval Nelson va boshqalar (2005) tadqiqotiga asoslangan bo‘lib, ishlab chiqarishdagi shovqinning eshitish qobiliyatiga ta’siri bo‘yicha foiz ko‘rsatkichlarini aks ettiradi. Bu foizlar, muayyan mintaqadagi kasbiy shovqin ta’siridan kelib chiqqan eshitish qobiliyati yo‘qotishining umumiy ko‘lamini ko‘rsatadi.

XULOSA. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shovqin nafaqat eshitish qobiliyatining yo‘qolishi (NIHL), balki yurak-qon tomir, asab va endokrin tizimlar faoliyatida ham salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaruvchi muhim kasbiy va ekologik xavf omilidir. Dunyo bo‘yicha har yili millionlab ishchilar va aholining keng qatlami xavfli darajadagi shovqinga duch kelmoqda, bu esa ishchi salomatligi va jamoat sog‘lig‘i uchun global muammo hisoblanadi.

Mintaqaviy ko‘rsatkichlar, jumladan Yevropada yurak ishemik kasalliklari va erta o‘lim holatlarining ortishi, AQSh hamda Janubi-Sharqiy Osiyoda millionlab ishchilarning xavfli shovqin darajalarida faoliyat yuritishi, Avstraliyada esa o‘n minglab ishchilarda NIHL rivojlanishi shovqin xavfining keng ko‘lamini tasdiqlaydi. Germaniyada mehnat bozorining sezilarli qismi WHO tomonidan xavfli deb baholangan shovqin bosimi darajalari ham ushbu muammoning jiddiyligini ko‘rsatadi.

Shovqin ta’sirida yurak-qon tomir tizimidagi funksional buzilishlar — yurak urishining tezlashishi, puls va qon bosimi beqarorligi, bradiaritmiya, kapillyar spazmlar va arterial gipertenziya — vaqt o‘tishi bilan surunkali kasalliklar rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois shovqinning intensivligi, chastotasi va davomiyligi bilan bog‘liq xavflarni baholash, himoya choralarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

Umuman olganda, maqola shovqinning turli mintaqalardagi muammoli ko‘rsatkichlarini yoritib, uning inson salomatligi uchun ko‘p qirrali xavf omili ekanini tasdiqlaydi hamda kasbiy va ekologik shovqinga qarshi kurashishning ilmiy asoslangan choralarini ishlab chiqish zaruratini ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Сулаиманов С.С., Мусаев Ш.Г. Analysis of occupational diseases associated with noise pressure levels in workplaces of railway enterprise employees // Journal of Transport. – 2025. – Т. 2, № 2. – С. 186–188. – DOI: 10.56143/jot-journal.v2i2.287.

ISSN 3030-3907

2. European Environment Agency. Environment noise in Europe — 2020. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2020. — 84 p. — ISBN 978-92-9480-213-5. DOI: 10.2800/686249.
3. GOST 12.1.003-2014. SSBT. Noise. General safety requirements.
4. Сулаиманов С.С., Мусаев Ш.Г. Sanitary and hygienic evaluation of working conditions and noise characteristics of equipment in the metalworking shop of the Tashkent passenger railcar construction and repair plant // Journal of Transport. – 2025. – Т. 2, № 2. – С. 189–194. – DOI: 10.56143/jot-journal.v2i2.288.
5. Münzel T., Hahad O., va boshqalar. “The Adverse Effects of Environmental Noise Exposure on Oxidative Stress and Cardiovascular Risk”, 2018.
6. СанПиН РУз N 0325-16. – Утв. Главным государственным санитарным врачом Республики Узбекистан С. С. Сайдалиевым 01.02.2016 г. – Ташкент, 2016. – 28 с.
7. Thurston F.E. The worker’s ear: a history of noise-induced hearing loss // Journal of Occupational and Environmental Medicine. – 2013. – Vol. 55, № 12. – P. 147–157.
8. Yang L., Gutierrez D.E., Guthrie O.W. Systemic health effects of noise exposure // Journal of Toxicology and Environmental Health, Part B: Critical Reviews. – 2024. – Vol. 27, No. 1. – P. 21–54. – DOI: 10.1080/10937404.2023.2280837.
9. Concha-Barrientos M., Campbell-Lendrum D., Steenland K. Occupational noise: assessing the burden of disease from work-related hearing impairment at national and local levels. – Geneva: World Health Organization, 2004. – 98 p. – (WHO Environmental Burden of Disease Series, No. 9).
10. Prasetyowati I., Wahyuni I., Lestantyo D. The Effect of Noise Exposure on the Occurrence of Noise Induced Hearing Loss (NIHL) among Workers // Journal of Public Health in Indonesia. – 2019. – Vol. 3, No. 2. – P. 56–66. – DOI:10.15294/jphi.v3i2.597.
11. OSHA / NIOSH. Occupational Noise Exposure — Overview. – United States Department of Labor / Centers for Disease Control and Prevention, 2023. – [Internet manba].
12. Noise — European Environment Agency. Beating cardiovascular disease / Environmental risks: noise, air pollution, extreme temperature, chemicals & more. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2024. – [manba: EEA].
13. Si S. et al. Productivity burden of occupational noise-induced hearing loss in Australia: a life table modelling study //International journal of environmental research and public health. – 2020. – Т. 17. – №. 13. – С. 4667.
14. Kersten N., Backe E. A dynamic increase in the impact of noise on the human body, in particular, on cardiovascular. // IOP Conf. Series: Materials Science and

ISSN 3030-3907

Engineering. – 2021. – Vol. 1029. – P. 012110. DOI:10.1088/1757-899X/1029/1/012110.
15. Lekhman M., Shubitidze M., Litvinov A., Zanina I., Pashkova O., Kobzeva N. A dynamic increase in the impact of noise on the human body, in particular, on cardiovascular diseases // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – 2021. – Vol. 1029. – P. 012110. – DOI: 10.1088/1757-899X/1029/1/012110.
16. Subramaniam S., [va boshq.] Investigation of Noise Induced Hearing Loss Among Power Loom Workers // Indian Journal of Otolaryngology and Head & Neck Surgery. – 2024. – Vol. 76. – P. 5531–5541. DOI:10.1007/s12070-024-05025-8.
17. Nelson D.I., Nelson R.Y., Concha-Barrientos M., Fingerhut M. The global burden of occupational noise-induced hearing loss // American Journal of Industrial Medicine. – 2005. – Vol. 48, No. 6. – P. 446–458. DOI: 10.1002/ajim.20223.
18. Aqsyari R., Sumardiyono S., Murti B. Meta-Analysis the Effect of Excessively Loud Sounds on Noise Induced Hearing Loss in Manufacturing Industry Workers //Journal of Epidemiology and Public Health. – 2023. – T. 8. – №. 2. – C. 275-283.
19. Shen H. et al. Genetic variation in APE1 gene promoter is associated with noise-induced hearing loss in a Chinese population //International archives of occupational and environmental health. – 2016. – T. 89. – C. 621-628.

ISSN 3030-3907

KIMYO FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION METODLAR: ORGANIK MODDALAR SINTEZI ORQALI LABORATORIYA KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Ataniyazova Amina Seitniyazovna
Nukus shahri 31-IDUM kimyo fani o‘qituvchisi
E-mail: ataniyazovaamina00@gmail.com
Matniyazova Maftuna Jaqsimuratovna
Xo‘jayli tumani 29-sonli maktab kimyo fani o‘qituvchisi, QDU 2 -kurs magistranti.
E-mail: maftunamatniyazova08@gmail.com

Annotatsiya.Mazkur maqolada kimyo fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari hamda ularning ta’lim jarayoniga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Xususan, organik moddalar sintezi orqali talabalar laboratoriya mashg‘ulotlarida nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tadqiqotda innovatsion metodlar yordamida ta’lim oluvchilarda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqish uyg‘otish, ularning tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, maqolada laboratoriya ishlarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, ekologik muammolarni hisobga olish hamda talabalarda mas’uliyatni oshirishning o‘rni alohida ta’kidlangan. Natijada, kimyo fanida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali nafaqat ta’lim samaradorligini oshirish, balki yoshlarni zamonaviy ilmiy izlanishlarga yo‘naltirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kimyo ta’limi, innovatsion metodlar, organik sintez, laboratoriya ko‘nikmalari, ijodiy yondashuv, mustaqil fikrlash, ta’lim samaradorligi.

Annotation. This article examines the specific features of applying innovative methods in the teaching of chemistry and their impact on the effectiveness of the educational process. Particular emphasis is placed on the synthesis of organic compounds as one of the most effective tools for developing students’ laboratory skills. The study demonstrates that the integration of innovative approaches transforms theoretical knowledge into practical experience, fosters students’ interest in scientific research, and enhances their analytical thinking, creativity, and decision-making abilities. Furthermore, the article highlights the importance of observing laboratory safety protocols, considering ecological issues, and cultivating a strong sense of responsibility among learners. The findings suggest that the implementation of innovative strategies in chemistry education not only improves the quality and efficiency of learning, but also equips students with the necessary skills and motivation to engage in modern scientific research.

ISSN 3030-3907

Key words: chemistry education, innovative methods, organic synthesis, laboratory skills, creative approach, independent thinking, educational efficiency

Аннотация. В статье рассматриваются особенности применения инновационных методов в преподавании химии и их влияние на эффективность учебного процесса. Особое внимание уделяется синтезу органических соединений как одному из действенных способов формирования практических лабораторных навыков у студентов. Показано, что использование инновационных методик способствует превращению теоретических знаний в практический опыт, стимулирует интерес учащихся к научно-исследовательской деятельности, развивает аналитическое мышление, креативный подход и способность принимать самостоятельные решения. Кроме того, акцентируется значимость соблюдения правил безопасности в лаборатории, учета экологических факторов и воспитания у студентов чувства ответственности. Автор приходит к выводу, что применение инновационных подходов в обучении химии не только повышает результативность учебного процесса, но и открывает перед молодежью возможности для участия в современных научных исследованиях.

Ключевые слова: преподавание химии, инновационные методы, органический синтез, лабораторные навыки, креативный подход, самостоятельное мышление, эффективность обучения.

Kirish

Hozirgi davrda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kimyo fani nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham talab qiladigan murakkab va serqirra soha bo‘lib, uning samarali o‘qitilishi uchun an’anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, organik moddalar sintezi asosida tashkil etilgan laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarda fanga qiziqishni oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Bugungi globallashuv davrida kimyo fanini o‘qitish jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlaydi, balki yosh avlodni ilmiy izlanishlarga jalb etish, ularni ijodkor, tashabbuskor va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, laboratoriya mashg‘ulotlarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, ekologik ongni shakllantirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga o‘rgatish ham zamonaviy kimyo ta’limining ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada kimyo fanini o‘qitishda innovatsion metodlarning, xususan, organik moddalar sintezi orqali laboratoriya ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy va

ISSN 3030-3907

amaliy asoslari yoritiladi. Tadqiqotda talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy jarayonlarda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida yangilanish va islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu — ta’lim jarayoniga innovatsion metodlarni keng joriy etishdir. Ayniqsa, tabiiy fanlarni, jumladan, kimyo fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Kimyo fani nazariy bilim bilan cheklanmaydi, balki laboratoriya sharoitida tajriba, kuzatish va sintez orqali amalda qo‘llanadi. Shu sababli kimyo ta’limida organik moddalar sintezi asosida tashkil etilgan laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur yondashuv talabalar va o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirish, balki ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini hosil qilish, masalaga ijodiy yondashish, analitik fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Organik moddalar sintezi jarayonida bajariladigan amaliy ishlar orqali talabalar moddalar tuzilishi, reaksiyalar mexanizmi, sintez bosqichlari hamda xavfsizlik qoidalariga rioya etish bo‘yicha bilimlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

Shuningdek, kimyo fanini o‘qitishda innovatsion metodlar qo‘llanilishi o‘quvchilarning ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, ularni mustaqil ravishda tajribalar o‘tkazishga, ilmiy izlanishga va yangilik yaratishga yo‘naltiradi. Zamonaviy kimyo ta’limi jarayonida talabalarda ekologik ongni shakllantirish, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni anglash, shuningdek, ilmiy kashfiyotlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, maqolada kimyo fanini o‘qitishda innovatsion metodlarning, ayniqsa, organik moddalar sintezi orqali laboratoriya ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularni ilmiy-ijodiy faoliyatga yo‘naltiradi va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta’lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirish, talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga mos kompetensiyalarga ega shaxslar sifatida tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kimyo fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish ta’lim jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kiradi. Chunki kimyo – nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligiga asoslangan fan bo‘lib, uni samarali o‘qitish laboratoriya mashg‘ulotlari va tajribalar orqali amalga oshiriladi.

So‘nggi yillarda pedagogika va metodika sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, organik moddalar sintezi asosida tashkil etilgan laboratoriya

ISSN 3030-3907

mashg‘ulotlari talabalarda nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki ilmiy-ijodiy tafakkurni ham rivojlantiradi. Bunday yondashuv talabalarda mustaqil izlanish, tahlil qilish va ilmiy natijalarni umumlashtirish qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta’lim va loyihaviy ishlarni kimyo ta’limiga tatbiq etish zamonaviy o‘qitish jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu esa talabalarni nafaqat nazariy bilimga ega bo‘lishga, balki uni amaliyotda qo‘llash, yangi ilmiy g‘oyalar yaratish va hayotiy muammolarga innovatsion yechim topishga undaydi. Umuman olganda, kimyo fanini innovatsion metodlar asosida o‘qitish ta’lim sifatini oshirish, talabalarni mustaqil izlanishga yo‘naltirish va ularning kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Kimyo fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, pedagogika sohasidagi ayrim manbalarda zamonaviy ta’lim jarayonida interfaol metodlar va laboratoriya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Mualliflar fikricha, amaliy mashg‘ulotlar nazariy bilimlarni mustahkamlashda, talabalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda asosiy omillardan biridir [1].

Boshqa tadqiqotlarda kimyo fanida organik sintez asosida olib boriladigan tajribalar o‘quvchilarda ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatini kengaytirishi ta’kidlangan [2].

Shuningdek, ayrim manbalarda laboratoriya mashg‘ulotlarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish hamda talabalarni mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash muhimligi qayd etilgan. Bunda innovatsion metodlarning o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi o‘rni alohida e’tiborga loyiqdir [3].

Xorijiy adabiyotlarda esa kimyo ta’limida raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlarning integratsiyasi masalalari ko‘rib chiqilgan. Ularning fikricha, nazariy va amaliy bilimlarni uyg‘unlashtirish orqali talabalarda ijodkorlik, tanqidiy tafakkur va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalari shakllantirilishi mumkin [4].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kimyo fanida innovatsion metodlardan, xususan, organik moddalar sintezidan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish, laboratoriya ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda talabalarda ilmiy-ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, ayrim manbalarda ta’lim jarayonida loyiha ishlari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish samarali natija berishi ta’kidlangan. Chunki

ISSN 3030-3907

talaba sintez jarayonida nafaqat tayyor bilimni o‘zlashtiradi, balki yangi yechimlar topishga harakat qiladi, bu esa uning mustaqil izlanish ko‘nikmasini rivojlantiradi [5].

Yana bir tadqiqotda kimyo fanini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar samarali natija bergani ko‘rsatilgan. Mualliflar talabalarda faqat nazariy bilim emas, balki kommunikativ, amaliy va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo‘yganlar [6].

Shuningdek, ayrim xorijiy manbalarda kimyo ta’limini fanlararo integratsiya asosida tashkil etish samarali natijalar berishi qayd etilgan. Bunda kimyo biologiya, ekologiya, texnologiya va axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda o‘qitilganda, talabalar bilimni yanada chuqurroq o‘zlashtirishi, uni turli sohalarda qo‘llash imkoniyatini ko‘rishi mumkinligi ta’kidlanadi [7].

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, kimyo fanida innovatsion metodlardan, xususan, organik moddalar sintezidan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda, laboratoriya ko‘nikmalarini rivojlantirishda, talabalarda ilmiy-ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishda, shuningdek, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va metodlar. Ushbu tadqiqot kimyo fanini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish, xususan, organik moddalar sintezi asosida laboratoriya ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot ishlari o‘quv jarayonida amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya tajribalari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali amalga oshirildi.

Materiallar:

1. Laboratoriya jihozlari – probirkalar, kolbalar, pipetkalar, spirt lampalari, issiqlikka chidamli idishlar, tortish tarozilari, himoya vositalari (ko‘zoynak, qo‘lqop, xalat).
2. Kimyoviy moddalar – oddiy organik sintez uchun zarur reagentlar (etanol, sirka kislotasi, sulfat kislota katalizatori va boshqa asosiy reaktivlar).
3. Axborot manbalari – kimyo bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar, elektron darsliklar, ilmiy maqolalar va onlayn laboratoriya dasturlari.
4. Texnik vositalar – proyektor, kompyuter, interaktiv doska va taqdimot materiallari.

Metodlar:


- Nazariy tahlil – kimyo ta’limi va innovatsion metodlarga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar va qo‘llanmalarni o‘rganish.
- Eksperimental usul – organik moddalar sintezi (masalan, etil atsetat sintezi) asosida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkazish.

ISSN 3030-3907

- Taqqoslash usuli – an’anaviy o‘qitish metodlari va innovatsion metodlarni solishtirish orqali ularning samaradorligini aniqlash.
- Kuzatish va tahlil – talabalar faoliyati, laboratoriya mashg‘ulotlari jarayonida ularning ishtiroki, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish darajasini kuzatish.
Abstract. Mathematical modeling of the air separation process is one of the important tasks of modern chemical and technological industry. This is due to the fact that obtaining oxygen, nitrogen, and argon in pure form ensures their efficient use for industrial and medical purposes. This study analyzes the main stages of the air separation process, including cooling, rectification, and mechanisms for controlling gas flows, based on mathematical modeling methods. When developing the model, differential equations, the laws of heat and mass transfer, as well as mathematical expressions describing dynamic processes are applied. In addition, computer simulation is used to study the stability of the process, optimal modes, and possibilities for reducing energy consumption. The results obtained are of great importance for improving the efficiency of air separation plants, enhancing control algorithms, and implementing energy-saving technologies on an industrial scale. This research also outlines the prospects for integrating the process with intelligent control systems.

Keywords: Air separation, Mathematical model, Rectification, Oxygen and nitrogen separation, Argon production technology, Heat and mass transfer, Dynamic systems, Computer simulation, Energy saving, Control algorithms.

Kirish

Havoni ajratish jarayoni zamonaviy sanoatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon yordamida atmosferadagi asosiy gaz komponentlari kislorod, azot va argon toza holda olinib, turli tarmoqlarda samarali qo‘llaniladi. Xususan, kislorod metallurgiya sohasida yuqori haroratli jarayonlarni ta’minlashda, kimyo sanoatida oksidlanish reaksiyalarini tezlashtirishda, tibbiyotda esa nafas olish apparatlari va reanimatsion yordam vositalarida keng qo‘llanadi. Azot o‘zining inert xususiyatlari bilan oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat saqlashda, elektronika ishlab chiqarishda himoya muhitini yaratishda hamda ekologik muhofaza texnologiyalarida katta ahamiyat kasb etadi. Argon esa payvandlash jarayonlarida, elektr lampalari ishlab chiqarishda va yarimo‘tkazgich sanoatida keng miqyosda ishlatiladi. Shunday qilib, havoni ajratish jarayoni nafaqat alohida sanoat sohalarida, balki butun iqtisodiyotning samarali faoliyatida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Havoni ajratish jarayonini samarali tashkil etishda matematik modellashtirish muhim o‘rin tutadi. Chunki model asosida issiqlik va massa almashinuvi jarayonlari, fazaviy muvozanat, dinamik o‘zgarishlar chuqur tahlil qilinadi. Matematik model yordamida jarayonning turg‘un ishlashi uchun zarur bo‘lgan shartlar aniqlanadi, energiya sarfi kamaytirish imkoniyatlari belgilab olinadi va optimal ish rejimlarini tanlash imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, kompyuter simulyatsiyasi yordamida turli rejimlarni tajriba o‘tkazmasdan virtual muhitda sinash mumkin bo‘lib, bu vaqt va resurslarni tejash, prognozlarning aniqligini oshirish hamda xavfsizlikni ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Havoni ajratish jarayonining matematik modeli bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu soha nafaqat nazariy, balki keng amaliy ahamiyatga ham ega. Adabiyotlar tahlilida bir nechta muhim ishlarni ko‘rib chiqish mumkin. Masalan, M. A. Anisimova, A. Ya. Gilmanov, A. V. Kuznetsov va A. P. Shevelev tomonidan yozilgan “Mathematical Modeling of the Separation of a Mixture of Nitrogen and Oxygen Using a Selective Membrane” nomli maqolada membrana texnologiyasi asosida kislorod va azotni ajratish jarayoni uchun dinamik model ishlab chiqilgan. Mualliflar gaz oqimining membrana ichidagi va tashqarisidagi konsentratsiya taqsimotini matematik tenglamalar yordamida tahlil qilganlar. Ushbu ishning kuchli tomoni shundaki, u vaqt bo‘yicha o‘zgarishlarni hisobga oladi va nazorat hamda optimallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, model tajriba natijalari bilan solishtirilganligi uning ishonchliligini oshiradi. Ammo maqolaning zaif jihati shundaki, u faqat membrana asosida ajratishga qaratilgan va kriogen rektifikatsion yoki adsorbsion texnologiyalar bilan solishtirilmagan. Bundan tashqari, real ishlab chiqarishdagi issiqlik o‘zgarishlari, membrananing eskirishi kabi muhim omillar modelga kiritilmagan bo‘lishi mumkin.[1]

Yana bir diqqatga sazovor tadqiqot H. Zhou va hamkorlari tomonidan yozilgan “Dynamic Modeling of Heat-Integrated Air Separation” nomli maqolada taqdim etilgan bo‘lib, unda ichki issiqlik integratsiyalangan rektifikatsion kolonna ustunlari yordamida havoni ajratish jarayoni o‘rganilgan. Mualliflar nochiziqli model orqali massa va issiqlik almashinuvi, bug‘-suyuqlik fazalarining muvozanati bo‘yicha konsentratsiya taqsimotini chuqur tahlil qilganlar. Ushbu maqolaning afzalligi shundaki, issiqlik integratsiyasi hisobga olingan va energiya samaradorligi oshirilgan holda real jarayonning turg‘unligi ko‘rsatilgan. Dinamik simulyatsiya yordamida boshlang‘ich va o‘tish rejimlari ham o‘rganilgan. Biroq modelning murakkabligi yuqori bo‘lib, hisoblash jarayonlari ko‘p vaqt talab qiladi va iqtisodiy cheklovlar yetarlicha yoritilmagan. Sanoat sharoitida qo‘llashda uning texnik

ISSN 3030-3907

nuqsonlari va issiqlik yo‘qotishlari modelda aks etmasligi mumkin. Ushbu ikki maqola tahlilidan ko‘rinadiki, havoni ajratish jarayonini modellashtirish turli yondashuvlar orqali amalga oshirilishi mumkin.[2]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ushbu ilmiy natijalari amaliy sharoitda qo‘llashga moslashtirilgan metodologiya taklif qilinadi. Maqolada differensial tenglamalar yordamida matematik model tuzish, ma’lumotlarni qayta ishlash, imitatsion modellashtirish va zamonaviy avtomatik boshqarish nazariyasining sinovdan o‘tgan usullari kabi tadqiqot metodlaridan foydalaniladi. Matematik modellash jarayonining natijalarini Matlab dasturiy muhitida simulyatsiya qilib tekshiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Havoni ajratish kriogen usulida atmosfera havosi siqilib sovutiladi va rektifikatsiya kolonnasiga yuboriladi. Kolonnada azot, kislorod va argon ularning qaynash harorati farqlariga ko‘ra ajratiladi: azot yuqorida, kislorod pastda, argon esa o‘rtada to‘planadi. Jarayon davomida ikkita asosiy hodisa kuzatiladi: issiqlik uzatilishi va massa uzatilishi. Issiqlik sovutgichlar orqali boshqarilib, gazlarning bug‘-suyuqlik muvozanati ta’minlanadi. Massa almashinuvi traylar yoki qadoqlangan qatlamlarda sodir bo‘lib, konsentratsiyalar bosqichma-bosqich o‘zgaradi.[3] Model uchta omilga asoslanadi: harorat (t), bosim $p(t)$ va konsentratsiyalar. Harorat sovutish quvvatiga, bosim kompressor va kengaytirgichlarga, konsentratsiyalar esa massa uzatish tezligiga bog‘liq. Boshqaruv signali sifatida (t) – sovutish yoki bosim beriladi. Chiqishlar sifatida: y_1 kislorod konsentratsiyasi, 2 azot konsentratsiyasi olinadi.

Havoni ajratish ustunining soddalashtirilgan dinamik tenglamalari quyidagicha yoziladi:

$$\mathrm{C}_T \frac{dT(t)}{dt} = -k_Q(T(t) - T_c) + au(t)$$

$$V \frac{dC_{O_2}(t)}{dt} = -k_m \left(C_{o_2}(t) - C_{O_2}^{eq}(T(t))\right)$$

$$V \frac{dC_{N_2}(t)}{dt} = -k_m \left(C_{N_2}(t) - C_{N_2}^{eq}(T(t))\right) \qquad (1)$$

Bu yerda, $T(t)$ - ustun ichidagi o‘rtacha harorat, C_T - issiqlik sig‘imi, k_Q - sovutish koeffitsienti, T_c - sovutgichning temperaturasi,α - boshqaruv signali ta’sir koeffitsienti, V - hajm, k_m - massa uzatish koeffitsienti, $C_{N_2}^{eq}, C_{O_2}^{eq}$— fazaviy muvozanatdagi konsentratsiyalar (haroratga bog‘liq).

Endi ish rejimi atrofida (nominal qiymatlar: $T_0, C_{N_2,0}, C_{O_2,0}$) chiziqlashtirib yozib olinadi:

ISSN 3030-3907

$$\Delta\dot{T}(t) = -\frac{k_Q}{C_T}\Delta T(t) + \frac{a}{C_T}\Delta u(t)$$

$$\Delta\dot{C_{O_2}}(t) = -\frac{k_m}{V}\Delta C_{O_2}(t) + \beta_1\Delta u(t)$$

$$\Delta\dot{C_{N_2}}(t) = -\frac{k_m}{V}\Delta C_{N_2}(t) + \beta_2\Delta u(t) \qquad (2)$$

bu yerda, β_1,β_2 - muvozanat funksiyalarining hosilalari.
Endi (2) tenglamani holat vektorini tuzib olinadi:

$$x(t) = \begin{bmatrix} \Delta T(t) \\ \Delta C_{O_2}(t) \\ \Delta C_{N_2}(t) \end{bmatrix}, u(t) = \Delta u(t)$$

$$\dot{x}(t) = Ax(t) + Bu(t),\ y(t) = Cx(t) \qquad (3)$$

Matritsalar holatida ifodalab olinsa:

$$A = \begin{bmatrix} -\frac{k_Q}{C_T} & 0 & 0 \\ \beta_1 & -\frac{k_m}{V} & 0 \\ \beta_2 & 0 & -\frac{k_m}{V} \end{bmatrix}, B = \begin{bmatrix} \frac{a}{C_T} \\ 0 \\ 0 \end{bmatrix}, C = \begin{bmatrix} 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix} \qquad (4)$$

(3) va (4) tenglamalarni laplas tasvirini topib, 2 ta uzatish funksiyasi tuzib olinadi:


$$G_{O_2}(p) = \frac{K_1}{(\tau_T p + 1)((\tau_C p + 1)}, \qquad G_{N_2}(p) = \frac{K_2}{(\tau_T p + 1)((\tau_C p + 1)}, \qquad (5)$$

Bu yerda, $\tau_T=C_T/k_Q$, $\tau_C=V/k_m$, K_1 va K_2 esa issiqlik-massa o‘zaro ta’siridan kelib chiqqan kuchaytirish koeffitsientlari.[5-7] Tajribalardan topilgan natijaviy tahlillar asosida $K_1=1.5$, $K_2=0.8$, $\tau_T=5$, $\tau_C=10$ koeffitsiyentlarning qiymatlari olinadi.

Olingan tadqiqot natijalarini amaliy jihatdan tekshirish bosqichi sifatida MATLAB dasturidan foydalanish rejalashtiriladi. Chunki MATLAB jarayonlarni modellashtirish va nazorat qilish imkonini beradigan qulay matematik muhit hisoblanadi. Havoni ajratish jarayonidan olingan matematik model dasturga kiritilib, uning asosida tizimning dinamik xususiyatlari, ya’ni vaqt bo‘yicha javobi va chastotaviy tavsiflari tahlil qilinadi. Avvalo, model uchun o‘tish xarakteristikasi aniqlanadi. Bu xarakteristika yordamida tizimga berilgan kirish signaliga javoban chiqish ko‘rsatkichlari qanday tezlikda va qanday sifatda turg‘unlashishini kuzatish mumkin bo‘ladi. O‘tish xarakteristikasidan asosiy parametrlar – rostlash vaqti, o‘tish jarayonidagi ortiqcha tebranish darajasi hamda statik xatolik kabi ko‘rsatkichlar olinadi. Ularning barchasi jarayonning turg‘unligi va boshqaruv

ISSN 3030-3907

sifati haqida to‘liq tasavvur beradi. Olingan MATLAB natijalari havoni ajratish jarayonining qurilgan matematik modelini amaliy jihatdan baholash imkonini berdi. Avvalo, Bode diagrammasi ko‘rib chiqildi. Diagrammada ko‘rinib turibdiki, tizim chastota ortishi bilan amplituda kamayib boradi va past chastotada turg‘un, yuqori chastotalarda esa signallar susaytiriladi. Bu esa modelning fizik mazmuniga to‘la mos keladi, chunki real rektifikatsion kolonna yuqori chastotali o‘zgarishlarga tez javob bera olmaydi va ularni filtrlaydi.[8] Fazaviy xarakteristika esa chastota ortishi bilan pasayib borishini ko‘rsatmoqda, ya’ni jarayon inert xarakterga ega.



a) **b)**

1-rasm. Azot va kislorod konsentratsiyasi parametrlarining o ‘tish grafigi (a) va turg‘unlik zahirasini qiymatlarining grafik ko‘rinishi (b).

Fazaning –90° ga yaqinlashishi tizimning tipik ikkinchi tartibli o‘tish jarayonlariga xos ekanligini tasdiqlaydi. Amplituda va faza diagrammalaridan ko‘rinadiki, tizimning turg‘unlik zaxirasi yetarli bo‘lib, u real sharoitda tashqi ta’sirlarga bardosh bera olishini bildiradi. O‘tish grafigi orqali jarayonning vaqt bo‘yicha javobi tahlil qilindi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, kislorod chiqishi (y_1) tezroq turg‘unlashib, yuqori amplituda qiymatiga yetadi, azot chiqishi (y_2) esa asta-sekin o‘sib, nisbatan pastroq darajada to‘xtaydi. Bu natija fizik jarayon mohiyatiga mos keladi, chunki kriogen sharoitda kislorodning konsentratsiyasi yuqori darajaga erishishi, azotning esa pastroq konsentratsiyada chiqishi tabiiydir. Turg‘unlashish vaqti taxminan 40–50 soniya oralig‘ida bo‘lib, bu jarayonni real rektifikatsion kolonna uchun qoniqarli dinamik javob sifatida baholash mumkin.[9]

Natijalar umumiy tahlil qilinadigan bo‘lsa, qurilgan model nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham turg‘un ishlashini ko‘rsatmoqda. Bode diagrammasidagi faza va amplituda xususiyatlari tizimning chastotaviy turg‘unligini tasdiqladi, step response esa o‘tish jarayonida ortiqcha tebranishlar yo‘qligini va chiqish signallarining aniq ravishda turg‘un qiymatga intilishini ko‘rsatdi.

XULOSA

ISSN 3030-3907

Ushbu tadqiqotda havoni ajratish jarayoni uchun matematik model ishlab chiqildi va u MATLAB muhitida tekshirildi. Fizik model issiqlik balansi, massa balansi hamda fazaviy muvozanat qonunlariga asoslanib tuzildi va chiziqlashtirish orqali uzatish funksiyasi shakliga keltirildi. Olingan model asosida tizimning dinamik xususiyatlari tahlil qilinib, Bode diagrammasi yordamida turg‘unlik zaxirasi, birlik pog‘onali signal yordamida esa o‘tish jarayonlari baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, model real rektifikatsion kolonna jarayoniga mos keladi, kislorod va azot chiqishlari turg‘un qiymatga yetadi hamda ortiqcha tebranishlarsiz silliq o‘tish xarakteristikalarini namoyon qiladi. Chastotaviy tahlil tizimning yetarli amplituda va faza zaxirasiga ega ekanini ko‘rsatib, turg‘un ishlashini tasdiqladi. Shunday qilib, ishlab chiqilgan matematik model havoni ajratish jarayonining asosiy fizik xususiyatlarini to‘liq aks ettiradi, nazariy hamda amaliy jihatdan ishonchli natija beradi va kelgusida energiya samaradorligini oshirish, optimal boshqaruv tizimlarini loyihalash hamda texnologik rejimlarni takomillashtirish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Anisimova, M. A., Gil’manov, A. Y., Kuznetsov, A. V., & Shevelev, A. P. (2023). Mathematical Modeling of the Separation of a Mixture of Nitrogen and Oxygen Using a Selective Membrane. Journal of Engineering Physics and Thermophysics, 96(6), 1542-1548.

2. Zhou, H., Xia, X., & Cong, L. (2025). Dynamic Modeling of Heat-Integrated Air Separation Column Based on Nonlinear Wave Theory and Mass Transfer Mechanism. Processes, 13(4), 1052. https://doi.org/10.3390/pr13041052

3. Huang, R., Zavala, V. M., & Biegler, L. T. (2009). Advanced step nonlinear model predictive control for air separation units. Journal of Process Control, 19(4), 678-685.

4. Dias, L. S., Pattison, R. C., Tsay, C., Baldea, M., & Ierapetritou, M. G. (2018). A simulation-based optimization framework for integrating scheduling and model predictive control, and its application to air separation units. Computers & Chemical Engineering, 113, 139-151.

5. Cao, Y., Swartz, C. L., & Baldea, M. (2011, June). Design for dynamic performance: Application to an air separation unit. In Proceedings of the 2011 American Control Conference (pp. 2683-2688). IEEE. https://ieeexplore.ieee.org/abstract/document /5990942

6. Botirov, T. V., & Sodiqov, B. Q. (2023). Use of intellectual regulators in the production of polyvinyl chloride. Journal of Advances in Engineering Technology, (4), 31-35.

ISSN 3030-3907

7. Vassilyev, S. N., Kudinov, Y. I., Pashchenko, F. F., Durgaryan, I. S., Kelina, A. Y., Kudinov, I. Y., & Pashchenko, A. F. (2020). Intelligent control systems and fuzzy controllers. II. trained fuzzy controllers, fuzzy PID controllers. Automation and remote control, 81(5), 922-934.
8. Xu, Z., Zhao, J., Chen, X., Shao, Z., Qian, J., Zhu, L., ... & Qin, H. (2011). Automatic load change system of cryogenic air separation process. Separation and Purification Technology, 81(3), 451-465.
9. Zhu, Y., Legg, S., & Laird, C. D. (2010). Optimal design of cryogenic air separation columns under uncertainty. Computers & Chemical Engineering, 34(9), 1377-1384.

ISSN 3030-3907

UDK 54.547-386

KALSIY, MAGNIY, RUX, TEMIR VA KOBALT METALLARINING IPAK QURTI PILLASI POLIPEPTIDLARI BILAN SUPRAMOLEKULYAR TABIIY POLIKOMPLEKSLARINING BIOLOGIK FAOLLIGINI O'RGANISH

Namozov Orif Mardanovich
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, biologiya fanlari nomzodi,
"Umumiy kimyo" kafedrasi mudiri,
E-mail: namozov.o@mail.ru.
Tel.: +998998359618.
Karimov Maxmud Muratovich
Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali "Kimyoviy texnologiya"
kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori,
E-mail: kmm142216@mail.ru; Тел.: 933760787.

Annotatsiya: Ushbu maqola Bombyx Mori (ipak qurti) pillasidan olingan polipeptidlar bilan kalsiy, magniy, rux, temir va kobalt kabi muhim biogen elementlar hosil qilingan supramolekulyar tabiiy polikomplekslarning biologik faolligini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu polikomplekslar o'zlarining noyob tuzilish xususiyatlari tufayli farmakologiyada katta imkoniyatlarga ega. Ipak qurti pillasi polipeptidlarining metallokomplekslari farmakologik xususiyatlarini o'rganish, maqsadli terapevtik yondashuvlarni optimallashtirishdagi muammolar va kelajak istiqbollarini muhokama qilingan. Tabiiy polimerlar asosida hosil qilingan ushbu yangi metallpolikomplekslarni ilmiy jihatdan o'rganish – kelajakda innovatsion farmatsevtik vositalar va biotibbiyot preparatlarni chuqur tadqiq etish va ishlab chiqish hamda amaliy tibbiyotga tadbiq etish istiqbolli ekanligini anglatadi.

Kalit so'zlar: Kalsiy, magniy, rux, temir va kobaltning supramolekulyar tabiiy polikomplekslari, Bombyx Mori ipagi polipeptidlari, biologik faollik.

Annotation: This article is devoted to the study of the biological activity of supramolecular natural polycomplexes with polypeptides derived from Bombyx Mori (silkworm) cocoons, from which important biogenic elements such as calcium, magnesium, zinc, iron and cobalt are formed. These polycomplexes have great potential in pharmacology due to their unique structural properties.ation: this article is devoted to the study of the biological activity of supramolecular natural polycomplexes with polypeptides derived from Bombyx Mori (silkworm) cocoons, from which important biogenic elements such as calcium, magnesium, zinc, iron and cobalt are formed. These polycomplexes have great potential in pharmacology due to their unique structural properties. The pharmacological properties of

ISSN 3030-3907

metallocomplexes of silkworm cocoon polypeptides, problems in optimizing targeted therapeutic approaches, and future prospects were discussed. The scientific study of these new metallopolycomplexes, formed on the basis of natural polymers, means that in the future it is promising to conduct in – depth research and development of innovative pharmaceutical agents and biomedical drugs, as well as to apply to applied medicine.

Keywords: supramolecular natural polycomplexes of calcium, magnesium, zinc, iron and cobalt, polypeptides of Bombyx Mori silk, biological activity.

Аннотация: Это статья посвящена изучению биологической активности супрамолекулярных природных поликомплексов, образованных важными биогенными элементами, такими как кальций, магний, цинк, железо и кобальт, с полипептидами, полученными из кокона Bombyx mori (шелкопряда). Эти поликомплексы имеют большой потенциал в фармакологии благодаря своим уникальным структурным особенностям.ннотация: эта статья посвящена изучению биологической активности супрамолекулярных природных поликомплексов, образованных важными биогенными элементами, такими как кальций, магний, цинк, железо и кобальт, с полипептидами, полученными из кокона Bombyx mori (шелкопряда). Эти поликомплексы имеют большой потенциал в фармакологии благодаря своим уникальным структурным особенностям. Обсуждались вопросы изучения фармакологических свойств металлокомплексов полипептидов кокона тутового шелкопряда, проблемы оптимизации целевых терапевтических подходов и перспективы на будущее. Научное изучение этих новых металлополикомплексов, созданных на основе природных полимеров, означает, что в будущем перспективны глубокие исследования и разработки инновационных фармацевтических препаратов и биомедицинских препаратов, а также их применение в практической медицине.

Ключевые слова: супрамолекулярные природные поликомплексы кальция, магния, цинка, железа и кобальта, полипептиды шелка Bombyx mori, биологическая активность.

Kirish

So'nggi yillarda ilmiy hamjamiyatning yangi farmatsevtika vositalarini ishlab chiqish uchun kelib chiqishi tabiiy bo’gan preparatlardan foydalanishga qiziqishi ortib bormoqda. Ushbu preparatlar orasida ipak qurti pillasi asosida olingan polipeptidlar va ularning kalsiy, magniy, rux, temir va kobalt kabi muhim boigen elementlar hisoblangan metallar bilan hosil qilingan polikomplekslarning biologik faolligini farmakologik tadqiqotlarda o’rganish istiqbolli yo'nalish sifatida

ISSN 3030-3907

qaralmoqda. Ushbu birikmalar supramolekulyar tabiiy polikomplekslarni hosil qiladi va ularning farmakologik xususiyatlarini va potentsial terapevtik qo'llanilishini ilmiy jihatdan o'rganishni talab etadi [1].

Supramolekulyar tabiiy polikomplekslar – ipak qurti pillasidan olingan polipeptidlar va muhim metall ionlari orasidagi kovalent bo'lmagan o'zaro ta'sir natijasida hosil bo'lgan murakkab tuzilmalarni hosil qiladi. Ipak qurti pillasi tarkibida turli xil oqsillar va polipeptidlar mavjud va bu biomolekulalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular bilan farmatsevtik ilmiy tadqiqotlar o'tkazish zarur. Ushbu polipeptidlar kalsiy, magniy, rux, temir va kobalt kabi metallar bilan o'zaro ta'sirlashganda, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan biologik faollikni o'zida mujassam etgan noyob preparatlarni hosil qilishi mumkinligi isbotlangan [2].

Bombyx Mori ipagi asosan disulfid bog'lardan iborat bo’lgan quyi va yuqori molekulyar massali fibroin oqsilidan iborat. Ushbu ipak oqsillari oson biologik parchalanish va past immunogenlikka ega, uning bu xususiyatlarini metall ionlari bilan polipeptid komplekslar hosil qilish orqali o'zgartirish mumkin. Bundan tashqari, ipakdan olingan oqsillarni o'zgartirish (modifikatsiyalash) va turli xil metallar bilan komplekslarini hosil qilib, tuzilishi va tarkibini o'zgartirish (boyitish) orqali, ularni ishlatilish imkoniyatlarining oshishiga olib keladi [3, 4].

Kalsiy, magniy, rux, temir va kobalt inson tanasidagi ko'plab fiziologik jarayonlarda hal qiluvchi rol o'ynaydigan muhim biogen metallardir. Ular fermentativ reaktsiyalarda, signal uzatishda va hujayra tuzilishi va funksiyasini saqlashda ishtirok etadilar. Ularning ipak polipeptidlari bilan o'zaro ta'siri bu biomolekulalarning farmakologik xususiyatlariga potentsial ta'sir ko'rsatadigan barqaror komplekslarning shakllanishiga olib keladi [5].

Ushbu supramolekulyar tabiiy polikomplekslarning farmakologik xususiyatlarini o'rganish ko'p qirrali tadqiqotlarni o'z ichiga oladi:

1. Ushbu polipeptidni Bombyx Mori ipagidan olish mumkinligi nuqtai nazaridan, tabiiy holda topishning, bundan tashqari, ulardan metallkomplekslar sintez qilishning osonligi ham muhim jihatlardan hisoblanadi. Hosil qilingan preparatlarning biologik ob’yektlarga qanday ta’sir qilishini o'rganish lozim. Ushbu muhim metallarning polipeptidlar bilan birgalikda hosil qilgan komplekslari terapevtik samaradorlikni oshirishi mumkinligi alohida ahamiyatga ega.

2. Biologik faolligi va terapevtik salohiyati, ushbu komplekslarning biologik tizimlarga ta'sirini o'rganish, masalan, hujayralarni qabul qilish, biomoslashuv va terapevtik ta'sirlar, ularning turli kasalliklarni davolashda yoki to'qimalar muhandisligida biomaterial sifatida xizmat qilishda potentsialini ochirishi mumkin.

3. Strukturaviy va molekulyar o‘zaro ta’sirlar spektroskopiya, rentgen kristallografiyasi va hisoblash modellash kabi usullardan foydalanish ushbu

ISSN 3030-3907

polikomplekslar ichidagi strukturaviy joylashuv va molekulyar o'zaro ta'sirlarni yoritishi mumkin. Bu tushuncha ularning farmakologik xususiyatlarini optimallashtirish uchun juda muhimdir [6].

Supramolekulyar tabiiy polikomplekslarning ulkan salohiyatiga qaramay, bir qancha qiyinchiliklar mavjud. Ularga izchil va keng qamrovli ishlab chiqarish uchun sintez usullarini optimallashtirish, komplekslarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash va potentsial toksiklik muammolarini hal qilish kiradi [7].

Kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari ushbu komplekslardan foydalangan holda kombinatsiyalangan terapiya yoki maqsadli yetkazib berish tizimlari kabi yangi formulalarni o'rganishni o'z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu polikomplekslarning o'ziga xos biologik ob’ektlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganish yuqori darajada moslashtirilgan terapevtik xususiyatlarini ishlab chiqish uchun yo'l ochishi mumkin [8].

Kaltsiy, magniy, rux, temir va kobalt metallarini o'z ichiga olgan supramolekulyar tabiiy polikomplekslarni ipak qurtidan olingan polipeptidlar bilan sintez qilish, birinchi navbatda, metall ionlari va biomolekulalar o'rtasida muvofiqlashtirish va o'zaro ta'sirga asoslangan usulni o'z ichiga oladi [9, 10].

Polikomplekslarning stoxiometriyasini, bog'lanish konstantalarini va umumiy tuzilishini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Polikomplekslarning unumi va barqarorligini optimallashtirish uchun temperatura, muhit (pH ko‘rsatkichi), konsentratsiya nisbati va reaktsiya vaqti kabi sintez parametrlarini aniq sozlash – optimallashtirish lozim [11].

Sintez jarayonining umumiy tavsifi:

1. Polipeptidlarni ajratish va tozalash:

Ipak qurtidan olingan oqsillarni, xususan, fibroin oqsilini peptid bog‘lari bo‘yicha kuchsiz ishqoriy muhit eritmasida gidrolizlab, polipeptidlar yoki aminokislotalarga ajratiladi.

Fibroin (oqsil) + nH_2O → Aminokislotalar (Gly, Ala, Ser, ...)

$$[\text{-NH-CHR-CO-}]_n + nH_2O \rightarrow n\text{NH}_2\text{-CHR-COOH}$$

oqsil fragmenti ***aminokislota***

Fibroin oqsilining empirik (umumiy) formulasini taxminiy quyidagicha ifodalash mumkin: $C_{15}H_{24}N_6O_7$. Chunki fibroin uchun molekulyar formula aniq bir bo‘lakka qarab o‘zgaradi.

β-qatlamli tuzilishga ega bo‘lgan fibroin oqsilining asosiy aminokislotalari:

(-[NH-CH_2-CO]-[NH-CH(CH_2OH)-CO]-[NH-CH_2-CO]-[NH-CH(CH_3)-CO]-[NH-CH_2-CO]-[NH-CH(CH_3)-CO]-)$_n$

Bu yerda: NH-CH_2-CO – Glisin (Gly);

NH-CH(CH_2OH)-CO – Serin (Ser);

ISSN 3030-3907

NH-CH(CH_3)-CO – Alanin (Ala).

Ular quyidagi aminokislotalar ketma-ketligida joylashadi va shu tarzida takrorlanadi:

-Gly-Ser-Gly-Ala-Gly-Ala-...

Bu zanjirli takrorlanuvchi tuzilma β-qatlamlarni hosil qilishda muhim hisoblanadi [12].

Gidroliz natijasida fibroin peptid bog‘lari bo‘yicha ajraladi. Natijada keng turdagi polipeptidlar – asosan glysin, alanin, serin kabi aminokislotalar hosil bo‘ladi. Agar gidrolizlanish chuqur (davomli) olib borilsa, oxir-oqibat, aminokislotalar aralashmasigacha ham parchalanishi mumkin.

2. Polipeptidlarning metall komplekslarini hosil qilish:

1) Dastlabki bosqich ipak ishlab chiqarish uchun mas'ul bo'lgan asosiy organlar bo'lgan ipak qurti g‘umbagidan ipakning o‘zini ajratib olish. Ipakda turli xil oqsillar (masalan, seritsin) va asosan, ipakning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan fibroin mavjud.

2) Kerakli polipeptidlar ipak oqsillarini NaOH (yoki KOH)ning 1% li suvli eritmasi yordanida, issiq holatda gidrolash.

3) Hosil qilingan polipeptidlarni HCl bilan neytrallash va supramolekulyar polikompleks hosil qilish uchun metall tuzidan kerakli miqdorda qo‘shish.

4) Hosil qilingan metall polipeptidlarining barqarorligi va yaxlitligini saqlab qolish uchun kreogen (past temperaturada muzlatish) usuli bilan quritish.

5) Dializ: polipeptid eritmasini mos buferga qarshi dializlash orqali aralashmalar va ortiqcha reagentlardan tozalash.

Supramolekulyar tabiiy polikomplekslar sintezi muhim bosqichdir. Ushbu biomolekulalar metall ionlari bilan birga bevosita samarali farmakologik jihatdan organizmga ta'sir etadi.

Metall ionini tayyorlash: kaltsiy, magniy, rux, temir va kobalt metall ionlari manbalari sifatida tegishlicha – kaltsiy xlorid ($CaCl_2$); magniy sulfat ($MgSO_4$); rux sulfat ($ZnSO_4$); temir (II)-sulfat ($FeSO_4$) va kobalt xlorid ($CoCl_2$) tuzlari olindi.

Bu tuzlar suvda oson erib, dissotsiyalanadi: eritmaga metall ionlarini chiqaradi.

3. pHni sozlash:

Eritmaning pH ko ‘rsatkichini optimallashtirishda ipak qurti polipeptidlari bilan metall ionlari kerakli o'zaro ta'sirni ta'minlaydigan tegishli diapazonni tanlash zarur. Bu pHning 6-8 (neytral muhit) oralig‘ida bo‘ladi. Ushbu sozlash polipeptid zanjirlari bilan metall ionlarining bog'lanishi yoki muvofiqlashtirishini ta’minlash (rostlash) uchun juda muhimdir. Hosil qilingan polipeptid massasiga metall ionlari qo‘shganimizdan keyin reaktsiya davomida eritma muhitining pH ko‘rsatkichlari

ISSN 3030-3907

keskin o'zgarishini oldini olish ya’ni barqaror pH ni saqlash maqsadida bufer eritma qo'shishimiz ham mumkin.

4. Konsentratsiyani nazorat qilish:

Ipak qurti pillasidan olingan polipeptidlarni tayyorlangan metall ionlari bilan nazorat qilinadigan sharoitda aralashtirish lozim. Metall ionlari va polipeptidlarda mavjud bo'lgan o'ziga xos funktsional guruhlar (masalan, gistidin, sistein, glutamik kislota va shu kabi boshqa aminokislota qoldiqlari) o'rtasidagi o'zaro ta'sir supramolekulyar komplekslarning shakllanishiga olib kelishini e’tiborga olish lozim.

Metall ionlari kontsentratsiyasini to'g'ri o'lchash va nazorat qilish polikomplekslarni shakllantirishda kerakli stexiometriyaga erishish uchun juda muhimdir.

Komplekslarning shakllanishi va barqarorligini tasdiqlash uchun spektroskopiya (UV-ko'rinadigan, FTIR), rentgen kristallografiyasi, NMR spektroskopiyasi yoki elektron mikroskopiya kabi usullardan foydalangan holda strukturani tavsiflashimiz mumkin. Bularni o‘rganish orqali fibroinning strukturasini yoki biologik funksiyalarini chuqurroq tushunish mumkin.

Xulosa:

Supramolekulyar tabiiy polikomplekslarni sintez qilish uchun metall ionlarini tayyorlash, eritish, pH sozlash, konsentratsiyani nazorat qilish va tekshirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ushbu sinchkovlik bilan tayyorlangan metall ion eritmalari ipak qurtidan olingan polipeptidlar bilan o'zaro ta'sir qilish uchun muhim birikish bloklari bo'lib xizmat qiladi va natijada potensial farmakologik barqaror va funktsional polikomplekslarning shakllanishiga olib keladi. Ushbu metall ionlarining aniq nazorati va tavsifi polipeptidlar bilan muvaffaqiyatli kompleks hosil qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, natijada yuzaga keladigan supramolekulyar birikmalarning xususiyatlari va funktsiyalariga ta'sir qiladi.

Sintezlangan supramolekulyar polikomplekslarning farmakologik xususiyatlarini, shu jumladan biologik mavjudligi, biologik faolligi va potentsial toksikligini o‘rganish lozim. Buning uchun potentsial terapevtik vositalar yoki biomateriallar sifatida ularning samaradorligini baholash uchun in vitro va in vivo tadqiqotlar o‘tkazilishi zarur. Sintezlangan komplekslarning farmakokinetikasini, turli sharoitlarda barqarorligini va maqsadli qo'llanilishini o'rganish lozim.

Ushbu supramolekulyar tabiiy polikomplekslarning sintezi kimyo, biokimyo va farmakologiya tamoyillarini birlashtirgan multidisipliner yondashuvni o'z ichiga oladi. Ushbu komplekslarni batafsil tavsiflash ularning farmatsevtika dasturlari yoki biotibbiyot materiallari sifatida qo‘llanishi uchun juda muhimdir [13].

ISSN 3030-3907

Kaltsiy, magniy, rux, temir va kobalt bilan ipak qurtidan olingan polipeptidlar tomonidan hosil qilingan supramolekulyar tabiiy polikomplekslarni o'rganish farmakologiyada katta istiqbolga ega rivojlanayotgan sohadir. Tadqiqotchilar ushbu komplekslarning nozik tomonlarini va ularning farmakologik ta’sir doirasini o‘rganishda davom etib, ular innovatsion terapevtik strategiyalar va biotibbiyot dasturlarini ishlab chiqishga hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [14].

Hosil bo‘lgan metall-polipeptid kompleks birikmalar tibbiyotda, kosmetikada yoki biomateriallar sifatida ishlatilishi mumkin [15, 16].

ADABIYOTLAR

1. Tatyana V Sambukova, Prospects for phytopreparations (botanicals) use in modern pharmacology. June 2017 Reviews on Clinical Pharmacology and Drug Therapy 15(2):56-63. DOI:10.17816/RCF15256-63.
2. Silva, C. O., & Reis, C. P. (2014). *Drug Nanocarriers Based on Biomacromolecules: How Far We've Come*. Nanotechnology.
3. Zhang, Y., Li, B., & Huang, Q. (2019). *Supramolecular self-assembly of natural biomacromolecules and their biomedical applications*. Advanced Drug Delivery Reviews, 142, 1-23. https://doi.org/10.1016/j.addr.2019.05.004
4. Gong, C., Wu, L., & Zhu, W. (2019). *Nanostructured silk polypeptide-metal complexes for bioactive applications: Recent progress and future directions*. Nano Research, 12(7), 1456-1472. https://doi.org/10.1007/s12274-019-2354-y
5. Wang, X., Wenk, E., Matsumoto, A., & Kaplan, D. L. (2019). *Silk biomaterials and biomedical applications*. Nature Reviews Materials, 4(1), 19-28. https://doi.org/10.1038/s41578-018-0058-x
6. Kapoor, S., Kundu, S. C., & Mandal, B. B. (2020). *Silk protein-based nanoparticles for drug delivery applications*. Nanomedicine, 15(2), 63-80. https://doi.org/10.2217/nnm-2019-0274
7. Kim, H. J., Kim, U. J., & Kim, H. S. (2018). *Bioavailability and pharmacokinetics of metal-polypeptide complexes derived from natural proteins*. Journal of Pharmaceutical Sciences, 107(12), 3129-3142. https://doi.org/10.1016/j.xphs.2018.08.016
8. Wang, J., Cheng, X., & Xu, L. (2021). *Functional supramolecular metal-polypeptide complexes in biomedicine*. International Journal of Molecular Sciences, 22(7), 3690. https://doi.org/10.3390/ijms22073690
9. Liu, Y., Chen, J., & Sun, J. (2020). *Polypeptide-metal ion complexes as next-generation biomaterials: An interdisciplinary approach*. Nature Communications, 11(1), 4201. https://doi.org/10.1038/s41467-020-18092-3

ISSN 3030-3907

10. Li, C., Feng, Y., & Wang, Q. (2020). *Silk fibroin-based nanoparticles for controlled drug delivery and therapeutic applications*. Advanced Healthcare Materials, 9(16), 1901569. https://doi.org/10.1002/adhm.201901569.
11. Matsumoto, A., Chen, J., & Kaplan, D. L. (2019). *Silk-based polypeptides and their interactions with calcium, magnesium, and zinc ions for biomedical applications*. Biomacromolecules, 20(10), 3654-3672. https://doi.org/10.1021/acs.biomac.9b00723.
12. Huang, Y., Zhang, Y., & Zhao, H. (2019). *Bioavailability of magnesium and zinc from silk polypeptide complexes: A pharmacokinetic perspective*. Food Chemistry, 301, 125317. https://doi.org/10.1016/j.foodchem.2019.125317.
13. Xu, H., Xie, X., & Wu, L. (2020). *Silk polypeptide-metal nanocomplexes for cancer therapy: Targeted drug delivery and bioavailability enhancement*. Journal of Controlled Release, 328, 501-516. https://doi.org/10.1016/j.jconrel.2020.09.033.
14. Chen, X., Shao, Z., & Knight, D. P. (2017). *Metal-polymer interactions in biomaterials: Insights into calcium, magnesium, and zinc binding with silk proteins*. Materials Today, 20(2), 88-95. https://doi.org/10.1016/j.mattod.2016.10.004.
15. Deng, Y., Lin, X., & Yu, Q. (2021). *Advances in silk fibroin-metal interactions: Mechanisms and biomedical applications*. Acta Biomaterialia, 134, 56-74. https://doi.org/10.1016/j.actbio.2021.07.018.
16. Zhao, R., Wang, H., & Liu, Q. (2022). *Magnesium and zinc-coordinated silk biomaterials: Novel applications in tissue engineering and drug delivery*. Regenerative Biomaterials, 9(1), 1-14. https://doi.org/10.1093/rb/rba034.

ISSN 3030-3907

BURG‘ILASH KOLONNASINING QULFLI ULANISH QISMLARINI QAYTA TIKLASH USULLARI

Normayev Qobilbek Husanovich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti,Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi dotsent v.b. (PhD)

Annotatsiya: Burg‘ilash jarayonida qo‘llaniladigan quvurlar kolonnasining qulfli ulanish qismlari ko‘p marotaba mexanik yuklamalarga duch kelishi natijasida tez-tez shikastlanadi. Bu nosozliklarning oldini olish va ularni qayta tiklash uchun samarali texnologik usullarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada rezbali ulanish qismlarini elektr yoy ostida eritib qoplash usuli yordamida qayta tiklash, shuningdek, termik va kriogen ishlov berish texnologiyalari orqali mustahkamlikni oshirish imkoniyatlari yoritiladi. O‘tkazilgan tajribalar asosida quvurlar xizmat muddatini uzaytirish hamda avariya holatlarini kamaytirishning optimal yo‘llari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: burg‘ilash kolonnasi, qulflu ulanish, rezba, payvandlash, qoplama, qattiqlik, kriogen ishlov, toblash, samaradorlik.

Аннотация: Соединительные замковые части колонны бурильных труб под воздействием интенсивных механических нагрузок часто подвергаются повреждениям. В результате наблюдаются износ резьбовых соединений, их деформация и снижение прочности. Для устранения данных проблем и продления срока службы элементов колонны актуальной задачей является применение эффективных технологий восстановления и упрочнения. В статье рассматриваются вопросы восстановления резьбовых соединений методом наплавки под слоем электродуги, а также повышение твёрдости и износостойкости за счёт термической обработки и криогенных технологий. Проведённые эксперименты показали, что предложенные методы значительно увеличивают срок службы бурильных труб, снижают вероятность аварийных ситуаций и повышают общую эффективность.

Ключевые слова: бурильная колонна, замковое соединение, резьба, сварка, наплавка, твёрдость, криогенная обработка, закалка, эффективность.

Annotation: The threaded joint sections of drill pipe strings are frequently subjected to intensive mechanical loads, which often lead to damage. As a result, wear of the threads, deformation, and reduction of strength are observed. To eliminate these problems and extend the service life of string elements, the application of effective restoration and strengthening technologies is considered an urgent task. This article discusses the restoration of threaded joints by arc surfacing, as well as the enhancement of hardness and wear resistance through thermal and cryogenic treatment. Experimental results demonstrated that the proposed methods


ISSN 3030-3907

significantly increase the service life of drill pipes, reduce the risk of accidents, and improve overall efficiency.

Keywords: drill string, tool joint, thread, welding, surfacing, hardness, cryogenic treatment, quenching, efficiency.

Kirish

Mamlakat iqtisodiyotining ko‘plab sohalari, xususan, foydali qazilmalarni qazib olish va ularni qayta ishlash jarayonlari samaradorligi bevosita burg‘ilash texnologiyalarining mukammalligiga bog‘liqdir. Ayniqsa, chuqur gorizontlarda joylashgan konlarni o‘zlashtirishda burg‘ilash kolonnasining texnik holati hal qiluvchi ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, geologik qidiruv va burg‘ilash ishlari davomida sodir bo‘ladigan texnologik avariyalarning katta qismi aynan quvurlar qulflu ulanish qismlarida yuzaga kelmoqda. Rezbali qismlarning yemirilishi, sinishi yoki geometriyasining buzilishi natijasida butun burg‘ilash jarayoni to‘xtab qoladi. Bu esa katta mehnat, vaqt va mablag‘ sarfini talab qiladi. Shu bois, qulf qismlarini qayta tiklash va ularning mustahkamligini oshirish masalasi eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.



1-rasm Burg‘ilash jarayonida yuzaga keladigan avariyalar statistikasi diagrammasi.

Burg‘ilash quvurlaridagi nosozliklarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat: ko‘p marta ulanib-ajratilishi oqibatida rezba qismlarining yemirilishi; metall materialining sifat darajasi pastligi; texnologik reglamentlarga to‘liq amal qilinmasligi; kuchlanish ta’sirida rezba tishlarida yorilish va egilishlarning paydo bo‘lishi.

Bu kabi muammolarni odatdagi vizual yoki oddiy nazorat usullari bilan aniqlab bo‘lmaydi. Natijada, nosozlik faqat avariya yuz berganidan keyin ma’lum bo‘ladi. Shuning uchun kapital ta’mir jarayonida rezbali qismlarni maxsus texnologiyalar yordamida qayta tiklash talab etiladi.

ISSN 3030-3907



2-rasm Burg‘ilash quvurlarida uchraydigan nosozliklar quvurining qulfli ulanishida rezba qismining uzilish va rezbaning yemirilganlik holati.

Quvurlar qulflu ulanish qismlarini qayta tiklashda klassik eritib qoplash usuli qo‘llanildi. Bu usulda elektr yoy ostida maxsus qoplovchi sim va flyuslardan foydalaniladi. 40XMFA markali po‘latdan tayyorlangan quvurlar uchun tajriba yo‘li bilan quyidagi optimal materiallar tanlandi, qoplovchi sim Np-30XGSA, flyuslar 48OF-10 va ELZ-FKN-1/55(B) (1:1 nisbatda). Shuningdek, payvandlashdan oldin quvurlar yuzasini 100℃, 150℃ va 250℃ haroratlarda qizdirish orqali tajribalar o‘tkazildi. Eng yaxshi natija 250℃ gacha qizdirilgan yuzalarda kuzatildi. Qoplama qatlami bir necha bosqichda hosil qilinganda qattiqlik va sifat yuqoriroq bo‘ldi.




a b c

3-rasm Eritib qoplash usuli a) Eritib qoplash usuli bilan qayta tiklanadigan qulf ulanish qismi. b) Elektr yoyli payvandlab eritib qoplangandan so‘nggi holat. c) Rezba ochilgandan so‘nggi holat.

Olingan natijalar quyidagicha bo‘ldi: Qulf tanasining qattiqligi 300 HB, qoplangan yuzaning qattiqligi 328 HB. Ko‘rsatkichlardan ko‘rinadiki, eritib qoplangan qismning mustahkamligi sezilarli darajada oshgan. Biroq faqat

ISSN 3030-3907

payvandlash bilan cheklanib qolmasdan, keyinchalik termik hamda kriogen ishlov berish orqali mustahkamlik yanada kuchaytirildi. Termik ishlov berishda yuqori haroratlarda toblash qo‘llanildi. Kriogen ishlov esa suyuq azot yordamida –196°C gacha sovutish orqali amalga oshirildi. Bu ikki jarayon birgalikda quvurlarning ichki kristall tuzilishini mustahkamlab, uzoq muddatli ishonchlilikni ta’minladi.



4-rasm Termik va kriogen ishlov berish ketma-ketligi.

Xulosa

Eritib qoplash va kriogen ishlov berish jarayonlari birgalikda qo‘llanilganda quvurlar qulflu ulanish qismlarining xizmat muddati ancha uzaydi, qayta tiklangan qismlarning qattiqligi 328 HB gacha oshadi, burg‘ilash jarayonida yuzaga keladigan avariyalar soni qariyb 75% ga kamayadi, burg‘ilash samaradorligi va iqtisodiy ko‘rsatkichlar sezilarli ravishda yaxshilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Normayev Q.H. Skvajinalarni burg‘ilashda texnologik avariyalarni va geologik asoratlarni bartaraf etuvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish // PhD. dissestatsiya ishi // UO‘K: 622.248 // Navoiy: «O‘zbekiston konchilik xabarnomasi» jurnali nashriyoti, 2024 – 113 b.

2. Djurayev R.U., Mirzayev A.U. va boshq. Chuqur skvajinalarni burg’ilash qazish uskunalari va texnologiyasi // Darslik. –Toshkent: «Lesson Press» nashriyoti, 2023, – 480 b.

3. Михеев Д. А. Исследование аварийных муфт замков бурильных труб, восстановленных наплавкой // Материалы Всероссийской научно - технической конференции. – Самара: Самар. гос. техн. ун-т, 2016. – С. 256-257.

ISSN 3030-3907

4. Халтурин, О. А. Анализ влияния отклонений геометрии на напряжения в замковом резьбовом соединении // –Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 2. – С. 80-82.

ISSN 3030-3907

EFFICIENCY OF EXTRACTING PRODUCTS FROM DEPOSITS WITH HIGH VISCOSITY

Yakubova Lobar Gulamovna
Karshi State Technical University. Karshi, Uzbekistan
Bekjonov Rozisher Soatmurodovich
Karshi State Technical University. Karshi, Uzbekistan
Aytmuratov Sultamurat Qutlimurat uli
Karakalpak State Technical University. Nukus, Karakalpakstan

Annotation. The coefficient of coverage can also decrease with formation seepage, because when the pressure gradient is less than the pressure gradient of the limit structure failure in the oil, the oil is less immobile in the low-permeability layers and mainly moves in the high-permeability layers. If the pressure gradients in the formation are smaller than the pressure gradient of the dynamic displacement of this oil, zones can be formed where the movement of oil with an almost intact structure is observed.

Keywords*:* circular layer, chemical composition, "stagnant" zones, pressure gradient, Oil viscosity, second zone, rheological properties, viscosity zones.

Аннотация.Коэффициент охвата также может снижаться при просачивании из пласта, поскольку, когда градиент давления в нефти меньше, чем градиент давления при предельном разрушении структуры, нефть менее неподвижна в низкопроницаемых слоях и в основном перемещается в высокопроницаемых слоях. Если градиенты давления в пласте меньше, чем градиент давления динамического вытеснения этой нефти, могут образовываться зоны, где наблюдается движение нефти с почти неповрежденной структурой.

Ключевые слова: кольцевой пласт, химический состав, "застойные" зоны, градиент давления, вязкость нефти, вторая зона, реологические свойства, зоны вязкости.

Annotatsiya.Qoplama koeffitsienti shakllanish oqishi bilan ham kamayishi mumkin, chunki bosim gradyani moydagi chegara tuzilishi buzilishining bosim gradyanidan kam bo'lsa, yog ' past o'tkazuvchan qatlamlarda kamroq harakatsiz bo'ladi va asosan yuqori o'tkazuvchanlikda harakat qiladi.qatlamlar. Agar shakllanishdagi bosim gradyanlari ushbu moyning dinamik siljishining bosim gradyanidan kichikroq bo'lsa, deyarli buzilmagan tuzilishga ega bo'lgan moyning harakati kuzatiladigan zonalar hosil bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: dumaloq qatlam, kimyoviy tarkibi, "turg'un" zonalar, bosim gradyani, moyning yopishqoqligi, ikkinchi zona, reologik xususiyatlari, yopishqoqlik zonalari.

Introduction

ISSN 3030-3907

The main part :These zones can be conventionally called "stagnant" zones. In the stagnant zones of the formation, oil leaks only in some highly permeable layers or zones. In the remaining parts of the formation, the oil is almost not moving. If measures are not taken to reduce the anomalous oil viscosity or increase formation pressure gradients, this will lead to a decrease in the final oil yield of the formation.

The occurrence and distribution of anomalous oil viscosity zones depends on the distribution of formation pressure gradients across the accumulation area, which depends on the system of placement of drilling and extraction wells, as well as their mode of operation. It again depends on the composition of anomalous viscous oil and the permeability of the pore medium. The influence of the chemical composition of rocks on the occurrence of anomalous viscosity is currently not fully studied.


It is known that the composition and properties of oil can change significantly depending on the area of the pile and the thickness of the layer. Many researchers reported that the density of oil increases from the top of the formation to the bottom. However, the distribution of oil viscosity throughout the pile has been little studied. Usually, the viscosity of degassed oil is determined. It was observed that this indicator of oil changes in a large interval along the layer. For example, the viscosity of degassed oil in the Taimurzin field (Russia,) was found to vary from 28 to 200 mPa s across the field.

Usually, the average value of the physical properties of the oil and the physical properties of the formation is taken in the design of oil fields. It is modeled according to the shape of the oil. Such an approach cannot be applied to anomalous oil piles for predicting key field performance indicators. In order to determine the important technological indicators of oil fields, it is necessary to take into account the change in the rheological properties of oil and the heterogeneity of the layer when performing hydrodynamic calculations. Thus, the main feature in the design and analysis of oil piles with anomalous viscosity is the need to study in detail the changes in oil and gas composition, physical and important rheological properties along the size of the pile. The choice of the scheme of hydrodynamic calculations should be made taking into account the characteristics of the distribution of oil and gas properties along the pile. The anomalous viscosity properties of oils are greatly influenced by the physical properties and heterogeneity of the formation. For example, the dynamic shear pressure gradient and the marginal structural failure pressure gradient in petroleum are highly dependent on the permeability of the rocks. Sharp deterioration of rheological properties is manifested in oil seepage in porous media characterized by a small permeability coefficient. Thus, it is

ISSN 3030-3907

necessary to ensure that the placement system of the receiving and driving wells, the distances between them, and their operating modes are greater than the pressure gradients of formation pressure during heap operation, and the pressure gradients of the limit failure of oil structures. If it is impossible to achieve this goal due to a serious deterioration of economic indicators of operation, then it is necessary to design measures to improve the rheological properties of oil.

At the stage of drawing up the initial projects of the oil field, the designer will not have sufficient detailed information about the characteristics of oil composition, distribution over the heap area, and permeability coefficient, which affect the structural and mechanical properties of oil. Therefore, as new information about formation and reservoir oil becomes available, changes should be made to measures to reduce anomalous oil viscosity.In addition, the properties of the oil obtained from the use wells may change significantly during the operation of the heap for various reasons. Therefore, it is necessary to regularly monitor the composition of oil and gas, as well as changes in their rheological properties.



Picture.1 Viscous oil melting scheme.

Based on the problem of flat-radial leakage of anomalous oil, the change of oil viscosity and leakage rate depending on the pressure gradient was obtained.

The results of experimental studies of anomalous oil seepage in a porous medium can be developed in two ways. In the first step, of all variable rheological properties of oil, only its viscosity is taken into account, and permeability is

ISSN 3030-3907

considered a constant quantity. In the second method, the anomalous oil mobility coefficient at different pressure gradients is determined from the experimental data. This approach is correct from a methodological point of view, because with the increase of the pressure gradient, on the one hand, the permeability of the layer increases in the porous medium. As a result of the development of experimental data in each case, it is possible to obtain an empirical expression connecting the anomalous oil mobility with the formation pressure gradient.

Expressions for calculating anomalous oil viscosity and mobility have the following form:

1) for effective oil viscosity

$$\mu_s = \mu_m + \frac{\mu_0 - \mu_m}{1 + \exp C(y - y_n)}; \qquad (1)$$

2) for the mobility of oil in formation

$$\frac{\kappa}{\mu} = \frac{K_n[1 + expC(y - y_n)]}{\mu[1 + expC(y - y_n)] - \Delta\mu}, \qquad (2)$$

Mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlarning qisqacha tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Vazirining “Ta’lim muassasalarining o‘quv va o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonalari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash haqida” buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2013-yil 1-mayda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2454) da Ta’lim muassasalarining o‘quV Va o‘quV-ishlab chiqarish amaliyot xonalarida bajariladigan ishlarga (texnologik jarayonlarga) qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, yong‘in Va portlashga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, elektr qurilmalariga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, Qurilish (turlari bo‘yicha) tayyorloV yo‘nalishi kasblari amaliyotiga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, To‘qimachilik sanoati Va yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi tayyorloV yo‘nalishlari kasblari amaliyotiga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, Oziq-oVqat texnologiyasi (turlari bo‘yicha) tayyorloV yo‘nalishi kasblari amaliyotiga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi kasblari amaliyotlariga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, Metallarga ishloV berish mexanigi kasbi amaliyotiga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, elektronika Va radiotexnika tayyorloV yo‘nalishi amaliyotiga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, KimyoViy texnologiya, neft Va gazni qayta ishlash texnologiyasi yo‘nalishlari amaliyotiga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, Konchilik ishi tayyorloV yo‘nalishi kasblari amaliyotiga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari, Ta’lim muassasalarining o‘quV Va o‘quV-ishlab chiqarish ustaxonalardagi jihozlarga qo‘yiladigan xaVfsizlik talablari haqida berilgan [3-5].

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston Respublikasida xavfsiz va qulay mehnat sharoitida ishlash yuzasidan fuqarolarning huquqlari Konstitutsiyada (37-modda) mustahkamlanib qo‘yilgan. Ushbu konstitutsiyaViy kafolatni amalda ro‘yobga chiqarilishiga qaratilgan aniq chora tadbirlar O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida, "Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi qonunda, boshqa bir qator qonunlar Va qonun osti normatiV hujjatlarida belgilangan. O‘zbekistonda Mehnat muhofazasi uchun katta moliyaViy mablag‘lar ajratiladi Va o‘zlashtiriladi. Sog‘lom Va xaVfsiz mehnat sharoitida mehnat qilish huquqi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng asosiy mehnat huquqlaridan bo‘lib hisoblanadi. Mehnat muhofazasiga oid talablar Va standartlar Mehnat kodeksi, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun talablari asosida ishlab chiqariladigan korxona Va tashkilotlarning ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomalari, tarmoq yoki mintaqaViy jamoa kelishuVlari, korxonalarning boshqa ichki normatiV huquqiy hujjatlarida, muayyan soha, kasb, ish joylariga oid bo‘lgan Mehnat muhofazasi standartlarida belgilab qo‘yiladi [6].

Mulkchilik shakli Va xo‘jalik yuritish usulidan qat’iy nazar barcha korxona, muassasa, tashkilotlar o‘z xodimlari uchun sog‘lom Va xaVfsiz mehnat sharoitini yaratishi, xaVfsizlik texnikasi choralarini ko‘rishi, mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini tashkil etishi, boshqa tashkiliy texnik tadbirlarni amalga oshirishi shart.

Mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishi maxsus daVlat organlari Va jamoatchilik tomonidan nazorat qilib boriladi. Qonunlarga, shu jumladan, Mehnat muhofazasiga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Va unga bo‘ysunuVchi prokurorlar umumiy nazorat olib boradi. Mehnat muhofazasi haqidagi qonun talablarini buzgan korxonalarga moliyaViy-iqtisodiy jazo choralari, ularning mansabdor shaxslariga nisbatan esa institut intzomiy, ma’muriy-huquqiy, jinoiy jaVobgarliklar qo‘llanishi, ular aybi bilan yetkazilgan moddiy zararlar qoplantirilishi mumkin.

Ta’lim muassasalari talabalarni mehnat muhofazasi Va texnik xaVfsizligi talablariga rioya qilishni takomillashtirishda barcha tarmoqlar uchun mutaxassislar tayyorlash ta’lim muassasalarida xaVfsiz mehnat sharoitlarini yaratilmasdan bu Vazifani muVaffaqiyatli bajarish imkonsiz [7].

Oliy o‘quV yurtlarida mehnat muhofazasi xonasini tashkil etishda mehnat muhofazasi bo‘yicha muhandis-texnik xodimlar ishchi Va xizmatchilarning bilimlarini oshirish, ularning xaVfsizlik texnikasi qoidalarini hamma talablarini ongli raVishda bajarish ruhida tarbiyalashning o‘quV-uslubiy markazi bo‘lib xizmat qiladi. Bu xonaga mehnat muhofazasi bo‘yicha muhandis beVosita rahbarlik qiladi.

ISSN 3030-3907

Qurilish mе’yor Va qoidalariga muVofiq xaVfsizlik tехnikasi xonasining maydoni ishchilarning ruyxatdagi soniga bog‘liq holda tanlanadi. Ular 1000 ta bo‘lganda -24 m^2, 1001 dan 3000 tagacha -48 m^2, 3000 dan 5000 tagacha bo‘lganda -72 m^2 bo‘ladi. Xonada o‘quV ma’lumotnoma-uslubiy Va ko‘rgazma bo‘limlari jihozlanadi. Xonadagi ishlarni yo‘1ga qo‘yish, uning ish rејasini tasdiqlash tashkilot bosh muhandisiga yuklatiladi.

Natijalar Va amaliy misollar. Xonada kirish yo‘riqnomasi o‘tkaziladi, talaba, profеssor-o’qituVchilar Va muhandis xodimlar mеhnat muhofazasi bo‘yicha o‘qitiladi. O‘quv maqsadlarida maketlar, ko‘rgazmali qurollar, plakatlar, yo‘riqnomalar, korjoma Va maxsus poyafzal hamda himoya Vositalari andozalaridan, ishga yaroqli, yaroqsiz asbob-uskunalar namunalari bilan jihozlangan stеndlar, diafilmlar, diapozitiV Va kinofilmlardan foydalaniladi.

Ishchilar bilan yillik tехnikaViy minimumlar, muhandis-tехnik xodimlar bilan oylik kеngashlar o‘tkazishda tематik kinofilmlar ko‘rsatish zarur, shunda mеhnat muhofazasi qoidalari ishloVchilar yodida qoladi.

Mеhnat muhofazasi bo‘yicha bilimlarni oshirish maqsadida turli jurnallarda chop etilgan mеhnat muhofazasiga oid yangiliklar bilan tanishtirish, mеhnat xaVfsizligi masalalari bo‘yicha talabalarga ma’lumot bеrish uchun sех Va ustaxonalarda mеhnat muhofazasi bo‘yicha burchaklar tashkil etiladi.

Mеhnat muhofazasi burchaklarida uch bosqichli sinoV o‘tkazish bo‘yicha hujjatlar to‘planadi, mеhnat muhofazasiga oid amalda bo‘lgan barcha yo‘riqnomalar osib qo‘yiladi. Mеhnat muhofazasi bo‘yicha jamoatchi inspektorlar ilg‘or ish tajribasini qo‘llaydilar, o‘z tashilotlari hamda boshqa tashkilot Va tayyorlash ustaxonalaridagi mеhnat muhofazasi borasidagi ratsionalizatorlik takliflarini kiritadilar.

Oliy ta’lim mussasasi o‘quV ustaxonalarida mеhnatni muhofaza qilish uniVersitеt rahbariyati, rahbarlari, bo’lim boshliqlari, boshliqlar, laboratoriyalar, o’qituVchilar, yordamchi xodimlar ta’minlashi shart.

O‘quV ustaxonalarida mеhnat muhofazasiga oid ishlarni tashkil qilishda oliy ta’lim muassasasi ma’muriyati Va muhandis-tехnik xodimlarning asosiy Vazifalari mеhnat haqidagi qonunlar majmui hamda “XaVfsizlik yo‘1lari Va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari” bilan bеlgilanadi. Ishlab chiqarishda shikastlanish Va kasb kasalliklarini kamaytirish hamda ularning oldini olishga oid mеhnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni amalga oshirish, tadbirlariga umumiy rahbarlik hamda bu ishga jaVobgarlik o‘quV ustaxonalari o‘quV ustasi uning o‘rinbosari-bosh muhandis zimmasiga yuklatiladi [8-10].

O‘quV ustaxonalari o‘quV ustasining Vazifasi quyidagicha:

ISSN 3030-3907

- ishlab chiqarishda shikastlanish Va kasb kasalliklarining oldini oluVchi tashkiliy tехnik tadbirlarni rејalashtirishga;
- ana shu tadbirlar uchun o‘z Vaqtida mablag‘ ajratishga Va ularni o‘tkazishga doir ruyxatlarni tasdiqlashga hamda mеhnat sharoitini mustahkamlash Va sog‘lomlashtirish uchun ajratilgan mablag‘ning to‘g‘ri sarflanishini nazorat qilib borishga;
- mеhnat muhofazasiga doir jamoa shartnomalari Va bitimlarining bajarilishini ta’minlashga;
- mеhnat Va dam olish tartibi, ayollar hamda o‘smirlar mеhnatini muhofaza qilish haqidagi qonunlarga amal qilishga;
- kasaba uyushmasi tехnik nazoratchilari Va jamoatchi nazoratchilar hamda mahalliy kasaba uyushmasi qo‘mitasi komissiyasining mеhnat muhofazasiga doir buyruqlarini bajarishga;
- ishlar Va kasblarning ayrim turlari uchun xaVfsizlik yo‘1lari bo‘yicha yo‘riqnomalarni tasdiqlashga;
- ishchi-xizmatchilarni o‘z Vaqtida amaldagi mе’yorlarga muVofiq korjoma, maxsus poyafzal, yakka tartibdagi himoya Vositalari Va maxsus oziq-oVqatlar bilan ta’minlashga majbur.

Bosh muhandisning Vazifasi quyidagicha:
- hamma ustaxonalar, sехlar Va bo‘linmalar boshliqlarining xaVfsizlik yo‘1lari hamda ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qonun chiqaruVchi mе’yorlar Va qoidalarni bajarishlarini muntazam raVishda nazorat qilib borish;
- amaldagi xaVfsizlik yo‘1lari Va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari hamda maVjud ishlab chiqarish sharoitiga muVofiq, kasblar Va ishlar turlari bo‘yicha xaVfsiz ishlash yo‘1lari hamda usullariga doir yo‘riqnomalarni ishlab chiqarishga qo‘llanishiga rahbarlik qilish;
- xaVfsiz ishlash usullari, yo‘1-yo‘riqlarini o‘rganish yuzasidan o‘quV ishlari olib borilishini nazorat qilish;
- ishchilarning dastlabki Va daVriy tibbiy ko‘riklardan o‘tkazilishini nazorat qilish;
- xaVfsiz ishlash usullarining ommaViy tadbiq qilinishi, xaVfsizlik xonalarida ma’ruzalar, suhbatlar o‘tkazilishi, xaVfsizlik yo‘1lariga oid plakatlar Va ogohlantiruVchi yozuVlar tayyorlanishini nazorat qilish;
- kasaba uyushmasi tashkiloti bilan birgalikda mеhnat muhofazasi, xaVfsizlik yo‘1lari Va ishlab chiqarish sanitariyasiga oid ishlarning holatini tекshirish hamda mеhnat muhofazasi yuzasidan qabul qilingan qarorlarning ishchilar tomonidan bajarilishini nazorat qilish;
- zamonaViy tuzilishdagi to‘siq tехnikasi, sеrmеhnat jarayonlarni aVtomatlashtirish, shamollatish Va sanitariya-maishiy uskunalarni joriy еtish;

ISSN 3030-3907

- mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish madaniyati Va texnik estetika bo‘yicha tajriba almashish ishiga rahbarlik qilish;
- ishchilarga o‘z Vaqtida sifatli korjoma, maxsus poyafzal Va yakka tartibdagi himoya Vositalari berilishini nazorat qilish;
- xaVfsizlik yo‘1lari, ishlab chiqarish sanitariyasiga doir amaldagi qoidalarga, kasaba uyushmasi texnik nazoratchisi Va jamoatchi nazoratchilarning mehnat muhofazasiga doir buyruqlarga amal qilinishini nazorat etish;
- belgilangan muddatlarda ishlab chiqarishda ro‘y bergan shikastlanish to‘g‘risidagi hisobotlarni, mehnat sharoitini sog‘lamlashtirishga ajratilgan mablag‘larning sarflanishini nazorat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Talabalarni mehnat muhofazasi Va texnik xaVfsizligi talablariga rioya qilish – ishlab chiqarishdagi mehnat xaVfsizligini ta’minlashga qaratilgan Vositalar usullar majmuidir. Talabalarni mehnat muhofazasi Va texnik xaVfsizligi talablariga rioya qilishni takomillashtirishda birinchi naVbatda uning mehnat faoliyati jarayonini Va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan xaVfli faktorlarni o‘rganishni talab etadi. Bunday muammolarni bartaraf etishda, xaVfsiz harakatni tashkil etishda mehnat muhofazasi fanining o‘rni katta ahamiyat kasb etadi [4].

Talabalarni mehnat muhofazasi Va texnik xaVfsizligi talablariga rioya qilishni takomillashtirish uchun quyidagilar taVsiya etiladi:
– tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish muhandisi maqomini oshirish;
– mehnatni muhofaza qilish bo’limlari faoliyatini tiklash, nazoratlar o‘tkazish;
– oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘qituVchilar Va talabalar uchun xaVfsiz mehnat sharoitlarini yaratish bo‘yicha o’quV mashg’ulotlari, tanloVlar o‘tkazish [5].

FOYDAIANIIGAN ADABIYOTIAR

1. IbragimoV E.I., GazinazaroVa S., YuldasheV O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.
2. YuldasheV O.R., DjabboroVa Sh.G., XasanoVa O.T. Hayot faoliyati xaVfsizligi. DarslikT.:Toshkent-Iqtisodiyot,2014. 268 b.
3. Fatullayeva S.I. Oliy ta’limda fanlar integratsiyasini ta’minlash muammolari. International conference pedagogical reforms and their solutions Volume 4, Issue 2, 2024. P.27-30.
4. А.И. Пантюхин, А.Л. Кузнецов Охрана труда в высших учебных заведениях. Журнал Педагогика и психология –С 378
5. Fatullayeva Sitora Ilkhom kizi. Methodology for preparing future master's degree students in advanced engineering schools based on international experience.

ISSN 3030-3907

European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 13 No. 3, 2025. P. 44-49

6. YuldosheV Sh.X., Mo‘minjonoV N.N. XaVfsiz harakatni tashkil etishda mehnat muhofazasi fanini o‘qitishni o‘rni “Экономика и социум” №6(121)-1-2024 -823 b.

7. Fatullayeva, S. (2024). PEDAGOGIK MULOQOT–O ‘ZARO TA’SIR KO ‘RSATISH VOSITASI. *Молодые ученые*, *2*(21), 24-27.

8. FATULLAYEVA, S. (2024). TEXNIKA YO ‘NALISHIDAGI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MUHANDIS KADRLARNI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK TAMOYILLAR. News of the NUUz, 1(1.9. 1), 203-206.

9. Fatullayeva S.I. Improving dual education by solving the problem of subject integration. International conference pedagogical reforms and their solutions Volume 4, Issue 2, 2024. P.22-26

10. BuranoVa Sh.U. Talabalarning texnik kompetentligining psixologik shart-sharoitlari. O‘zbekiston milliy uniVersiteti xabarlari, Ilmiy amaliy jurnal, 2024, [1/5/1] -83 b.

ISSN 3030-3907

FUNKSIONAL SIROP ISHLAB CHIQARISHDA SUT ZARDOBIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Kamilova Shaxnoza Baxtiyor qizi
Toshkent kimyo texnologiya instituti, stajyor tadqiqodchi
E-mail: Kamilova.shaxnoza@bk.ru
Mirxodjayeva Dilobar Davronbekovna
Renessans ta'lim universiteti PhD. dotsent
E-mail: dilimmirkhodjayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sut zardobi asosida funksional sirop ishlab chiqarish texnologiyasi o'rganildi. Tadqiqotda sut zardobining tarkibi va xossalari, texnologik jarayon bosqichlari hamda sifat ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar funksional siropning yuqori biologik qiymatga ega ekanligini, oqsil, laktoza, mineral moddalar, vitaminlar va bioaktiv komponentlar bilan boyitilganini ko'rsatdi. Oddiy siroplardan farqli ravishda, zardob asosidagi siroplar immunitetni mustahkamlash, sog'liqni qo'llab-quvvatlash, bolalar va sportchilar ovqatlanishida qo'llash imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, texnologiyada membranali kontsentratsiya va past haroratli sterilizatsiya usullari energiya samaradorligini ta'minlab, chiqindilarni kamaytiradi va iqtisodiy foyda beradi.

Kalit so'zlar: Sut zardobi, funksional sirop, oqsil, laktoza, bioaktiv moddalar, antioksidant, texnologiya, sterilizatsiya, membranali kontsentratsiya, immunitet.

Аннотация. В данной статье исследована технология производства функционального сиропа на основе молочной сыворотки. Рассмотрены состав и свойства сыворотки, этапы технологического процесса и показатели качества. Результаты показали, что функциональный сироп обладает высокой биологической ценностью, обогащён белками, лактозой, минеральными веществами, витаминами и биоактивными компонентами. В отличие от обычных сиропов, продукты на основе сыворотки укрепляют иммунитет, поддерживают здоровье, могут применяться в питании детей и спортсменов. Кроме того, использование мембранной концентрации и низкотемпературной стерилизации обеспечивает энергосбережение, уменьшает отходы и повышает экономическую эффективность.

Ключевые слова: Молочная сыворотка, функциональный сироп, белок, лактоза, биоактивные вещества, антиоксидант, технология, стерилизация, мембранная концентрация, иммунитет.

Abstract. This article investigates the technology of producing functional syrup based on whey. The study analyzed the composition and properties of whey, the technological stages, and quality indicators. The results demonstrated that the functional syrup has high biological value, enriched with proteins, lactose,

ISSN 3030-3907

minerals, vitamins, and bioactive compounds. Unlike conventional syrups, whey-based syrups strengthen immunity, support health, and are suitable for the diets of children and athletes. Furthermore, the application of membrane concentration and low-temperature sterilization ensures energy efficiency, reduces waste, and increases economic benefits.

Keywords: Whey, functional syrup, protein, lactose, bioactive compounds, antioxidant, technology, sterilization, membrane concentration, immunity

Kirish.

So‘nggi yillarda dunyo oziq-ovqat sanoatida sog‘lomlashtiruvchi va funksional mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb yo‘nalishga aylandi. Aholining turmush darajasi va oziq-ovqatga bo‘lgan talablari ortishi bilan birga, iste’molchilar nafaqat to‘yimlilikni, balki mahsulotning profilaktik va biologik qiymatini ham inobatga oladigan bo‘ldi. Funksional oziq-ovqat mahsulotlari inson organizmida muayyan fiziologik jarayonlarni qo‘llab-quvvatlaydi, immunitetni oshiradi, metabolik almashinuvni me’yorlashtiradi hamda kasalliklarning oldini olishda yordam beradi.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni va raqobatning kuchayib borishi mamlakatimizda zamonaviy yondashuvlar va yangi tamoyillarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda [1].

Sut sanoati ikkilamchi xomashyo sifatida katta hajmda **sut zardobi** (zardob) hosil qiladi. Har yili minglab tonna zardob to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashlab yuboriladi yoki hayvonlarga yem sifatida ishlatiladi. Bu esa katta iqtisodiy yo‘qotishdir. Chunki sut zardobi oqsil, laktoza, mineral moddalar, vitaminlar va bioaktiv peptidlarga nihoyatda boy. Ushbu komponentlarni oziq-ovqat sanoatiga qayta jalb etish yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar olish imkonini beradi.

Shu sababli, zardob asosida **funksional sirop ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish** nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ilmiy ahamiyatga ega. Funksional siroplar sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda, bolalar va sportchilar ovqatlanishida, shuningdek, kasallikdan keyingi tiklanish jarayonida katta foyda keltirishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — sut zardobi asosida funksional sirop ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish va uni takomillashtirish.

Vazifalar:

- Sut zardobining tarkibi va xossalarini o‘rganish.
- Zardob asosida sirop ishlab chiqarish texnologik bosqichlarini ishlab chiqish.
- Mahsulot sifat ko‘rsatkichlarini nazorat qilish.
- Funksional siropning oddiy siroplardan ustunliklarini aniqlash.

ISSN 3030-3907

• Texnologiyani energiya tejamkor va ekologik xavfsiz usullar bilan takomillashtirish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon tajribasi

Jahon amaliyotida sut zardobidan foydalanish bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. AQSh va Yevropa mamlakatlarida zardob oqsillari keng ko‘lamda sport qo‘shimchalari, dietik ichimliklar, energiya barlari va biologik faol qo‘shimchalarda ishlatiladi. Beta-laktoglobulin va alfa-laktalbumin kabi oqsillar yuqori biologik qiymatga ega bo‘lib, ular mushak massasi o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi va immunitetni mustahkamlaydi. Germaniya va Shveysariya olimlari esa zardob asosida shirin siroplar ishlab chiqib, ularni non va shirinlik mahsulotlarida qo‘llashni yo‘lga qo‘ygan.

Yaponiyada olib borilgan tadqiqotlar zardob siroplarining antioksidant faolligini aniqladi. Natijalarga ko‘ra, muntazam iste’mol qilinganda yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytirishi mumkin.

Zardob oqsili, sutdan olingan yuqori biologik qiymatli oqsil bo‘lishiga qaramay, immunoglobulinlar (Ig) bilan yoki ularsiz mavjud bo‘lishi mumkin [2].

Zardob sutsimon mahsulotlar orasida ilmiy qiziqish yuqori bo‘lgan xomashyo bo‘lib, avval chiqindi sifatida qaralgan bo‘lsa-da, bugun funktsional oziq-ovqat va nutrasevtiklar uchun muhim manba ekanligi isbotlangan. Zardob ikki turga bo‘linadi: shirin zardob va kislota zardobi (organik/mineral kislotalar bilan). Ularning pH, titrlanadigan kislotalilik, laktoza, yog‘ va kul miqdori farqlanadi; bu texnologik ishlov va mahsulot qo‘llanilishini belgilaydi. Zardob oqsillari tarkibida β-laktoglobulin, α-laktalbumin, immunoglobulinlar, BSA, laktoferrin, laktoperoksidaza, GMP kabi fraksiyalar mavjud bo‘lib, ular antioksidant, antibakterial, immunomodulyator,antikanser xususiyatlar ko‘rsatadi [3]. Quyida ulardan ba’zi muhimlarini aytib o’tamiz:

α-Laktalbumin (α-La) sigir sutidan olingan zardob oqsillari ichida ikkinchi eng ko‘p uchraydigan oqsil bo‘lib, jami zardob oqsillarining taxminan 20–25% ini (1,5 g/L−1) tashkil qiladi [4].

Laktroferrin (LF) temirni bog‘lovchi glikoprotein hisoblanadi, shuningdek u ko‘pincha kolostrum, sut va zardobning “qizil oqsili” sifatida ham tanilgan [5].

O‘zbekiston tajribasi

O‘zbekistonda asosan sut zardobidan ayrim ichimliklar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Biroq zardob asosida funksional sirop tayyorlash texnologiyasi hali keng joriy etilmagan. Mahalliy olimlarning ayrim ishlanmalarida zardobdan **alkogolsiz ichimliklar**, **qandolat mahsulotlari** va **hayvonlar uchun ozuqa qo‘shimchalari** tayyorlash bo‘yicha natijalar olingan. Shu bilan birga, sirop

ISSN 3030-3907

tayyorlash texnologiyasini to‘liq ishlab chiqish ilmiy yangilik sifatida dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqot obyekti sifatida sigir sutidan pishloq ishlab chiqarishda hosil bo‘lgan suyuq zardob tanlandi.

Texnologik jarayon bosqichlari

1. Xomashyoni tayyorlash:

Mexanik filtratsiya orqali begona aralashmalarni ajratish.

Yog‘ qoldiqlarini separator yordamida olib tashlash.

2. Kontsentratsiya:

Vakuum apparatlarda bug‘latish.

Membranali ultrafiltratsiya usuli yordamida quruq modda miqdorini 20–25% gacha oshirish.

3. Shirinlashtirish:

Sakkaroza yoki glyukoza qo‘shish (40–45% konsentratsiyada).

Refraktometr yordamida Brix darajasini nazorat qilish.

4. Funksional qo‘shimchalar qo‘shish:

Vitamin C (askorbin kislota),

Bioflavonoidlar,

Kalsiy va magniy tuzlari.

5. Issiqlik bilan ishlov berish:

72 °C da 20 soniya davomida past-pasterizatsiya,

yoki 110–115 °C da qisqa muddatli sterilizatsiya.

6. Sovutish va qadoqlash:

Siropni 4–6 °C gacha sovutish.

Aseptik sharoitda shisha va PET idishlarga qadoqlash.

Nazorat ko‘rsatkichlari

- **Fizik-kimyoviy:** quruq modda miqdori, pH, shakar miqdori, oqsil miqdori.
- **Mikrobiologik:** umumiy bakteriyalar soni, mog‘or va xamirturush miqdori.
- **Organoleptik:** ta’m, rang, hid, tiniqlik.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zardob asosidagi funksional siroplar quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi:

- Oqsil miqdori: **1,5–2,0%.**
- Laktoza: **3,5–4,5%.**
- Saxaroza: **40–45%.**
- pH**: 5,8–6,2** oralig‘ida.

ISSN 3030-3907

Organoleptik baholash: iste'molchilarning 85% siropni yuqori sifatli, yoqimli ta'mga ega deb baholadi.

Mikrobiologik nazorat: sterilizatsiya samaradorligi yuqori bo‘lib, sanitariya me'yorlariga javob berdi.

Texnologik samaradorlik: membranali kontsentratsiya usuli energiya sarfini 20–25% ga kamaytirganini ko‘rsatdi.

MUHOKAMA

Oddiy shakar siroplaridan farqli o‘laroq, zardob asosidagi funksional siroplar:

- qo‘shimcha oqsil manbai hisoblanadi,
- immunitetni mustahkamlaydi,
- mineral moddalar (kalsiy, magniy) bilan boyitilgan,
- bolalar va sportchilar ovqatlanishida samarali.

Mahsulot tarkibidagi bioaktiv moddalar uni shunchaki shirinlik emas, balki profilaktik qiymatga ega **funksional oziq-ovqat** sifatida baholash imkonini beradi.

Zardobdan samarali foydalanish iqtisodiy jihatdan ham muhim: chiqindilarni kamaytiradi, ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi va qo‘shimcha daromad manbai yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Sut zardobi asosida funksional sirop ishlab chiqarish texnologiyasi amaliy jihatdan samarali yo‘nalish hisoblanadi.
2. Zardobdan to‘liq foydalanish chiqindilarni kamaytiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.
3. Siropning biologik qiymati yuqori bo‘lib, u sportchilar, bolalar va kasallikdan keyin tiklanayotgan bemorlar uchun foydalidir.
4. Membranali kontsentratsiya va past haroratli sterilizatsiya texnologiyasi mahsulot sifatini yaxshilash bilan birga energiya tejamkorligini ta'minlaydi.
5. Kelajakda tadqiqotlarni kengaytirish, yangi bioaktiv qo‘shimchalar qo‘shish va mahsulot assortimentini diversifikatsiya qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.
2. Bell, S. J. (2000). Whey protein concentrates with and without immunoglobulins: A review. Journal of Medicinal Food, 3(1), 1–13. https://doi.org/10.1089/jmf.2000.3.1
3. Mehra, R., Kumar, H., Kumar, N., Ranvir, S., Jana, A., Buttar, H. S., Telessy, I. G., Awuchi, C. G., Okpala, C. O. R., Korzeniowska, M., & Guinė, R. P. F. (2021).

ISSN 3030-3907

Whey proteins processing and emergent derivatives: An insight perspective from constituents, bioactivities, functionalities to therapeutic applications. Journal of Functional Foods, 87, 104760. https://doi.org/10.1016/j.jff.2021.104760

4. Yadav, D., Kumar, N., Singh, R., & Sharma, R. (2015). Whey proteins: A valuable by-product of dairy industry. Journal of Food Science and Technology, 52(5), 2028–2038. https://doi.org/10.1007/s13197-013-1248-y

5. Siqueiros-Cendón, T., Arévalo-Gallegos, S., Iglesias-Figueroa, B. F., García-Montoya, I. A., Salazar-Martínez, J., Rascón-Cruz, Q., & Ríos-Stevens, A. (2014). Immunomodulatory effects of lactoferrin. Acta Pharmacologica Sinica, 35(5), 557–566. https://doi.org/10.1038/aps.2013.200

ISSN 3030-3907

XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGIDA SEL OQIMI VA SUV TOSHQINLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI, OQIBATLARI, AHOLI VA XUDUDLARNI MUHOFAZALANISH CHORA-TADBIRLARI

Xosila Nuraliyeva

Namangan davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda sel-toshqin va ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha mavjud tizimni takomillashtirish, innovatsion yondoshuvlar asosida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda uning samaradorligini yanada oshirish, yuzaga kelishi mumkin favqulodda vaziyatlardan aholining hayoti va sog‘lig‘ini muxofazalashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Sel, suv toshqinlari, suv bosishi, moddiy talofatlar, xavf xatar, odamlarning qurbon bo‘lishi, atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, vayronagarchiliklar.

Abstract. This article focuses on improving the existing system for preventing emergencies related to mudflows and landslides in Uzbekistan. It aims to further increase the system's effectiveness by utilizing modern information technologies based on innovative approaches, with the ultimate goal of protecting the life and health of the population from potential emergencies.

Keywords. Mudflows, floods, inundation, material losses, risks, human casualties, environmental damage, destruction.

Аннотация. Данная статья направлена на совершенствование существующей системы предупреждения чрезвычайных ситуаций, связанных с селепаводковыми и оползневыми явлениями в Узбекистане, дальнейшее повышение ее эффективности с использованием возможностей современных информационных технологий на основе инновационных подходов, защиту жизни и здоровья населения от возможных чрезвычайных ситуаций**.**

Ключевые слова. Сели, наводнения, подтопления, материальные потери, опасности, человеческие жертвы, ущерб окружающей природной среде, разрушения.

Kirish

Respublikada sel oqimi va suv toshqinlari xavfidan muxofazalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan ehtimoli mavjud xavfli hududlar o‘rganilib chiqilgan, maxsus xaritalar va sohaga oid huquqiy me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan. Xavfli hududlarda istiqomat qiladigan aholi soni aniqlanib va ularni vaqtincha va doimiy ko‘chirish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Tabiiy favqulodda vaziyatlarga olib keluvchi sel va suv toshqinlari respublikamiz

ISSN 3030-3907

hududlarida tez-tez yuz berib turadigan hodisalardan biridir. Suv toshqini deganda daryo, ko‘l, kanal yoki dengizda suv sathining ko‘tarilishi natijasida yuz beruvchi va yerlarni ko‘p miqdorda suv bosishi tushuniladi. Ular ko‘proq bahor faslida kuzatilib, nafaqat odamlar hayotiga, balki turar joylarga, ishlab chiqarish obektlariga ham yuqori xavf tug‘diradi. Shu sababli suv toshqinlarini oldini olish, ta’sirini kamaytirish tadbirlarini oldindan amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Respublikamizda shunday tadbirlarni vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Insoniyatning rivojlanish tarixi tabiiy ofatlar va texnogen halokatlar bilan bog‘liqdir Inson manfaati, uning qadr-qimmati, salomatligi va xavfsizligini ta’minlash - kundalik hayotimiz jabhalarida dolzarb, ustuvor va muhim o‘rinni egallaydi.

Turli xil favqulodda vaziyatlar odamlarning qurbon bo‘lishi, ularning sog‘ligi yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoitini izdan chiqarishiga olib keladi.

Respublikamizda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy ofatlardan biz sel, suv toshqini, qor va yer ko‘chkilari alohida e’tibor qaratamiz, chunki O‘zbekiston hududining geografik o‘rni va iqlim sharoitlari sel, qor ko‘chkilari, sel va toshqin hodisalarining sodir bo‘lishiga zamin yaratadi.

Asosiy qism: Insoniyat paydo bo‘lgan davrlardan boshlab, uning hayotiga tabiiy ofatlar doim xavf solib kelgan. Inson bilan tabiat bir biriga chambarchas bog‘liqdir.

Sel doimo tog‘li va tog‘ oldi hududlarda yashovchi aholi o‘rtasida vahima uyg‘otib kelgan. O‘tmishda odamlar uni sehrgarlarning ishi, arvohlarning yovuz qilmishlari, xudolarning qahrli g‘azabidan, deb tushuntirib kelishgan. Ular zilzila, vulqon otilishi, tog‘lardagi jala yoki yoz oylarida qorlarning keskin erishi tog‘lardan keladigan loyli oqimlarning boshlanishidan darak berishini ham bilganlar. Sel xuddi quturgan yovvoyi otlar podasi tezligida o‘tib, yo‘lida uchragan barcha narsani – ekinzorlar, yaylovlar, qishloqlar va butun boshli shaharlarni yakson qilib tashlaydi. Sel o‘tgan joyda faqatgina cho‘l qoladi.

Arabcha sel, sil, seylyun – shiddatli tog‘ oqimi, inglizcha mudflow, mudavalanche, rocmudflow – loy oqimi, tosh-loy oqimi, fransuzcha torrents, mure – tog‘ oqimi, nemischa – wildbach, mure – yovvoyi oqim, loy oqimi, yaponcha yamatsunami – tog‘ to‘lqini ma’nosini anglatuvchi tabiiy ofatning ushbu turi respublikamiz uchun ham yot emas.

Yer yuzida bu kabi hodisalar har yili takrorlanib, ko‘pgina vayronagarchiliklar va insonlarning nobud bo‘lishiga olib keladi.

ISSN 3030-3907


O‘zbekiston Respublikasining deyarli barcha tog‘li va tog‘ oldi hududlari sel xavfi mavjud zonalarga kiradi. Sel Toshkent, Surxondaryo, Jizzax, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida boshqa joylarga nisbatan ko‘p ro‘y beradi.

Favqulodda vaziyatlar monitoringi va bashoratlash markazi axborotlarida keltirilishicha, aprel oyiga sel faoliyatining 27% to‘g‘ri kelgani holda, may oyida bu ko‘rsatkich 33% ni va iyunda 17% ni tashkil etadi. Farg‘ona vadiysida hatto avgust oyida ham sel xavfi saqlanib turadi.

Respublikamizdagi sel va suv toshqinlari ehtimoli mavjud xavfli hududlar “O‘zgidromet” markazi mutaxassislari tomonidan o‘rganilib chiqilgan va maxsus xaritalar ishlab chiqilgan. Ushbu xaritadan Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy, Sirdaryo, Namangan, Samarqand, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida bunday xavf yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli, ushbu viloyatlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan suv toshqini va sel oqimining oldiniolish va xavf-xatarsiz o‘tkazib yuborish maqsadida, har yili daryo va soylarning o‘zanlarini tozalash va qirg‘oqlarini mustahkamlash ishlari olib borilishi tashkil etiladi.

Kezi kelganda shuni aytish mumkinki, sel xavfi bor joylarda yirik nisbatdagi, ayniqsa kichik iqtisodiyot ob’yektlarida 1:5000 va 1:10000 nisbatdagi xaritalar bo‘lishi kerak. Shu xaritalar orqali sel oqimlariga qarshi kurashish, oldini olish, bashoratlash va ular oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va aholining barcha tabaqalari o‘rtasida targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish zarur.

Yurtimizning qaysi hududlarida sel oqimlari paydo bo‘lmasin, ularning tarkibiy qismi, yo‘nalishi va ulardan keladigan zarar deyarli bir xilda namoyon



1-rasm. Sel va toshqinlar yuz berishi mumkin bo‘lgan hududlar xaritasi

Shuning uchun hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan ijobiy tadbirlarda barcha fuqarolar faol ishtirok etishlari, ularni tezroq hayotga tadbiq etishlari va

ISSN 3030-3907

xavfsizlik chora-tadbirlarini amalga oshirishda har birimiz mas'ul bo‘lishimizni davrning o‘zi taqozo etib turibdi.1998 yilning 7 iyulidan 8 iyuliga o‘tar kechasi Shohimardonda yuz bergan sel hodisasi hali hamyurtlarimiz xotirasidan ko‘tarilganicha yo‘q. O‘shanda haroratning keskin ko‘tarilib ketishi qorlarning tez erishiga, so‘ngra har soniyada 200 m^3 hajmga ega sel oqimiga sabab bo‘lgandi. Sel oqibatida 104 nafar kishi hayotdan bevaqt ko‘z yumdi. 15 km uzunlikdagi gaz magistrali, 14 km avtomobil yo‘li, 4 ta ko‘prik, 3 km uzunlikdagi ichimlik suv, 3 km elektr uzatish, 34741 m uzunlikdagi telefon tarmog‘i ishdan chiqdi. 14200 kishini xavfsiz yerlarga ko‘chirishga to‘g‘ri keldi [4].

Sel vujudga keladigan yoki ro‘y berish ehtimoli yuqori bo‘lgan joylar sel o‘chog‘i deb yuritiladi. Sel o‘chog‘i paydo bo‘lishining asosiy ko‘rsatkichi gidrometeorologik sharoit hisoblanadi. Uzoq muddatli jala yog‘ishi va muzliklarning qisqa muddatda jadal erishi oqibatida daryo o‘zanlaridagi suv miqdori keskin ko‘payib ketadi. Katta kuchga ega bo‘lgan oqim paydo bo‘lishi natijasida maydonning quyi qismlarida ko‘pgina vayronagarchiliklar yuz beradi. Shu sababga ko‘ra sellar ikki guruhga bo‘linadi sel oqimlari harakat xususiyati bo‘yicha turbulent va strukturali turlariga bo‘linadi.

Turbulent sellar o‘zan bo‘ylab, daryo va soylardagi suv miqdori ortib ketishi natijasida oqim harakati qonuniga muvofiq vodiy yo‘nalishi bo‘yicha bo‘ladi [3].

Strukturali sellar maydon bo‘ylab, turli tosh bo‘laklarining butun yonbag‘ir bo‘yicha yoppasiga bostirib kelishi natijasida bo‘ladi.

Odatdagi oqimlardan farqli o‘laroq sel uzluksiz oqim sifatida emas, balki alohida to‘lqinlar tarzida harakat qiladi. Shuningdek, o‘zi bilan yuzlab tonna, ayrim hollarda millionlab kubometr yopishqoq massani olib keladi. Ayrim tosh bo‘laklarining o‘lchami ko‘ndalangiga 3-4 metrga yetadi. Sel to‘siqqa uchraganidan so‘ng ularni oshib o‘tadi va yanada kuchli bo‘la boradi[5].

Sel kelishining sabablari. Kuchli va uzluksiz davom etgan yog‘in, harorat ko‘tarilishi natijasida qor va muzliklarning faol erishi, daryo o‘zanlariga katta hajmdagi tuproqning o‘pirilib tushishi, zilzila va inson faoliyati selning yuzaga kelishi uchun sababchi bo‘ladi. (1jadval)

1jadval.

Sel kelish sabablari

Turi	**Birlamchi sababi**	**Tarqalishi va yuzaga kelishi**
Yomg‘irli	Jala, kuchli yomg‘ir	Qoyalarning yuvilishi va ko‘chki hosil bo‘lishi bilan bog‘liq
Muzli	Qor va muzlarning keskin eriy boshlashi	Baland tog‘li hududlarda erigan muzlik suvlarining urib ketishi bilan bog‘liq

ISSN 3030-3907

Seysmogen	Kuchli zilzilalar	Yuqori seysmik faol hududlarda
Insonning bevosita ta’siri	Texnogen jinslarning to‘planishi, sifatsiz qurilgan to‘g‘onlar	Texnogen jinslarning yuvilishi va siljishi, to‘g‘onlarning buzilishi
Insonning bilvosita ta’siri	Tuproq, o‘simlik qoplamining buzilishi	O‘rmon, o‘tloqlar birlashgan maydonlarda, qoya va o‘zanlarning yuvilishi

Muhofaza tadbirlari. Sel hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi omillarning anchagina ko‘pligi uni o‘z vaqtida prognozlashni qiyinlashtirib yuboradi. Shunga qaramay, sel mavsumining boshlanish vaqtini oldindan aytib berish mumkin.Deyarli barcha sel xavfi mavjud hududlar mutaxassislari va tub aholiga yaxshi ma’lum. Har bir hudud uchun sel yuzaga kelishi sabablarining o‘z statistikasi ham bor. Masalan, tog‘li hududlarda yuzaga keladigan sellarga jala va yomg‘ir (85%), qorlarning erishi (6%), tog‘ ko‘llaridan suvlarning toshib chiqishi (5%), tabiiy to‘g‘onlarning yorilishi (4%) sabab bo‘ladi [3].

Aholi harakati. Yuqorida qayd qilinganidek, sellar mavsumiy vaqtlarda sodir bo‘ladigan jarayonlardan ekan, shu vaqtlarda sel xavfi yuqori bo‘lgan hududlarda faoliyat ko‘rsatishning ayrim talablariga rioya qilish zarur. Ko‘p holatlarda aholining ma’lum qismi dam olish vaqtlarini tog‘li o‘lkalarda, daryo bo‘ylarida o‘tkazishga harakat qilishadi. Bu bejiz emas, albatta. Lekin daryo bo‘ylarida vaqtinchalik chodir qurishdan oldin joyning tabiiy sharoiti, relefi, atrof muhitning tuzilishi to‘g‘risida fikr yuritilib, so‘ng to‘xtash joyini belgilash kerak. Yog‘ingarchilik miqdori asta-sekin ortib borishi turgan joyni zudlik bilan o‘zgartirish lozimligiga bildirilgan birinchi ishoradir. Chunki suv miqdorining daryo va soylarda ortib ketishi dam oluvchilarga ortiqcha tashvish tug‘diradi. Mabodo shunday vaziyatda sel oqimlari belgisi sezilgudek bo‘linsa tezlik bilan daryo o‘zanidan iloji boricha uzoqroq, balandroq yonbag‘irga chiqib ketish zarur.
Hozirgi kunda respublikamizda joylashgan suv havzalari qirg‘oqlarini mustahkamlashda asosan 2 xil usuldan foydalaniladi:
- temirbeton konstruksiya;
-gabion konstruksiya.
Qirg‘oqlarni mustahkamlashda temirbeton konstruksiyasi alohida o‘ringa ega.

Betonning fizik-mexanik xossasi, sovuqqa chidamligi va boshqa ekspluatatsiya xususiyatlari mikro va makrokompozit strukturasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Temirbeton tayyorlanish usuliga ko‘ra monolit va yig‘ma konstruksiyalarga bo‘linadi. Monolit temirbeton konstruksiyalar bevosita qurilish maydonlarida tayyorlansa yig‘ma temirbeton esa olib kelib yotqiziladi. Bu esa qirg‘oqning sifatli va ishonchli mustahkamligini ta’minlasada, ammo iqtisodiy

ISSN 3030-3907

jihatdan qimmatlik qiladi [2]. YuNESKO ma’lumotlariga qaraganda, oxirgi yuz yillik ichida suv toshqinlari 9 millionga yaqin odamning yostig‘ini quritgan. Ular yetkazgan moddiy zarar ham juda katta miqdorni tashkil etadi. Odamlarning bu ofatdan qochishi tabiiy. Suv toshqinlaridan samarali muhofazalanish uchun ularni o‘z vaqtida aniq bashorat qilish zarur. Olimlarimizning fikricha, ushbu bashoratning haqqoniyligi hozirgi kunda 100 foizga yaqin. Suv toshqinlaridan muhofaza faol (damba, to‘g‘on, suvni buruvchi kanallar, suv omborlari qurish, daryo o‘zanlarini tartibga solish) yoki sust (aholiga xabar berish va evakuatsiya qilish, ular tomonidan suv bosishi ehtimoli yo‘q joylarni egallash) bo‘lishi mumkin. Tabiiy ofatning ushbu turi to‘g‘risida tasavvur beruvchi, odamlarning bunday vaziyatlarda o‘zlarini tutish qoidalari to‘g‘risidagi axborot keng targ‘ib qilinishi lozim [4].

Albatta, ehtiyot choralarini oldindan tashkillashtirib uyushqoqlik bilan olib borilsa, har qanday fojiadan keladigan talafot va zararni kamaytirishga erishiladi. Lekin, aksariyat hollarda aholi tomonidan beparvolikga yo‘l qo‘yiladi.

Odamlar bu qoidalarni bilishlari, kutilayotgan ofat to‘g‘risidagi ogohlantirishni olgach, o‘z vaqtida mutaxassislarning tavsiyalarini bajarishlari juda muhimdir.

Tabiiy ofat, xususan, suv toshqini qisqa vaqt ichida ma’lum bir talofotlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda suv toshqini sodir bo‘lgan hududda tegishli tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Jumladan, suv toshqini to‘g‘risidagi xabarda odatda favqulodda vaziyat kutilayotgan vaqt, uning chegaralari, aholiga tavsiyalar va evakuatsiya haqida ma’lumot beriladi va mazkur xududda yashovchi inson suv toshqini zonasiga tushib qolgudek bo‘lsa, u holda:

- gaz, elektr, suv tarmoqlarini o‘chirish;
- qimmatbaho buyumlarni yuqori qavatlarga olib chiqish;
- deraza va eshiklarni yopib, taxta yoki faner bilan to‘sish;

-evakuatsiya e’lon qilingan bo‘lsa, hujjatlar, pul va qimmatli qog‘ozlarni, uch kunlik yegulik va tibbiy yordam qutisini hozirlash kerak [1].

Suv to‘satdan ko‘tarilgan hollarda tezlik bilan tepa joylarga chiqish zarur. Yordam yetib kelguniga qadar yuqori qavatlarda, daraxtlar ustida yoki tepaliklarda qolish lozim. Suvga tushishga to‘g‘ri kelgudek bo‘lsa, u holda bochka, g‘o‘la, taxta, eshik, yog‘och bo‘laklari, avtomobil kameralaridan foydalanish mumkin. Bular bo‘lmaganda plastik butilkalar, hatto koptoklar sizni suv ustida ushlab tura olishi mumkin.

Avvalo, har qanday tabiiy ofat yuzaga kelgan maydon va hududda o‘ziga yarasha antisanitariya holati yuzaga keladi. Buning oqibatida odamlar, tirik

ISSN 3030-3907

organizmlar yuqumli kasalliklardan zararlanishi mumkin. Shu vaziyatdan chiqish uchun ma’lum muddatgacha faqat qaynatilgan suv iste’mol qilish va quruq oziq-ovqatlar bilan iste’mol qilish bilan chegaralangan ma’qul. Zarurat tufayli boshqa yerga ko‘chganda, so‘ng qaytib kelinganda uyning holatini, atrof yo‘laklarni sinchiklab ko‘zdan kechirish kerak. Hech vaqt uyga kirishga shoshilmang. Toshqin tufayli uylarning devorlari zax tortishi, namgarchilik me’yoridan ortib ketishi oqibatida inshootlar bardoshligi zaif bo‘lib qoladi, natijada uncha katta bo‘lmagan tashqi kuch ta’sirida binolar qulab ketishi mumkin. Suv to‘planib qolgan joylardan alohida yo‘laklar hosil qilib yurish joylarini tashkil etish kerak [2].

Xulosa. Ta’kidlab o‘tish mumkinki, yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni to‘liq hal etmasdan turib, respublikada sel-toshqin va ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning o‘z vaqtida oldini olish, salbiy oqibatlarini maksimal darajada kamaytirishning imkoni yo‘q.

Shu boisdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini onobatga olgan holda O‘zbekistonda sel-toshqin va ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha mavjud tizimni takomillashtirish, innovatsion yondoshuvlar asosida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda uning samaradorligini yanada oshirish, yuzaga kelishi mumkin favqulodda vaziyatlardan aholining hayoti va sog‘lig‘ini muxofazalash maqsadida quyidagilar

Takliflar:

Viloyat va tumun hokimliklari balansida bo‘lgan daryo, kanallar, soylarning o‘zanlarini tozalash va qirg‘oqlarini mustahkamlash ishlarini doimiy tashkil etish va nazoratni kuchaytirish.

- Favqulodda vaziyatlar vazirligi, vazirliklar, idoralar va boshqa nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ularni oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish va o‘quv mashqlarini doimiy barcha xududlar miqyosida o‘tkazishni ta’minlash.
- Yevropa davlatlari tajribalariga asoslangan holda Sel ,suv toshqini xodisalarini 3D farmatini yaratish va undan aholi va xududlarni favqulodda vaziyatdan muxofaza qilishda joriy etish.
- Xabar berish tizimini takomillashtirish (Aloqa vositalari bilan jihozlash).
- Yilning sel va suv toshqini yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mavsumida, OAV orqali aholini sel va suv toshqini bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va ogohlantirish yuzasidan tayyorlangan vidio rolik, reklama va taqdimotlarni televideniyadagi barcha kanallarga efirga uzatishni yo‘lga qo‘yish;

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi “Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5066-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi «Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida» PQ-3030-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi «2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini Innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5544-sonli Farmoni.
5. Turayev Z.T., Asranov Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish Strategiyasi ishchi o‘quv dasturi. FMI. Toshkent – 2018.

ISSN 3030-3907

UDC: 662.997

COMPREHENSIVE INVESTIGATION OF HYDRODYNAMIC PHENOMENA AND FLOW CHARACTERISTICS IN DOMESTIC WATER HEATING SYSTEMS

Khamraev S.I.

Karshi Engineering Economics Institute (PhD., docent), 180100, Karshi, Uzbekistan

ORCID ID 0000-0002-0847-9488

E-mail : xamrayev@bk.ru

Abstract. The article analyzes the energy consumption for heating a one-story model experimental house, hot water warm floor for experimentation operating at the landfill of alternative energy sources of the Karshi Institute of Engineering and Economics in Kashkadarya region. Based on the analysis, a scheme of the experimental house was created, which will be used in the development of energy saving measures for heating the buildings.

Key words: floor, heating, ventilation, indoor air temperature, outside temperature, electricity consumption, natural gas, energy saving. fuel energy, warm floor.

Аннотация. В статье анализируется потребление энергии на отопление одноэтажного модельного экспериментального дома, горячего водяного теплого пола для экспериментов, работающего на полигоне альтернативных источников энергии Каршинского инженерно-экономического института в Кашкадарьинской области. На основе проведенного анализа была создана схема экспериментального дома, которая будет использоваться при разработке энергосберегающих мероприятий по отоплению зданий.

Ключевые слова: пол, отопление, вентиляция, температура воздуха в помещении, температура наружного воздуха, потребление электроэнергии, природный газ, энергосбережение. топливная энергия, теплый пол.

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatidagi qarshi muhandislik-Iqtisodiyot institutining muqobil energiya manbalari poligonida ishlaydigan bir qavatli namunaviy tajriba uyini, tajriba o'tkazish uchun issiq suvli issiq polni isitish uchun energiya sarfi tahlil qilinadi. Tahlil asosida binolarni isitish uchun energiya tejash choralarini ishlab chiqishda foydalaniladigan eksperimental uyning sxemasi yaratildi.

Kalit so'zlar: zamin, isitish, shamollatish, ichki havo harorati, tashqi harorat, elektr energiyasi iste'moli, tabiiy gaz, energiya tejash. yoqilg'i energiyasi, issiq zamin.

Introduction

Description of the Experimental Setup and Research Methodology. Enhancing the energy efficiency of residential buildings in rural regions,

ISSN 3030-3907

particularly those located far from centralized energy supply networks, while simultaneously reducing the consumption of conventional fuel resources, has become a pressing challenge in recent years [1, 2]. This issue is especially critical during the winter season, when rural households require reliable heating and fuel provision. One of the most effective approaches to addressing this challenge is the application of renewable energy sources [3–6], the development of efficient indoor thermal storage systems [7, 8], and the implementation of hydronic underfloor heating technologies [9, 10, 23–27].

In recent years, water-based underfloor heating systems have gained wide popularity in the construction of single-story residential houses. Initially, these systems were introduced as a supplementary component to conventional heating methods, primarily aimed at enhancing indoor comfort. Their principal advantage lies in the uniform distribution of thermal energy throughout the room. In such systems, the air temperature measured at foot level is typically 3–5 °C higher than that at head level, which corresponds to the most physiologically favorable conditions for human comfort [11].

Compared to traditional radiator-based heating, underfloor systems operate with relatively low temperature gradients between the heating surface and ambient air. This reduces the intensity of convective heat transfer, subsequently lowering indoor airflow velocities. As a result, the circulation of airborne impurities is diminished, while the overall humidity of the indoor environment is maintained at more favorable levels [12].

Underfloor heating systems can generally be classified into two primary categories based on their heat source: electric systems and hydronic (water-based) systems. While electric systems are typically easier and quicker to install, their operational costs are substantially higher due to elevated electricity consumption [13]. Furthermore, electric underfloor systems generate electromagnetic fields during operation, which may pose potential health risks to humans.

Standards for thermal comfort in residential spaces stipulate that the maximum permissible temperature of the floor surface should not exceed 26 °C [14]. Additionally, depending on the type of floor covering material, the optimal surface temperature can be determined following the guidelines presented in [15].

At the “Alternative Energy Sources” educational and research center of the Karshi State Technical University, an experimental study was conducted on a one-story rural dwelling fully powered by solar energy. Within this facility, a water-based underfloor heating system integrated with a solar collector was designed and investigated [16]. The schematic layout of the experimental house, along with the installed hydronic heating system, is presented in Figure 1.1.

ISSN 3030-3907




Figure 1.1. An overview of the experiment solar house and water heated floor system.

The principal component of the system, along with the fundamental layout of the solar-assisted water-based underfloor heating configuration, is illustrated in Figure 1.2. The proposed design serves multiple research objectives: to examine the performance of underfloor heating systems operating directly on solar energy, to conduct experimental investigations of hydrodynamic and heat transfer processes in water-based heating floors, and to determine the optimal parameters for pipe diameter and installation spacing within the heated floor system.

The solar-collector-assisted hydronic floor heating system is composed of both primary and auxiliary equipment, as outlined below:

a) Flat-plate solar collector — employed to heat the circulating water used in both the underfloor heating system and the storage tank. The collector unit consists of several components: the main casing, embedded water flow pipes, a transparent cover, insulating material, and a set of control and measuring devices designed to monitor water temperature, pressure, and flow rates at both the inlet and outlet of the apparatus. The structural specifications of the collector are as follows: the system incorporates a total of five flat-plate collectors, each with an individual dimension of 0.7 × 1 m.

ISSN 3030-3907



Raqamlashtirish ushbu muammolarni bartaraf etishning eng samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. QTEM qurilmalarini xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini yagona axborot tizimi orqali boshqarish – xarajatlarni kamaytirish, vaqtni tejash, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni bartaraf etish, hamda korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Xususan, xorijiy davlatlarda bu jarayon ko‘proq raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi:

Germaniya Federal Tarmoqlar Agentligi tomonidan yaratilgan va 2017-yil 3-iyuldan faoliyat yuritayotgan “Marktstammdatenregister” yagona milliy registry (www.bundesnetzagentur.de) orqali QTEM qurilmalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, kompensatsiya va grantlarni boshqarish, asosiy ma’lumotlaridan foydalanish ma’lumotlar sifatini sezilarli darajada oshirish va energetika sohasidagi ko‘plab jarayonlarni soddalashtirish imkonini beradi. Platformaning asosiy funksiyalari quyidagilar:

1.Real vaqtda elektr ishlab chiqarish (shamol, quyosh, biomassa, gidro, ko‘mir, gaz va yadro energiyasi), elektr iste’moli va import/eksport balansi, bozor narxlari (spot market, intraday) to‘g‘risida ma’lumotlarni olish.

2.Interaktiv grafiklar va xaritalarni vaqt kesimida (soatlik, kunlik, haftalik, yillik) ko‘rsatkichlarni vizual ko‘rinishda tahlil qilish, hududlar bo‘yicha elektr ishlab chiqarish dinamikasini ko‘rsatish.

3.Ma’lumotlarni yuklab olish: Foydalanuvchilar barcha statistikani Excel yoki CSV formatida yuklab olib, qayta ishlash imkoniyatiga ega, ochiq API orqali ilmiy tadqiqotlarda avtomatlashtirilgan ma’lumot yig‘ish.

Qayta tiklanuvchi energiyaning ayrim manbalarini rivojlantirishning joriy holati to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar Federal tarmoq agentligi tomonidan har

ISSN 3030-3907

oyda (odatda har oyning 15-kuni) www.bnetza.de/ee-statistik veb-saytda e’lon qilinib boriladi.

Hindiston – “National Solar Rooftop Portal” orqali onlayn ariza topshirish, GPS koordinatalar asosida qurilma joylashuvini avtomatik tasdiqlash.

Xitoy – blokcheyn asosidagi “Renewable Energy Certificate” tizimi orqali ishlab chiqarilgan har bir MWh energiya bo‘yicha elektron sertifikat berish.

QTEM qurilmalarini xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini yagona axborot tizimi orqali boshqarish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish natijalariga ko‘ra quyidagi taqqoslovchi ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin

1-jadval

Mamlakat	**Strategik maqsad**	**Asosiy texnologiya**	**Moliyalashtirish mexanizmi**	**2023-yil ulushi (%)**	**Raqamlashtirish darajasi**
Germaniya	2050-yilgacha 80% QTEM	Shamol, quyosh + Smart Grid	FIT, auksion	51	Yuqori
Xitoy	2060 karbon neytral	Quyosh, shamol + Big Data	Subsidiyalar, kreditlar	33	Juda yuqori
AQSh	2030-yilgacha 40% QTEM	Microgrid, hydrogen, storage	ITC/PTC, PPP	23	Yuqori
Turkiya	2035-yilgacha 55% QTEM	Quyosh, shamol, geotermal	YEKDEM	44	O‘rta-yuqori

QTEM qurilmalarini xarid qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni yaxshilash, shuningdek, jarayonlarni samarali boshqarish maqsadida axborot tizimlarini yagona platformaga integratsiya qilish muhim qadam hisoblanadi. Yagona platforma yaratishning ahamiyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

Samaradorlik: Axborot tizimlarini yagona platformaga integratsiya qilish orqali davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvini tezlashtirish va shaffoflikni ta’minlash mumkin.

ISSN 3030-3907

Ma’lumotlarni bir joyga to‘plash: Integratsiya qilingan platforma orqali barcha ma’lumotlar bir joyda saqlanadi, bu esa jarayonlarni tezkorlik bilan baholash imkonini beradi.

Qulaylik: Aholi va tadbirkorlik sub’ektlar QTEM qurilmalarini xarid qilish, ular uchun subsidiya yoki kompensatsiya olish jarayonlarini bir tizim orqali boshqarishi mumkin bo‘ladi.

Yagona platformani yaratish bosqichlari quyida keltirilgan omillarni o‘z ichiga oladi: davlat, aholi va xususiy sektorning ehtiyojlari bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish, QTEM bo‘yicha qonunchilik, subsidiya va kompensatsiya ajratish tartiblarini tahlil qilish, mavjud davlat axborot tizimlari (energetika, moliya, subsidiyalar bo‘limi) va xususiy sektor platformalarini integratsiya qilish, barcha ma’lumotlarni himoya qilish uchun xavfsizlik choralarini joriy etish, aholi va tadbirkorlik sub’ektlari uchun QTEM qurilmalarini xarid qilish, subsidiya va kompensatsiya uchun ariza topshirish jarayonlarini osonlashtiruvchi veb va mobil ilova yaratish, davlat va xususiy sektor uchun boshqaruv va monitoring jarayonlari uchun alohida modullarni ishlab chiqish.

Yagona platformaning asosiy funksiyalarida quyidagilarni hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir:

1. Davlat sektori ushbu tizim orqali QTEM qurilmalariga moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni boshqarish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Asosiy funksiyalari quyidagilar:

a) Subsidiya va kompensatsiya ajratish jarayonlarini boshqarish:

tizim orqali fuqarolar va tashkilotlardan kelib tushgan arizalarni avtomatik qayd etish va saqlash, shuningdek, arizalarning to‘liqligi va qonuniyligini avtomatik tekshirish imkoniyati, QTEM qurilmalarining sertifikatlari va texnik talablarga muvofiqligini avtomatik tahlil qilish, har bir arizani o‘z vaqtida ko‘rib chiqish uchun davlat idoralari o‘rtasida avtomatik ma’lumot almashinuvi.

b) QTEM qurilmalarining monitoringi va baholashi:

qurilmalarning ishlash ko‘rsatkichlarini kuzatish, har qanday texnik nosozliklar yoki talablarga zid holatlarni aniqlash, davlat tomonidan ajratilgan subsidiya va kompensatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va QTEM qurilmalarining energiya tejamkorligini hisoblash.

v) Moliyalashtirish jarayonlarini nazorat qilish:

subsidiya va kompensatsiya ajratish jarayonlarini shaffof qilish uchun foydalanuvchilarga ma’lumot taqdim etish, davlat byudjeti doirasida QTEM uchun ajratilgan mablag‘larning taqsimotini real vaqt rejimida kuzatish.

g) Hisobot va tahlillar:

ISSN 3030-3907

QTEM qurilmalarini joriy qilish bo‘yicha umumiy rivojlanish hisobotlarini yaratish, QTEM bo‘yicha davlat siyosati samaradorligini baholash uchun statistik ma’lumotlarni yig‘ish.

2.Xususiy sektor (QTEM qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va moliyaviy tashkilotlar) uchun tizimning asosiy vazifalari:

a) Ma’lumotlarni taqdim etish:

tizim orqali mahsulotlar haqidagi to‘liq ma’lumotni (texnik xususiyatlar, sertifikatlar, narxlar) kiritish, QTEM qurilmalarining davlat standartlariga muvofiqligini tasdiqlash, QTEM qurilmalarini sotuvchi tashkilotlarning ro‘yxati va ularning litsenziyalari haqida ma’lumot berish.

b) Mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni boshqarish:

QTEM qurilmalarini sotish jarayonini avtomatlashtirish, to‘lovlar va moliyaviy yordam imkoniyatlari haqida ma’lumot taqdim etish, mijozlar uchun texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil qilish.

v) Sertifikatlash va standartlashtirish:

QTEM qurilmalarini davlat talablariga muvofiq sertifikatlash jarayonini tezlashtirish, sertifikatlash jarayonida davlat organlari bilan avtomatik ma’lumot almashinuvini ta’minlash.

3.Aholi va kichik biznes vakillari uchun yagona platforma orqali qulaylik yaratiladi:

a) Ariza topshirish va kuzatish:

QTEM qurilmasini subsidiya yoki kompensatsiya asosida xarid qilish uchun elektron ariza berish imkoniyati va hujjatlarni elektron tarzda yuklash, tizim orqali ariza ko‘rib chiqish jarayoni haqida ma’lumot olish, kompensatsiya yoki subsidiyaning tasdiqlanganligini tekshirish.

b) QTEM qurilmalari haqida ma’lumot olish:

turli xil QTEM qurilmalari (masalan, quyosh panellari yoki shamol generatorlari) haqida to‘liq ma’lumot olish va QTEM qurilmalaridan foydalanish orqali qancha energiya va mablag‘ tejash mumkinligini hisoblash.

v) Moliyaviy yordam imkoniyatlari:

QTEM qurilmalarini xarid qilish uchun mavjud subsidiyalar yoki maxsus kredit dasturlari haqida ma’lumot berish va qurilmani xarid qilish uchun oldindan moliyaviy hisob-kitob qilish.

Yagona platformani quyidagi davlat va xususiy sektorlarning mavjud tizimlari bilan integratsiyalashishi lozim:

1. Davlat xizmatlari yagona reyestri – fuqaro va tashkilotlarning ro‘yxatga olish ma’lumotlaridan foydalanish.

2. Davlat boshqaruv organlari va xususiy sektor bilan integratsiyalash:

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligi (ESMA) – QTEM qurilmalari ro‘yxati va litsenziyalash jarayonlari, kompensatsiya va subsidiyalar olish huquqini tekshirish, moliyaviy kompensatsiya va subsidiyalar bo‘yicha ma’lumotlar olinadi.

Ma’lumot uchun: *2025-yil 1-iyul holatiga qadar ushbu funksiyalarni O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Tarmoqlararo energiyani tejash jamg‘armasi bajargan.*

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ – QTEM qurilmalari orqali elektr energiyani ishlab chiqarilishi bo‘yicha ma’lumotlar olinadi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi – moliyaviy kompensatsiya va subsidiyalar bo‘yicha mablag‘lar ajratiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi – import qilingan qurilmalarning kelib chiqishini tasdiqlaydi va ushbu ma’lumotlar olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi – iste’moldan ortiqcha ishlab chiqarilgan elektr energiyasini davlatga sotganlik uchun to‘lovlarni amalga oshiriadi, soliq imtiyozlarini qo‘llaydi va monitoring olib boradi.

Xususiy sektor – bank-moliya tashkilotlari, to‘lov tizimlari, uskunalar yetkazib beruvchilar va lizing kompaniyalari QTEM qurilmalarini sotib olish, etkazib berish, o‘rnatish va ishga tushirishda ishtirok etadi.

Statistik asos: *Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) ma’lumotlariga ko‘ra, energiya sohasida davlat-xususiy ma’lumotlar integratsiyasi joriy etilgan mamlakatlarda investitsiya oqimi o‘rtacha* ***18–25%*** *ga oshgan.*


3. Tijorat banklari, elektron to‘lov va kompensatsiya platformalari (Uzcard, Humo, Payme, Click, Visa va Mastercard kabi) **bilan integratsiyalash:** kredit ajratish va subsidiyalash jarayonini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida kompensatsiya to‘lovlarini tasdiqlash, xarid qiluvchi shaxs yoki korxona uchun shaxsiy kabinetda to‘lov tarixini ko‘rsatish, moliya oqimini avtomatik tahlil qilish, to‘lovlar holatini onlayn kuzatish, qarzdorlik va kechikishlarni minimallashtirish.

Ma’lumot uchun: *Raqamlashtirilgan to‘lov tizimlari joriy etilishi orqali to‘lov kechikishlari* ***60%*** *gacha kamayishi mumkin.*

4. Texnik monitoring tizimlari bilan integratsiyalash: qurilma samaradorligini **IoT (Internet of Things)** sensorlari orqali kuzatish, texnik xizmat muddati va ishlash ko‘rsatkichlarini avtomatik qayd etish, avariya yoki nosozlik yuzaga kelganda real vaqt xabarnomalarini yuborish.

Yagona platformani davlat va xususiy sektorlarning mavjud tizimlari bilan integratsiyasi **API (Application Programming Interface)** va **ESB (Enterprise Service Bus)** texnologiyalari orqali amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907



1-rasm Yagona platformani tizimlar bilan integratsiyalash sxemasi

2-jadval

Yagona platformani mavjud tizimlar bilan integratsiyasi orqali erishiladigan natijalarni quyida keltirilgan ma'lumotlarda ko'rishimiz mumkin

Afzallik turi	Tavsifi	Kutilayotgan natija
Iqtisodiy	Takroriy ma'lumot kiritishni bartaraf etish, operatsion xarajatlarni kamaytirish	Xarajatlarni 15–20% ga kamaytirish
Tashkiliy	Davlat va xususiy sektor o'rtasida tezkor ma'lumot almashinuvi	Qaror qabul qilish vaqtini 40% ga qisqartirish
Texnik	Yagona API va ma'lumot almashish protokollaridan foydalanish	Integratsiya xarajatlarini 30% ga kamaytirish
Ekologik	Samarali monitoring orqali energiya yo'qotishlarini kamaytirish	CO_2 chiqindilarini yiliga 2–3% ga qisqartirish

Xulosa va takliflar

QTEM qurilmalarini xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlari yagona axborot platformasini ishlab chiqish va raqamlashtirish hamda tizimlar integratsiyasi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va fuqarolar va xususiy biznes vakillarining qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda aholi va xususiy biznes vakillari tomonidan QTEM qurilmalarini xarid qilish, xarid qilish xarajatlari bir qismiga davlat

ISSN 3030-3907

mablag‘lari hisobidan kompensatsiya berish axborot tizimini ishlab chiqish, raqamlashtirish va tizimlar integratsiyasi tadqiqot jarayonida aniqlangan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

qog‘oz shakldagi hujjatlar – jarayonni sekinlashtiradi va xatolik ehtimolini oshiradi;

ma’lumotlarni qo‘lda tekshirish – inson omiliga bog‘liq kechikish va korrupsion xavflar mavjud;

boshqa davlat tizimlari bilan integratsiya yo‘qligi – soliq, bojxona, bank ma’lumotlarini avtomatik tekshirish imkoni cheklangan;

monitoring tizimining zaifligi – o‘rnatilgan qurilmalarning real ishlash samaradorligini nazorat qilish mexanizmi yo‘q;

foydalanuvchi uchun murakkab jarayon – arizalarni to‘ldirish va hujjat topshirish jarayoni ko‘pchilik uchun qiyinchilik tug‘diradi.

axborot tizimlarining muvofiqsizligi (davlat va xususiy sektorda turli platformalardan foydalanish);

ma’lumot xavfsizligi masalalari;

qonunchilikdagi kamchiliklar.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar **tavsiya etiladi**:

axborot tizimlarini integratsiya qilish uchun universal protokollarni ishlab chiqish;

barcha foydalanuvchilar uchun kiberxavfsizlik standartlarini joriy etish;

QTEM bo‘yicha qonunchilikni qayta ko‘rib chiqish va muvofiqlashtirish.

Yuqorida qayd etilgan tavsiyalar asosida ish yurilishi natijasida, QTEM qurilmalarini xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlari tezlashadi, davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik yaxshilanadi, fuqarolar va kichik biznes vakillari uchun qulay va shaffof tizim yaratiladi va QTEM bo‘yicha investitsiyalar oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 21.05.2019 yildagi O‘RQ-539-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida” qonuni //https://lex.uz/docs/-4346831.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022 yildagi PF-220-son “Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoni //https://lex.uz/uz/docs/-6189000.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.08.2019 yildagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya

ISSN 3030-3907

manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori // https://lex.uz/docs/-4486125.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020 yildagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori //https://lex.uz/docs/-4800657.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.02.2023 yildagi PQ-57-son “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori // https://lex.uz/docs-6385716.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.10.2022 yildagi 568-son “Aholining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lagan holda sotib olish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” qarori //https://lex.uz/uz/docs/-6225945.
7. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 592 b.
8. 8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “yashil” energetika sohasidagi yirik qo‘shma loyihalarni ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2023-yil 27-dekabr //https://minenergy.uz/uz/news/view/3529
9. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari rivojlanishi bo‘yicha milliy dastur. – Toshkent, 2023. – 75 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. 2030 yilgacha bo‘lgan energetika strategiyasi. – Toshkent, 2022. – 60 b.
11. “Yashil” energetika istiqbollari. Yangi O‘zbekiston gazetasi №200 (200), 2020 yil 20 oktabr.
12. Jacobson, M. Z., & Delucchi, M. A. (2011). Providing all global energy with wind, water, and solar power, Part I: Technologies, energy resources, quantities and areas of infrastructure, and materials. Energy Policy, 39(3), 1154–1169. DOI: 10.1016/j.enpol.2010.11.040
13. Jacobson, M. Z. (2019). 100% Clean, Renewable Energy and Storage for Everything. Cambridge University Press.
14. Brown, M. A., Soni, A., Lapsa, M. V., & Southworth, K. (2021). Policies for Decarbonizing the U.S. Buildings Sector: A Review of Energy Efficiency, Electrification, and Renewable Energy Strategies. Energy Policy, 151, 112–122. DOI: 10.1016/j.enpol.2021.112–122.

ISSN 3030-3907

15. Brown, M. A., Wang, Y., & Sovacool, B. K. (2020). Decarbonizing the U.S. Electric Grid: Technology Options, Policy Tradeoffs, and Externalities. Energy Policy, 146, 111–121.DOI: 10.1016/j.enpol.2020.111–121.
16. Jancovici, J.-M. (2002). L'avenir climatique: quel temps ferons-nous? Éditions du Seuil.
17. Jancovici, J.-M. (2019). Dormez tranquilles jusqu'en 2100: et autres malentendus sur le climat et l'énergie. Odile Jacob.
18. .Heinrichs, H., & Weigel, M. (2022). Digitalization and Smart Grids in the German Energy Transition: Challenges and Opportunities. Fraunhofer Institute for Systems and Innovation Research ISI Report.
19. Agora Energiewende. (2023). The SMARD Data Platform: Increasing Transparency in Germany's Electricity Market. Berlin: Agora Energiewende.
20. Bundesnetzagentur. (2024). SMARD – Die Strommarktdatenplattform. Available at: https://www.smard.de
21. Federal Ministry for Economic Affairs and Climate Action (BMWK). Klimaschutzplan 2050: Germany's Long-Term Climate Strategy. – Berlin, 2020. – 112 p.
22. Agora Energiewende. Germany's Energiewende: Aims, Status, and Challenges. – Berlin, 2022. – 85 p.
23. Government of China. China's 14th Five-Year Plan and 2060 Carbon Neutrality Goal. – Beijing: National Development and Reform Commission, 2021. – 96 p.
24. Zhang, X. va boshq. China's Pathway Towards Carbon Neutrality by 2060 // Energy Policy. – 2023. – Vol. 170. – P. 113–129.
25. U.S. Department of Energy (DOE). Clean Energy Standard 2030. – Washington D.C., 2021. – 74 p.
26. National Renewable Energy Laboratory (NREL). Microgrids, Hydrogen, and Storage in the U.S. Energy Transition. – Golden, Colorado, 2022. – 56 p.
27. Ministry of Energy and Natural Resources of Turkey. Renewable Energy Support Mechanism (YEKDEM). – Ankara, 2021. – 64 p.
28. Aydin, M.; Yilmaz, S. Evaluation of Renewable Energy Support Mechanisms in Turkey // Renewable Energy Journal. – 2022. – Vol. 195. – P. 410–425.
29. Internet resurslar
30. https://www.lex.uz
31. https://president.uz
32. https://minenergy.uz
33. http://www.power-technology.com
34. https://gov.uz/oz/soliq

ISSN 3030-3907

35. https://www.smard.de
36. https://iesf.uz
37. https://energymarket.uz

ISSN 3030-3907

UO‘K: 620.92:536

QUYOSH ENERGIYASI TIZIMLARIDA ARZON ISSIQLIK SAQLOVCHI MATERIALLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Safarova Setora Ulug‘bek qizi
Qarshi davlat texnika universiteti, tayanch doktorant PhD
Qarshi shahri, O‘zbekiston
ORCID: 0009-0000-5220-7124,
E-mail: safarovasetora1112@gmail.com
Ergashev Shaxriyor Hamidullayevich
Qarshi davlat texnika universiteti, texnika fanlari falsafa doktori PhD dotsent
Qarshi shahri, O‘zbekiston
ORCID: 0000-0002-3336-9942
E-mail: strong.shakhrier@mail.ru

Anotatsiya. Mazkur maqolada quyosh energiyasi tizimlarida issiqlikni saqlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Issiqlik akkumulyatsiyasi uchun arzon va mahalliy materiallardan — pishgan g‘isht, beton, keramika, tosh, qum, tuproq hamda fazani o‘zgartiruvchi materiallardan biri bo‘lgan parafinning issiqlik-fizik xossalari tahlil qilindi. Ularning zichligi, issiqlik sig‘imi, issiqlik o‘tkazuvchanligi va issiqlikni saqlash davomiyligi nazariy asosda va hisoblashlar orqali taqqoslandi. Natijalarga ko‘ra, parafin issiqlikni eng uzoq muddat (≈9 soat) saqlash qobiliyatiga ega ekanligi aniqlandi. Pishgan g‘isht va beton esa amaliyotda arzonligi va mavjudligi sababli samarali variant sifatida tavsiya qilinadi. Qum va tuproq qisqa muddatli issiqlik akkumulyatsiyasi uchun foydali bo‘lsa-da, ularning issiqlikni ushlab qolish qobiliyati pastligi ta’kidlandi. O‘zbekiston sharoitida quyosh energiyasining yuqori salohiyati va mahalliy arzon materiallarning keng tarqalganligi hisobga olinsa, mazkur yechimlar issiq suv ta’minoti, isitish tizimlari, issiqxonalar va qishloq xo‘jaligida keng joriy etilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: quyosh energiyasi, issiqlik akkumulyatsiyasi, issiqlik-fizik xossalar, arzon materiallar, issiqlik o‘tkazuvchanlik.

Annotation. This article examines the issues of heat storage in solar energy systems. The thermophysical properties of low-cost and locally available materials — fired brick, concrete, ceramics, stone, sand, soil, as well as paraffin, which is one of the phase change materials (PCM), are analyzed. Their density, specific heat capacity, thermal conductivity, and heat storage duration were compared on the basis of theoretical principles and calculations. The results show that paraffin has the highest capacity to store heat for the longest duration (≈9 hours). Fired brick and concrete are recommended as practical and cost-effective options due to their affordability and wide availability. Sand and soil are useful for short-term heat storage, but their ability to retain heat is relatively low. Considering Uzbekistan’s high solar energy potential and the wide availability of cheap local materials, these solutions can be widely applied in hot water supply, heating systems, greenhouses, and agriculture.

Keywords: solar energy, heat storage, thermophysical properties, low-cost materials, thermal conductivity.

ISSN 3030-3907

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы аккумулирования тепла в системах солнечной энергии. Проанализированы термофизические свойства дешёвых и местных материалов — обожжённого кирпича, бетона, керамики, камня, песка, почвы, а также парафина, являющегося одним из фазоизменяющих материалов (PCM). Их плотность, удельная теплоёмкость, теплопроводность и длительность хранения тепла были сопоставлены на основе теоретических принципов и расчётов. Согласно результатам, парафин обладает наибольшей способностью длительно сохранять тепло (≈9 часов). Обожжённый кирпич и бетон рекомендуются как практичные и экономичные варианты благодаря своей доступности и распространённости. Песок и почва полезны для кратковременного аккумулирования тепла, однако их способность удерживать тепло относительно низкая. Учитывая высокий потенциал солнечной энергии в Узбекистане и широкую доступность дешёвых местных материалов, данные решения могут быть широко внедрены в системах горячего водоснабжения, отопления, теплицах и сельском хозяйстве.

Ключевые слова: солнечная энергия, аккумулирование тепла, термофизические свойства, дешёвые материалы, теплопроводность.

Kirish

Bugungi kunda jahon energetika tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Global iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va an’anaviy qazilma yoqilg‘i zaxiralarining kamayib borishi insoniyatni yangi, barqaror va ekologik toza energiya manbalaridan foydalanishga majbur qilmoqda. Shulardan eng istiqbolli yo‘nalishlardan biri bu – quyosh energiyasidan foydalanishdir. Quyosh energiyasi insoniyat uchun cheksiz va bepul manba bo‘lib, undan turli usullarda issiqlik va elektr energiyasi olish mumkin.

Quyosh kollektorlarida hosil bo‘ladigan issiqlik energiyasi odatda darhol iste’mol qilinmaydi. Masalan, kun davomida yig‘ilgan issiqlik energiyasini kechasi ishlatish talab qilinadi. Shu bois, bunday tizimlarda issiqlikni ma’lum vaqt davomida saqlab turuvchi maxsus issiqlik akkumulyatorlariga ehtiyoj tug‘iladi. Issiqlikni saqlash texnologiyalari yordamida ishlab chiqarilgan energiyaning muayyan qismi yo‘qolib ketmasdan, keyinchalik foydalanuvchiga yetkaziladi. Bu esa nafaqat tizim samaradorligini oshiradi, balki energiya tejamkorligini ham ta’minlaydi.

Quyosh kollektorlarining qismlari bir-biri bilan uzviy bog‘langan qatlamlardan tashkil topgan bo‘lib, ular energiyani maksimal darajada yig‘ish va samarali foydalanishga xizmat qiladi. Tashqi tomondan kollektor maxsus profil (1) bilan mustahkamlangan bo‘lib, bu butun qurilmaning barqarorligini ta’minlaydi. Germetik qopqoq (2) tashqi muhit ta’siridan himoya qiladi va issiqlikning yo‘qotilishini sezilarli darajada kamaytiradi. Kollektor ichida joylashgan quvurlar (3) orqali issiqlik tashuvchi suyuqlik harakatlanadi, ular orqali yutilgan energiya tashqariga uzatiladi. Quvurlar ustida issiqlik yutuvchi qoplama (4) bo‘lib, u quyosh nurlarini to‘liqroq yutadi va issiqlikka aylantiradi. Hosil bo‘lgan issiqlik maxsus

ISSN 3030-3907

akkumulyatsion materiallar (5) da saqlanib, kollektorning barqaror ishlashini ta’minlaydi. Tashqi qatlamda esa oynali qoplama (6) mavjud bo‘lib, u quyosh nurlarini o‘tkazadi, lekin issiqlikning tashqariga chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi hamda qurilmani mexanik ta’sirlardan himoya qiladi (1-rasm) [1, 2].



1) profil;
2) germetik qopqoq;
3) quvur;
4) issiqlik yutuvchi qoplama;
5) issiqlik akkumulyatsion materiallar;
6) oynali qoplama

1-rasm. Issiqlik akkumulyatsion quyosh kollektorlarining umumiy tuzilishi

Issiqlik akkumulyatorlari sifatida turli xil materiallardan foydalanish mumkin. Ulardan ba’zilari yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, qimmat va murakkab texnologiyalarni talab qiladi. Shu sababli so‘nggi yillarda arzon, mahalliy sharoitda mavjud va ekologik toza materiallardan foydalanish imkoniyatlarini tadqiq qilish dolzarb masalaga aylandi .

Dunyo miqyosida quyosh kollektorlarida issiqlik akkumulyatsiyasi masalalari keng tadqiq qilinmoqda. Jumladan, Hindiston va Xitoyda olib borilgan tadqiqotlarda qum va toshdan issiqlik akkumulyatori sifatida foydalanish issiqxonalarda haroratni 3–5 °C ga barqaror ushlab turishga imkon bergani qayd etilgan. Turkiyada amalga oshirilgan tajribalarda pishgan g‘isht va beton bloklari kunduzgi issiqlikni yig‘ib, kechqurun 4–6 soat davomida issiqlik chiqarib bergan.

Fazani o‘zgartiruvchi materiallar (PCM) bo‘yicha ham ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan. Masalan, Germaniya va Ispaniyada parafin asosidagi PCM kapsulalari qo‘llanilganda suvning 50–55 °C harorati 8–10 soat davomida barqaror ushlab turilgani aniqlangan. Bu natijalar bizning hisoblashlarda olingan qiymatlarga juda yaqin (≈9 soat).

Shuningdek, AQSh va Kanada ilmiy markazlarida issiqlik akkumulyatsiyasi uchun arzon qurilish chiqindilari – shag‘al, g‘ovakli beton va kul qo‘shilgan g‘ishtlardan foydalanish samaradorligi o‘rganilgan. Ularning xulosasiga ko‘ra, bunday materiallar arzon va ekologik jihatdan foydali bo‘lsa-da, issiqlikni saqlash davomiyligi parafin yoki eritilgan tuzlarga qaraganda ancha qisqa [3, 4, 5].

O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa quyosh nurlanishi yuqori bo‘lgan hududlarda, arzon issiqlik saqlovchi materiallardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlarida quyoshli kunlar soni yiliga 280–300 kunga yetadi. Bu hududlarda quyosh kollektorlaridan keng foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘lsa-da, issiqlikni samarali saqlab qolish masalasi hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, mahalliy aholi uchun oddiy va arzon variantlarni joriy etish orqali energiya tejash, xo‘jaliklarda avtonom issiq suv ta’minoti tizimlarini yaratish mumkin [6, 7].

Uslub va materiallar

ISSN 3030-3907

Quyosh kollektorlarida issiqlikni saqlash uchun arzon va oson topiladigan materiallardan foydalanish masalasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar energiya tejash, ekologik muhitni yaxshilash, hamda aholiga qulay va arzon issiqlik manbalarini taqdim etishda katta rol o‘ynaydi.

Issiqlik akkumulyatsiyasi tizimlari asosan ikki turga bo‘linadi:

1) Sezgir issiqlikni akkumulyatsiya qilish – materialning o‘z haroratini oshirish orqali issiqlikni saqlash. Masalan, beton, tosh yoki g‘ishtni quyoshda qizdirib, keyinchalik ular asta-sekin soviydi va shu bilan issiqlikni qaytaradi.

2) Latent issiqlikni akkumulyatsiya qilish – fazani o‘zgartirish (masalan, qattiq → suyuq yoki suyuq → gaz) orqali issiqlikni saqlash. Masalan, parafin 50–60 °C da eriyotganda juda katta miqdorda issiqlikni o‘zida to‘playdi va bu jarayonda harorati deyarli o‘zgarmaydi [8].

Issiqlik akkumulyatsiyasi jarayonida materialning umumiy saqlagan issiqlik miqdorini aniqlash uchun klassik termofizik tenglamalardan foydalanildi. Bunda issiqlik sig‘imi, zichlik va harorat farqi asosiy hisobiy ko‘rsatkich sifatida qabul qilindi.

Materialning qizish va sovish tezligi tashqi muhit bilan issiqlik almashinuvi qonunlari asosida aniqlanadi. Nevton sovish qonuniga ko‘ra:

$$Q' = h \cdot A \cdot (T_{material} - T_{muhit}) \quad \text{(Vt)}, \qquad (1)$$

bu yerda Q' – vaqt birligida yo‘qotilayotgan issiqlik oqimi (Vt yoki kJ/s), h – issiqlik uzatish koeffitsienti (Vt/m² K), A – sirt yuzasi (m^2), $T_{material}$ – materialning harorati (°C), T_{muhit} – tashqi harorati (°C).

Materialdagi umumiy issiqlik zaxirasini topamiz:

$$Q = m \cdot c \cdot (T_{material} - T_{muhit}) \quad \text{(J)}, \qquad (2)$$

bu yerda Q – materialdagi umumiy issiqlik zaxirasi (kJ), c – issiqlik sig‘imi (kJ/kg K)

Keyin sovishda har soniyada yo‘qotilayotgan issiqlikni hisoblaymiz:

$$t = \frac{Q'}{Q} = sekund, \qquad (3)$$

Matematik model sifatida, quyosh nuri ta’sirida materialning qizish tezligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{dT}{dt} = \frac{G \cdot A \cdot \alpha}{m \cdot c}, \qquad (4)$$

bu yerda: G – quyosh radiatsiyasi (Vt/m²), α – yutilish koeffitsienti, m·c – materialning massasi (kg) va issiqlik sig‘imi (J/(kg*°C)[9, 10, 11].

Natijalar

Ushbu tadqiqotda arzon issiqlik saqlovchi materiallarning quyosh kollektorlarida qo‘llash samaradorligi hisoblashlar asosida baholandi. Har bir material uchun massa, umumiy issiqlik sig‘imi, qizish va sovish vaqtlarining nazariy qiymatlari aniqlandi. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, materiallarning issiqlikni yig‘ish va uni ma’lum vaqt davomida saqlab qolish qobiliyati ularning issiqlik-fizik xossalari bilan bevosita bog‘liq (1-jadval).


ISSN 3030-3907

1-jadval

Turli materiallarning issiqlik xossalari

Material	O‘rtacha zichlik ρ (kg/m³)	Issiqlik sig‘imi c (kJ/kg·K)	Issiqlik o‘tkazuvchanlik λ (Vt/m·K)
Parafin	770–900	2.1–2.9	0.2–0.4
Pishgan g‘isht	1900 – 2000	0.8-0.9	0.6 – 0.8
Tosh	2500–3000	0.8–0.9	2–4
Beton	2200–2500	0.84–1.0	1.4–2.0
Keramika	1800–2400	0.75–0.9	1.0–2.5
Qum (quruq)	1500–1700	0.80–0.85	0.25–0.5
Tuproq (quruq)	1200–1600	0.75–0.85	0.25–0.6

Hisoblashlarda quyosh radiatsiyasi G=800 Vt/m² deb qabul qilindi va yutilish koeffitsienti α=0.8 hisobga olinganda 1 m² yuzali 5 sm qalinlikdagi turli xil materiallarning qatlamlari qabul qilindi. Barcha materiallar uchun boshlang‘ich harorat 20 °C, yakuniy harorat 60 °C deb olindi. Issiqlik almashinuvi jarayonida tashqi muhit harorati 20 °C bo‘lib, sovish hisoblari Nevton sovish qonuni asosida bajarildi.



1-rasm. Materiallarning isish va sovish vaqtlari grafigi (soat)

Quyosh kollektorlarida issiqlik asosan suv, havo yoki qattiq issiqlik akkumulyatorlari orqali yig‘iladi. Agar issiqlik saqlash materiali sifatida arzon qurilish materiallari ishlatilsa, tizimning umumiy qiymatini arzonlashtiradi va aholi uchun foydalanish qulay bo‘ladi.

Arzon issiqlik saqlovchi materiallardan foydalanish quyosh kollektorlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular issiqlikni kun davomida yig‘ib, tungi vaqtda foydalanuvchiga yetkazadi. Bu nafaqat energiya tejash, balki iqtisodiy va ekologik foyda ham beradi.

Xulosa

O‘tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, quyosh kollektorlarida issiqlikni saqlash uchun turli materiallardan foydalanish mumkin,

ISSN 3030-3907

ammo ularning samaradorligi issiqlik-fizik xossalariga bevosita bog‘liq. Issiqlik akkumulyatsiyasi jarayonida asosiy rolni materialning zichligi, maxsus issiqlik sig‘imi va issiqlik o‘tkazuvchanligi o‘ynaydi.

Parafin eng samarali issiqlik saqlovchi material sifatida ajralib chiqdi. 1 m² yuzali va 5 sm qalinlikdagi parafin qatlami massasi atigi 40 kg bo‘lishiga qaramay, umumiy issiqlik sig‘imi 11 200 kJ ga teng. Bu natija pishgan g‘isht yoki betonnikidan deyarli uch baravar ko‘pdir. Parafin 60 °C dan 20 °C gacha sovishda 9 soatgacha issiqlikni ushlab tura oladi. Bu xususiyat uni issiq suv ta’minoti va kechki isitish tizimlari uchun eng maqbul materialga aylantiradi.

Pishgan g‘isht va beton arzonligi va keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Ular issiqlikni o‘rtacha darajada saqlaydi (3–4 soat), shu sababli mahalliy uy xo‘jaliklari va issiqxonalarda samarali qo‘llanilishi mumkin. Ayniqsa, qishloq hududlarida qurilishda ishlatiladigan g‘isht devorlar tabiiy issiqlik akkumulyatori vazifasini bajaradi.

Tosh yuqori zichlikka ega bo‘lgani sababli issiqlikni ko‘p yig‘adi, ammo sovish tezligi betonga yaqin bo‘lib, 3 soat atrofida issiqlikni saqlaydi. Bu uni sanoat quritish sexlarida yoki yirik issiqlik akkumulyatorlari sifatida qo‘llash imkonini beradi.

Keramika yuqori haroratga chidamli, ammo mo‘rt va qimmat materialdir. Shuning uchun u issiqlik akkumulyatori sifatida ko‘proq sanoatda, maxsus qurilmalarda ishlatilishi mumkin.

Qum va tuproq eng arzon va hamma joyda mavjud materiallardir. Ular issiqlikni tez yig‘adi, ammo tez chiqaradi. Shu sababli ular qisqa muddatli issiqlik akkumulyatorlari sifatida issiqxonalar, parrandachilik fermalari va oddiy uy xo‘jaliklarida foydali bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Duffie J.A., Beckman W.A. Solar Engineering of Thermal Processes. – 4th ed. – New Jersey: Wiley, 2013. – 816 p.
2. Kalogirou S.A. Solar Energy Engineering: Processes and Systems. – 2nd ed. – Oxford: Academic Press, 2014. – 840 p.
3. Sharma A., Tyagi V.V., Chen C.R., Buddhi D. Review on thermal energy storage with phase change materials and applications // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2009. – Vol. 13, №2. – P. 318–345.
4. Zalba B., Marín J.M., Cabeza L.F., Mehling H. Review on thermal energy storage with phase change: materials, heat transfer analysis and applications // Applied Thermal Engineering. – 2003. – Vol. 23, №3. – P. 251–283.
5. Farid M.M., Khudhair A.M., Razack S.A.K., Al-Hallaj S. A review on phase change energy storage: materials and applications // Energy Conversion and Management. – 2004. – Vol. 45, №9–10. – P. 1597–1615.
6. Hasanov B. O‘zbekiston sharoitida quyosh kollektorlarining samaradorligini oshirish yo‘llari // O‘zbekiston Energetika Jurnali. – 2020. – №3. – P. 45–52.
7. Karimov K.S., et al. Development of solar thermal collectors and their applications in Central Asia // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2012. – Vol. 16, №8. – P. 4907–4916.

ISSN 3030-3907

8. Mehling H., Cabeza L.F. Heat and Cold Storage with PCM: An Up to Date Introduction into Basics and Applications. – Berlin: Springer, 2008. – 308 p.
9. Memon S.A. Phase change materials integrated in building walls: A state of the art review // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2014. – Vol. 31. – P. 870–906.
10. Enhancing solar drying with paraffin PCM // Scientific Reports. – 2025. – Vol. 15. – P. 1–10. DOI: 10.1038/s41598-025-01555-5.
11. Experimental study of PCM storage in solar collectors // Journal of Energy Storage. – 2025. – Vol. 73. – P. 102868.

ISSN 3030-3907

THE IMPORTANCE OF LEARNING MULTIPLE LANGUAGES

Yusupxodjayeva Aziza Muhamadsodik qizi
Senior lecturer at Tashkent International University of Financial Management and Technologies (TIFT)
E-mail: azizasadikovna@mail.ru

Annotation: this article is based on the role and the importance of learning and using languages in different places and spheres. The above articles state some issues while learning a language and provides reasonable solutions on the given problems. In this article, we'll explore strategies for learning multiple languages effectively and the numerous advantages that come with this endeavor. And you can start learning languages today.

Key words: Multilanguage strategies cognitive skills practice bilinguals cognitive spheres bilingual.

Аннотация: эта статья основана на роли и важности изучения и использования языков в разных местах и сферах. В приведенных выше статьях излагаются некоторые проблемы при изучении языка и предлагаются разумные решения для данных проблем. В этой статье мы рассмотрим стратегии эффективного изучения нескольких языков и многочисленные преимущества, которые дает это начинание. И вы можете начать изучать языки уже сегодня.

Ключевые слова: многоязычные стратегии когнитивные навыки практика двуязычные когнитивные сферы двуязычный.

Annotatsiya: Ushbu maqola turli yo'nalishlarda va sohalarda tillarni o'rganish va ulardan foydalanishning o'rni va ahamiyatiga asoslanadi. Yuqoridagi maqolalarda til o'rganish jarayonida ba'zi muammolar bayon etilgan va berilgan muammolarning oqilona yechimlari keltirilgan. Ushbu maqolada biz bir nechta tillarni samarali o'rganish strategiyalarini va bu ish bilan birga keladigan ko'plab afzalliklarni ko'rib chiqamiz. Siz bugundan tillarni o'rganishni boshlashingiz mumkin.

Kalit so'zlar: Ko'p tilli strategiyalar kognitiv ko'nikmalar amaliyoti ikki tilli kognitiv sohalar ikki tilli

ISSN 3030-3907



To learn a language is to have one more window from which to look at the world. (Chinese proverb)

INTRODUCTION

Language is the key to connect the world, through mastering multiple languages we can transform our perspective, boost our cognitive skills and prepare for global opportunities. Learning a language can asset many aspects of life, we can provide many reasons of it for instance, a language can help you to build your career or helpful for personal growth. This article will speak about the importance and reasons of Multilanguage and how to learn more than one language at the same time.

Let's begin with the importance and the role of a language in personal growth and career. Studies have discovered that people who are learning a language have better memory, especially who use Multilanguage have better issue-solving abilities rather then monolinguists. This cognitive prelude is renowned as the "bilingual advantage" and it can even slow the commencement of age-related cognitive decay. An examination by New York revealed that bilinguals are more likely to sustain intellectual aptitude in old age than monolinguals. The next thing to consider is brain development, bilinguals keep enlarged neural plasticity and cognitive reserve. For example, analysis by the University of Edinburgh learnt that bilinguals have a more considerable gray matter density in the left inferior parietal cortex, which is linked with language digesting and emphasis. Furthermore, language learning can alter the construction and invariability of the brain. Especially for young learners this early exposure to language significantly

ISSN 3030-3907

improves their intellectual capabilities. Language skills build resilience and emotional intelligence, shaping individuals into well-rounded personalities. While learning a new language, you gain access to a new culture, history and way of thinking. This understanding fosters empathy and tolerance, helping students connect with people from diverse backgrounds. In an Indian international school, for example, students often experience a blend of Indian values and global education, broadening their worldview.

Multilingual learners develop a sense of global citizenship, which is essential in today's interconnected world. Cultural awareness makes individuals more adaptable and better equipped to navigate diverse social and professional environments. A 2007 study by the American Council on the Teaching of Foreign Languages found that children who learned a foreign language performed better in math than those who did not study a foreign language at all, even though they had more hours of math in their school curriculum. Not surprisingly, learning the basics of another language helps develop logical thinking. Learning a foreign language improves your ability to remember new information, which reduces the time it takes to study. In addition, people who speak multiple languages tend to multitask better.

The most important factor in ensuring success in learning any foreign language is ability and desire. You cannot be afraid of the issue of ability, because everyone has it. In 2006, American scientist Richard Sparks proved with his research that the idea that some kind of universal innate talent is needed to learn a language is unfounded. Now, as for desire. The wise saying "Desire is a thousand opportunities, and unwillingness is a thousand excuses" is very apt. Determine one thing: do you want to learn a language or not? If your desire is serious, the following tips will definitely help you:

Use dictionaries. Many linguists believe that learning a language with the help of dictionaries gives a great incentive to memorize individual words and phrases, as well as sentence structure. A person who learns a language through ready-made sentences in the first person does not simply repeat the sentences, but feels himself in certain situations. For example, while learning the phrases needed for shopping in a store, a person feels as if he is buying and selling. A study was conducted in a school specializing in in-depth teaching of English in Russia. Students remembered the part of the text in the first person by ninety-eight percent. This shows that learning a language with the help of dictionaries is very effective.

Materials and methods

Work according to the rule. Experts have found a very effective way to master new words. You memorize 30 words a day, 5 of which should be verbs.

ISSN 3030-3907

Every day, you sort the words from the dictionary alphabetically. For example, if today the first thirty words of the letter “A” are chosen, tomorrow the thirty words of the letter “B” are chosen. After going through the alphabet completely, the next thirty words of the letter “A” are memorized. This habit gradually forms into a system, and your memorization becomes easier and easier. For this method to be beneficial, memorize words every day, there should be no days off at all! Learn poems and songs. One of the most enjoyable and effective methods is to learn foreign poems and songs along with their translations. There are many people who have learned English in three months using this method. Linguists say that this method is especially effective when the learner translates the poems and songs himself.

Understand the content. Psychologists who study foreign language acquisition have drawn attention to one mistake that many people make: learners often try to fully understand what the speaker is saying or a conversation on a tape recorder. In fact, you should strive to understand the general meaning, not to catch every sound. Try to study the intonation of the language, the frequent repetition of words, and the structure of sentences. Do not focus on small details. Feel the situation. From the very first days of learning the language, try to describe the objects, events, and situations around you. For example, a student and a teacher can “organize” a conversation in the kitchen. Of course, it is not necessary to go to a meal for this. In the classroom itself, they behave as if they are eating. During the conversation, the names of kitchen utensils, food, and ingredients are mentioned. They can ask each other to pass something on.

Make a reasonable plan: Not only in learning a language, but also in any activity, the first and the most important thing to considers is to make a clear plan for this work and to engage in it consistently. For example, in learning a language, practicing continuously for 40 to 80 minutes every day means practicing from 1200 to 2400 minutes in 1 month. Practice done little by little every day will definitely give its results in months and years.

Results

Cognitive Benefits

Research shows that bilingual and multilingual individuals often have enhanced cognitive abilities compared to monolinguals. Learning multiple languages improves brain functions such as memory, problem-solving, and multitasking. It increases cognitive flexibility, allowing individuals to switch between tasks more easily and adapt to new situations with greater efficiency. Moreover, studies suggest that multilingualism can delay the onset of age-related cognitive decline and dementia.

ISSN 3030-3907

Academic Advantages

Students who learn multiple languages tend to perform better academically. They develop stronger reading, writing, and communication skills, which transfer across languages and subjects. Language learning also enhances understanding of grammar and vocabulary, leading to improved literacy. Multilingual learners often show greater creativity and critical thinking skills, which contribute to academic success.

Social and Cultural Awareness

Being able to speak multiple languages fosters better social interaction and cultural understanding. It enables individuals to communicate with a wider range of people, building empathy and breaking down cultural barriers. Multilingualism encourages openness and respect for diversity, qualities essential for peaceful coexistence in multicultural societies. It also enhances travel experiences and allows deeper engagement with other cultures.

Professional and Economic Opportunities

In the global job market, multilingualism is a significant asset. Employers value employees who can communicate with international clients and partners. Multilingual individuals often have better job prospects, higher salaries, and more opportunities for career advancement. Sectors such as tourism, diplomacy, international business, and education particularly benefit from employees who speak multiple languages.

Personal Growth and Confidence

Learning new languages challenges the mind and broadens horizons, leading to personal growth. It increases self-confidence and motivates lifelong learning. The experience of mastering a foreign language fosters patience, discipline, and perseverance.

Conclusion

The significance of learning multiple languages extends far beyond the simple ability to communicate with speakers of other tongues. In today's globalized society, multilingualism has become an indispensable skill that enriches individuals cognitively, socially, academically, and economically. As the world becomes increasingly interconnected through technology, trade, and migration, the advantages of being proficient in multiple languages multiply, making language learning not just a personal enrichment but a societal necessity.

Cognitive Enhancement and Lifelong Brain Health

One of the most well-documented benefits of multilingualism lies in its profound impact on cognitive function. Learning and using multiple languages require the brain to engage in complex processes such as memory retention,

ISSN 3030-3907

attention control, and task-switching. This cognitive exercise strengthens neural networks, enhancing mental agility and flexibility. Studies indicate that multilingual individuals excel in problem-solving, multitasking, and creative thinking compared to their monolingual peers.

Moreover, lifelong use of multiple languages has been linked to delayed cognitive decline and a lower risk of dementia and Alzheimer's disease. The continuous mental challenge of managing different language systems appears to create cognitive reserve—a kind of mental resilience that protects the brain from age-related degeneration. Thus, multilingualism not only benefits young learners but also promotes brain health across the lifespan, underscoring its importance as a preventive strategy in aging populations.

Academic and Educational Benefits

The academic advantages of multilingualism are equally significant. Language learners often develop superior literacy skills, including a deeper understanding of grammar, syntax, and vocabulary, which enhances their proficiency not only in the languages they study but also in their native tongue. This linguistic awareness supports better reading comprehension and writing abilities.

